

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

UDK
Qo‘lyozma huquqida

MAGISTRATURA BO‘LIMI
O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

RAJABOVA OYDIN ANVAROVNA
«XURSHID DO‘STMUHAMMAD ASARLARIDA
IJODIY INDIVIDUALLIK»

Mutaxassislik: 5A111201 - o‘zbek tili va adabiyoti

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Davlat attestatsiya komissiyasida
himoya qilishga ruxsat berildi.

Magistratura bo‘limi boshlig‘i:

Kafedra mudiri:

Ilmiy rahbar:

dots. B.Atashev

f.f.n. S.Matyakupov

f.f.n. S.Matyakupov

NUKUS – 2015

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. XURSHID DO‘STMUHAMMADNING BADIY MAHORATI	
1.1. Xurshid Do‘stmuhammad va o‘zbek adabiyoti.	8
1.2. Adib ijodida shakliy-uslubiy izlanishlar	11
II BOB. XURSHID DO‘STMUHAMMAD HIKOYALARI BADIYATI	
2.1. Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalarida inson taqdiri talqini	32
2.2. Ramziy-falsafiy talqindagi o‘ziga xoslik	40
III BOB. «BOZOR» ROMANIDA HAYOTIY HAQIQAT VA BADIY MAHORAT	
3.1. Romanda badiiy ifoda va obrazlar talqini.	56
3.2. Ma’naviy-axloqiy muammolar talqini.	75
XULOSA	85
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	89
Ilova (mavzuni ta’lim jarayonida amaliyotga tatbiq etish bo’yicha metodik tavsiyalar)	

KIRISH

Dissertatsiya mavzuning asoslanishi va dolzarbligi. Keyingi yillarda milliy adabiyotimiz badiiy-estetik jihatdan taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Bu, albatda, istiqlool tufayli jamiyatimizning milliy tafakkuri rivojlanishi bilan bevosita bog'liq hodisadir. Jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyoti ko'p jihatdan undagi ziyolilarning jamiyatda tutgan maqomi va o'sha jamiyat a'zolarining unga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. XX asr milliy tariximizga nazar solinsa, unda ziyolilarning tutgan o'rni ham, ularga munosabat ham muttasil o'zgarishda bo'lganini ko'rish mumkin. Tabiiyki, bu narsa ijtimoiy hayot oynasi bo'lmish badiiy adabiyotda o'z aksini topadi.

Ma'lumki, o'tgan asrning 60-70- yillari jamiyatda sotsialistik g'oyalarga ishonch «qayta tiriltirilgan» davr bo'ldi. Ya'ni, jamiyat hayotidagi barcha muammolarni shaxsga sig'inish oqibatlariga yo'yilib, endi ko'pchilikda «partiya hukumatimiz siyosati to'g'ri yo'lga tushdi, yaqin kelajakda kommunistik jamiyat quriladi» degan ishonch tug'dirilgan edi. XX asrning 60-70- yillarida ijod qilgan Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O'lmas Umarbekov, O'tkir Hoshimov, Shukur Xolmirzaev kabi aksar nosirlarimiz adabiyotga 50- yillarning oxirlaridan kirib kelgani e'tiborga olinsa, ularning ijtimoiy qarashlari asosini ana shu ishonch tashkil etadi. Shu bois bu avlod yaratgan asarlarning qahramonlari – kurashchan kishilar, ularning talqinida tashqi xatti-harakat yetakchi. Zero, bu qahramonlar o'sha g'oya, o'sha maqsad bilan yashaydi, kurashadi. Bu davrdagi asarlarda o'sha maqsad uchun yashayotgan va unga etishga halal berayotganlar orasidagi kurash yotadi.

XX asrning 70- yillari oxiri 80- yillar boshi adabiyotida esa bu jarayon o'zgacha talqinini topdi. Bu davrda yaratilgan asarlarda ziyoli obrazining

yangi tipi maydonga keldi. Mazkur yangi tiplar, albatta, ularning yaratuvchisi bo'lgan ijodkorlarning ijtimoiy-estetik qarashlari, hayot qonunlarini teran mushohada etishlari bilan bog'liq edi. Adabiyotimizga kirib kelgan bu yangi avlod o'zgacha bir sharoitda shakllangan edi. Bu davrga kelib, partiyaning 60- yillardagi da'volari cho'pchak ekanligi ayon bo'lib qolgandi. Bu avlod o'zidan oldingi avloddan farq qilaroq, ana shu maqsadga, g'oyaga endi ishonmas edi. Ijtimoiy-siyosiy, badiiy-estetik qarashlari bilan kishilar ongida ma'lum o'zgarishlarni harakatlantira olgan M.M.Do'st, T.Murod, X.Sultonov, Erkin A'zam, Ahmad A'zam, N.Otaxonov kabi yozuvchilarimiz asarlarida oldingi davr asarlaridan farqli o'laroq, yangi tipdagi ziyoli obrazlari yaratildiki, bu bevosita ijtimoiy voqelikdagi o'zgarishlar, hukmron mafkura talablarini har tomonlama chuqurroq mushohada qilish, kishilar ongidagi evrilishlarni teran anglab yetish natijasida yuzaga keldi. Endi bu qahramonlar belgilangan maqsad sari og'ishmay ketaveradigan, g'oya uchun jonini jabborga berib kurashadigan emas. Bu davr asarlarida yaratilgan ziyolilar oldingilarga nisbatan boshqacharoq harakat qiladilar. Ular hayot kamchiliklarini manaviy-axloqiy prinsiplardagi kamchiliklardagina deb bilmaydilar, balki ijtimoiy voqelikning qandayligi va o'sha voqelikda harakat qilayotgan o'zi haqida, o'zining kimligi, ichki maqsadi, tashqi harakat-qiyofasi, ijtimoiy ongidagi tebranishlar, evrilishlar haqida o'ylay boshlaydilar. Boshqacha aytsak, bu davrga kelib jadid adabiyotida boshlab berilgan an'ana – jamiyatning mavjud holati, uning qay tomon borayotgani haqida teran o'y-mushohada yuritayotgan ziyoli obrazlarini yaratish davom ettirildi. Ayni paytda, bu an'ana yangi ijtimoiy-tarixiy sharoitda davom ettirilgani uchun ham yangicha mazmuniy yo'nalishga ega bo'ldi. Bu davr ziyolisi endi jamiyat haqidagina emas, jamiyatdagi o'zi haqida ham o'ylaydi.

XX asrning so'nggi yillarida adabiyotimizda paydo bo'lgan bir qator yozuvchilar borki, ular o'z asarlarining mohiyatida – erkin va faravon

turmushni istagan, shunga amal qilishga ehtiyoj sezgan adiblar ko'zga tashlana boshladi va ular asarlarida inson qadri, qismati o'zgacha ruhda tasvirlandi. Birinchi navbatda inson ma'naviy kamoli badiiy talqin etildi. Zero, Prezidentimiz ma'naviyatning jamiyat hayotidagi o'rnini haqida maxsus to'xtalib, quyidagilarni e'tirof etgan edi: «Ma'naviyat haqida gap ketar ekan, men, avvalo, insonni ruhiy poklanish va yuksaklikka da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman».¹ Bu holat iste'dodli adib Xurshid Do'stmuhammad asarlarida o'zining yorqin ifodasi topdi. Shu ma'noda adib ijodining so'nggi yillarida yaratilgan asarlarini tahlil va tadqiq qilish magistrlik dissertatsiyasi mavzusi dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ishlab chiqilgan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturidagi ko'rsatmalar, Prezidentimiz I.A.Karimovning milliy madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirishga doir nazariy asarlari tashkil etiladi.

Magistrlik dissertatsiyasida Xurshid Do'stmuhammad ijodiga mansub bo'lgan hikoya, qissa va romanlari asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, ijodkor faoliyatiga bag'ishlangan maqolalar, xotira va estaliklarga ham murojaat qilindi.

Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashda I.Sulton, O.Sharofiddinov, B.Nazarov, A.Rasulov, D.Quronov, Q.Yo'ldoshev, R.Qo'chqor, I.Yoqubov kabi munaqqidlarning asarlari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsad va vazifalari. X.Do'stmuhammad ijodining hozirgi o'zbek tanqidchiligida o'rganilishi keng tadqiq qilish, munaqqidlarning

¹ Karimov I. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekiston, 1999. - B. 17.

munaqqidlik mahoratini imkon qadar tadqiq etish mazkur ishning maqsadidir. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda ishda quyidagi vazifalarni hal etish ko‘zda tutiladi:

- Xurshid Do‘stmuhammad ijodining hozirgi o‘zbek tanqidchiligida o‘rganilishi;

- adib hikoyalarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari o‘rganish;

- adib qissalari va ularning mavzu ko‘lami, qahramonlar tasviridagi o‘ziga xoslikni tadqiq etish;

- adib romanlarining o‘ziga xosligini ilmiy-nazariy va badiiy tahlil qilish;

- X.Do‘stmuhammad ijodida badiiy mahorat masalasi yoritish.

Ilmiy yangiligi. Tadqiqotda Xurshid Do‘stmuhammad asarlarida ijodiy individuallik masalasining asosan quyidagi jihatlari yoritildi:

- ifodada shakliy ixchamlik, falsafiy mushohada teranligi, mantiqiy izchillik singari yetakchi badiiy vositalarning poetik tasvirda tutgan vazifaviy o‘rni va uslubiy ahamiyati belgilab olindi;

- badiiy makon va zamon talqini xronotopiyasi voqelikni poetik tadqiq etish va estetik jihatdan baholash imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilishi qiyosan o‘rganildi;

- falsafiy fikr shakllanishida nutqiy ong, mushohada nisbati va shakliy amaliyot mushtarakligiga e’tibor qaratildi;

- adib ijodiy evolutsiyasini tahlil qilish jarayonida uslubiy maneralar individualligiga nazar tashlandi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Mazkur tadqiqotning asosiy masalalari va tahlil natijalari yuzasidan ilgari surilgan ilmiy farazlar quyidagilarda aks etdi:

– Xurshid Do‘stmuhammad ijodida an‘anaviy omillar va badiiy xoslanganlik darajasi yetakchi ijodiy atribut sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatish;

– yozuvchi badiiy tafakkurida individual yondashuv hamda estetik tamoyillar rang-barangligi ta‘minoti ustuvorligini e‘tirof etish;

– badiiy mushohadani shakllantirishda nutqiy ong, tasvir o‘ziga xosligi singari poetik vositalar yaxlitligini umumlashtirish;

– ramziy-falsafiy talqindagi o‘ziga xoslik;

– ma‘naviy-axloqiy muammolar talqini;

– adib ijodida shakliy-uslubiy izlanishlar;

– adib ijodiy poetikasi tadriji xususiy sajiyasi hamda sinkretik tabiati butunligini ilmiy-metodologik aspektda tekshirish.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Dissertatsiyada jahon, rus va o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy ijod nazariyasi, adabiy janrlarning o‘ziga xosligi hamda X.Do‘stmuhammad ijodiga bag‘ishlangan monografik tadqiqotlar va ilmiy maqolalar atroflicha o‘rganib chiqildi. Shuningdek, ulardan adib ijodining shakllanishi va taraqqiyoti masalasiga bugungi kun nuqtai nazaridan munosabat bildirildi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqotni yozish jarayonida adabiyotshunos olimlarning X.Do‘stmuhammad ijodi xususidagi tadqiqot va ilmiy maqolalarga tayangan holda qiyosiy-badiiy tahlildan keng foydalanildi. Badiiy asarda o‘zining ifoda etmoqchi bo‘lgan fikrlarini o‘ta darajada nozik va polifonik tarzda aks ettirishda X.Do‘stmuhammad ijodi nihoyatda qimmatlidir. Xususan, badiiy asarlarda inson taqdirini ramziy-falsafiy talqin qilishda adib ijodigagina xos bo‘lgan xususiyatlarni keng tahlil qilish maqsadida ba‘zi o‘rinlarda qiyosi-tarixiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqotning natijalari va xulosalari adabiyotshunoslik va tanqidchilikda

adib ijodiga munosabat orqali munaqqidlar ijodini o'rganish hamda shu orqali adabiy tanqidning rolini ko'rsatishda o'ziga xos vosita bo'ladi. Shuningdek, ishning umumiy xulosalaridan o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida Xurshid Do'stmuhammad ijodi muammolarini o'rganishda, qolaversa, o'zbek tanqidchilarining adabiy jarayonga munosabati masalasini tadqiq etishda nazariy manba sifatida foydalanish mumkin.

Ishning amaliy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, uning natijalari oliy ta'lim muassasalarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda Xurshid Do'stmuhammad ijodini o'rganish, shu bilan bir qatorda yozuvchi ijodining ommalashishida tanqidchilarning rolini ko'rsatish bo'yicha ma'ruzalar o'qishda, amaliy va seminar mashg'ulotlar olib borish, kurs ishlari tayyorlashda qo'l keladi.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 92 sahifani tashkil etadi.

I BOB

XURSHID DO‘STMUHAMMADNING BADIY MAHORATI

Xurshid Do‘stmuhammad va o‘zbek adabiyoti

Jurnalist va yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad (Xurshid Do‘stmuhammedov) 1951- yil 8- yanvarda Toshkent shahrida tug‘ilgan. O‘rta maktabni bitirgach, 1968-1973- yillarda Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)ning Jurnalistika fakultetida tahsil oladi. «Fan» nashriyotida, «Fan va turmush» jurnalida, «Qishloq haqiqati» gazetasida ishladi. 1986- yildan «Yosh kuch» jurnalida bo‘lim mudiri, bosh muharrir o‘rinbosari, bosh muharrir sifatida faoliyat ko‘rsatdi.

Respublikada ilk bor nashr etilgan «Hurriyat» mustaqil gazetasida (1987-2002) bosh muharrirlik qildi, 1997- yildan O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg‘armasida hamrais, 2002-yildan «O‘zbekiston matbuoti» jurnalining bosh muharriri vazifalarida ishladi. U adabiyotshunos sifatidagi maqolalari bilan ham e‘tiborga tushgan, filologiya fanlari nomzodi.

Xurshid Do‘stmuhammad yapon adibi Akutagava Ryunoskening «Rasyomon darvozasi» hikoyasini, Temur Po‘latovning «Yetti huzur-halovat va qirq qayg‘u-alam» romanini o‘zbekchalashtirgan.

Adibning dastlabki hikoyasi 1981- yili «Guliston» jurnalida, «Nigoh» nomli birinchi qissasi esa 1987- yili «Yoshlik» jurnalida e‘lon qilingan. «Hovli etagidagi uy» nomli birinchi kitobi 1989- yili nashr etilgan. Shundan so‘ng uning «Panoh», «Oromkursi», «So‘roq», «Sof o‘zbekcha qotillik», «Mahzuna», «Ibn Mug‘anniy», «Yolg‘izim – Siz», «Ko‘z qorachig‘idagi uy» asarlari e‘lon qilinadi. Shuningdek, 1995- yilda «Jajman», 1996- yilda «Qazo bo‘lgan namoz», 2000- yilda «Hijronim mingdir mening» qissa va hikoyalar to‘plamlari, «Bozor» romani nashr etiladi.

Adibning «Jajman» (1995) kitobidan bir necha qissalari qatori «Mahzuna», «Jajman», «Ibn Mug‘anniy», «Yolg‘izim – siz», «Ko‘z qorachig‘idagi uy» singari hikoyalar ham joy olgan.

«Bozor» romani, «Hijronim mingdir mening» va «Ozod iztirob quvonchlari» kitoblari uchun 2000- yilgi «Ofarin» mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Ssenariy muallifi sifatida yaratilgan «Chayongul» televizion badiiy filmi (2000) keng tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olindi. «Jimjitxonaga yo‘l», «Nusxakashning merosxo‘ri», «Beozor qushning qarg‘ishi» va «Jim o‘tirgan odam» hikoyalari adibning keyingi yillar ijodida yangi sahifa ochdi.

Adib o‘z qahramonlarining ruhiy holatlarini, fikriy izlanishlarini tahlil etishga, uning eng intim qatlamlarini tasvirlashga intiladi. Psixologik tasvirga moyilligi F.Dostoyevskiy, F.Kafka, F.Ryunoske, G.Markes singari jahon adabiyoti namoyandalari uslubidan ta’sirlanganini ko‘rsatadi.

Badiiy adabiyotda har qaysi janr o‘z o‘rni, fayzi, ahamiyatiga ega. Lekin, hikoya janriga xos bo‘lgan imkoniyatlar tufayli hamisha u nisbatan ko‘p yaratiladi, ko‘p e‘lon qilinadi, binobarin, har bir milliy adabiyotning o‘ziga xos kundalik nafasi, qadam olishi, mavqeyi hikoyada ko‘proq namoyon bo‘ladi.

Hayotning har bir qadamida hikoya uchun mavzu bo‘lishga arzigulik ming turli voqealar mavjud. Derazadan tashlangan oniy nigohdan hikoya tug‘ilishi mumkin. Ammo, gap hikoyada aks etadigan voqeadada emas, balki mana shu oniy nigoh natijasida yozuvchi yuragida, tasavvurida paydo bo‘ladigan hayot haqiqatida, uni insoniy haqiqatga aylantiradigan ijodkor mahoratida, qolaversa, yozuvchining ijodiy jasoratida. Buyuk rus adibi Yuriy Kazakov ta’kidlaganidek, «Yozuvchining hayoti va faoliyati har kun, har daqiqa jasorat talab qiladi. Agar yozuvchi shijoatli bo‘lmas ekan – tamom. U har qancha iste’dodli bo‘lsa foydasi yo‘q, iqtidori uni saqlab qololmaydi. U

hasadgo'yga aylanadi, o'z birodarlari – qalamkash do'stlariga xiyonat qila boshlaydi. Pirovard natijada yozuvchilik baxti nimadan iborat ekanligini bir umr bilmay o'tib ketadi».

So'nggi yillarda paydo bo'lgan ko'plab e'tiborga tushgan asarlar, o'zbek adabiyotida ham yozuvchilik matonati va mas'uliyatini anglagan adiblar mavjuddir degan gapga asos bo'la oladi. Bu adiblar, nazarimizda, Abdulla Qodiriy va Cho'lpon jasoratining davomchilari bo'lib ko'zga tashlanmoqda. Mana shunday ijodkorlarning biri Xurshid Do'stmuhammaddir.

Xurshid Do'stmuhammad milliy adabiy an'alarini ham, dunyo adabiyoti tajribalarini ham puxta o'zlashtirgan, doimiy izlanish, so'z va fikr qolipini yangilashga intilgan ijodkor. Adibning o'zi e'tiof etganidek, «Uslub o'zgarmasa, dunyoqarash, hayot murakkibliklarini badiiy idrok va ifoda etish yo'sinlari o'zgarmasa, shu yo'lda turli tajribalarga qo'l urmasa, bunday yozuvchi nafaqat milliy adabiyotda, loaqal o'z ijodida ham biror bir yangilik yaratishi amrimahol».

Bugungi o'zbek adabiyotida kechayotgan yangilanish haqida gapirganda faqat modern tushunchasi yoki faqat G'arbdan esgan shamol ta'siri haqida emas, balki o'zbek adabiyotidagi muayyan adiblar yoki asarlar tajribasining davomi sifatida ham gapirish lozim. Bu yangilanish bugun boshlanmagan va u G'arbning osmonidan lop etib tushmagan. Turkiy adabiyotning muqaddimasi – O'rxon-Enasoy bitiklari bu tajribalarning ming yillardan buyon davom etib kelayotganini ko'rsatadi.

Yangi o'zbek adabiyotida bu jarayon hali faqat barmoqqa asoslangan va ba'zan mansura shamoyilida ifodalangan Hamza, Fitrat, Cho'lpon, Oybek, G'afur G'ulom, Mirtemir tajribalarida namoyon bo'lgan edi. Nasrdagi tajribalarni ko'z o'ngimizga keltirish uchun, hech bo'lmaganda, «Netay» qissasining boshlanishini, «Sarob»ni eslashning o'zi kifoya bo'ladi.

Xurshid Do'stmuhammadning «Beozor qushning qarg'ishi» (Toshkent, «Sharq», 2006) nomli kitobiga jamlangan hikoyalar, adibning o'zi ta'kidlaganidek, yaxshilik va yomonlik, mehr-oqibat va razolat, insoniylik va g'ayriodamiylik orasida kurashib, goh mag'lub, goh g'olib bo'layotgan odamlar taqdiri, bir qism odamlar yaxshilik qilayotgan, yaratayotgan, bunyod etayotgan, yana bir qism odamlar buzayotgan, vayron qilayotgan dunyo haqida hikoya qiladi. Kitobdagi asosiy hikoyalar oddiy odamning murakkab hayoti, oddiy voqealarda inson taqdirini hal qiladigan ta'sirlar yashiringani, guvillab oqayotgan daryo yuzasida qalqib-qalqib oqayotgan gullar va xazonlarning bir paytlar olamga atir sochgani, kuni kechagina yashillanib bahor yomg'irlarida cho'milgani haqidagi xotiralarni bizga naql etadi.

Adib ijodida shakliyl-uslubiy izlanishlar

Badiiy adabiyotning qaysi janrida bo'lsin qahramonning ichki olamiga alohida e'tibor beriladi. Ruhiyat olamiga e'tiborning kundan-kun ortib borishi bugungi milliy istiqlol davrimizdagi badiiy tafakkurning oldiga qo'ygan vazifalaridan kelib chiqmoqda. O'zbek nasrida mazkur badiiy psixologik tasvir usullari XX asrning 20-yillari A.Qodiriyning «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon», Cho'lponning «Kecha va kunduz» kabi romanlarida, keyinchalik A.Qahhorning «Sarob», Oybekning «Navoiy», O.Yoqubovning «Diyonat», «Ulug'bek xazinasi», S.Ahmadning «Ufq», O'.Usmonovning «Girdob», O'.Hoshimovning «Ikki eshik orasi», «Tushda kechgan umrlar», Omon Muxtorning «Ming bir qiyofa», «Tepalikdagi xaroba», «Ko'zgu oldidagi odam», Tog'ay murodning «Otamdan qolgan dalalar», X.Do'stmuhammadning «Bozor», Shukur Xolmirzaevning «Dinozavr», «Olabo'ji» kabi romanlarida qahramonnnig psixologiyasi, ichki botiniy olami sirlari yorqin tasvirlana boshladi.

Psixologizm «psixologik tahlil» tushunchasiga nisbatan keng bo‘lib, u o‘zida bevosita muallifning psixologiyasini ham qamrab oladi. Demak, psixologizm adabiyotning o‘ziga xos qonuniy hodisasi bo‘lib, yozuvchining xohishiga bog‘liq bo‘lmagan holda namoyon bo‘ladi. «Psixologik tahlil» esa inson psixikasi jarayonlarini, uning fikr va hissiyotidagi turli-tuman «ohang» rivojini aks ettiruvchi, qahramon ruhiy dunyosini analitik tamoyilda ochuvchi estetik kategoriyadir. Demak, psixologik tahlil-badiiy shaklning bir vositasi bo‘lib, uning badiiy asarda bo‘lish-bo‘lmasligi o‘sha asarning g‘oyasiga va mahoratning darajasiga bog‘liq.

Psixologizmga nisbatan psixologik tahlil o‘zining ichki monolog, o‘ziniki bo‘lmagan nutq, psixologik portret, «ikki syujetli» dialog («Birinchi syujet»da qahramon hissiyoti va kechinmalari rivoji, ularning nutqlari, mimikasi, imo-ishorasi orqali aks etadi. «Ikkinchi syujet»da qahramon kechinmalari rivoji muallif tomonidan tushuntiriladi, ularga muallif baho beradi) kabi aniq unsurlariga ham ega.

Istiqlol yillarida Sh.Xolmirzaev, O.Muxtor, X.Do‘stmuhammad, T.Murod kabi yozuvchilarning asarlari kitobxonni yangicha fikrlashga chorlaydigan, shakliy izlanishlarga boy, qahramonning tashqi faoliyatidan ko‘ra ruhiy va insoniy qiyofasi ochib berilgan. Aytish joizki, milliy istiqlool davri asarlari xalqimizning kelajak yo‘lini yoritadigan ijtimoiy saboqlar majmuasiga aylandi. Mustaqillik sharofati bilan adabiyotimizning barcha tur va janrlarida kuzatilayotganidek, hikoyachiligimizda ham sifat o‘zgarishlar, yangilanishlar jarayoni kechmoqda. Bu narsa birinchi galda, yangi qahramonlarning ma’naviy-intellektual faoliyatida ruhoniylar hayotida namoyon bo‘layotir.

Ma’lumki adabiyot va san’at hamisha inson bilan tirik. Insonning jamiyat, tabiat, olam sir-sinoatlari bilan aloqalari san’atning boqiy mavzui. Shu jumladan, adabiyotshunoslikning ham eng muhim muammolaridan

hisoblanadi. Har bir davr adabiyoti qahramonlarining falsafiy-estetik, psixologik dunyosi bilan bir biridan farq qiladi. Shu ma'noda mustaqillik davri hikoyachiligi qahramonlarining badiiy-estetik dunyosi, ma'naviy axloqiy izlanishlari, intellektual dunyosi o'rganilishi ilmiy-nazariy umumlashmasini kutayotgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Istiqlol mafkurasining o'zak mohiyatini komil shaxsni kamol toptirishdek g'oyat mas'uliyatli vazifalar tashkil etadi. Bu narsa insonni, voqelikni estetik idrok etish va tasvirlashdagi yangi-yangi badiiy umumlashmalar kashf qilish bilan belgilanadi. Mazmunan yangi yo'nalish kasb etgan mustaqillik davri o'zbek hikoyachiligida jahon sivilizasiyasi tarixida yangi sahifa ochgan, yangi ozod hayotni yuzaga keltirgan o'zbek fenomenini olib kirgan erkin shaxsning ob'ektiv voqelik bilan uzviy bog'liqligini, qalb hayoti manzaralarini aks ettirish bosh muddao bo'ldi. Ana shu jarayonda hikoyachiligimiz shaxsning jamiyat, tabiat bilan uzviy bog'liqligini yoritishda falsafiy-psixologik tahlil madaniyatini chuqurlashtirish yo'lidan bormoqda.

Ma'lumki, har bir tarixiy ijtimoiy davrda dunyoqarashlar, mafkuralar o'zgargani singari insonga bo'lgan qarashlarning, inson fenomenining talqin xususiyatlari ham o'z tarixiga ega. Insonning vazifasi mas'uliyati, bir so'z bilan aytganda, tabiat jamiyat hodisalariga ijtimoiy voqelikka munosabati zamonlar o'tishi bilan o'zgarib kelgan. Shu ma'noda mustaqillik davri o'zbek hikoyachiligida yangi qahramonlarning ma'naviy-intellektual, falsafiy-psixologik dunyosini davr, jamiyat va ijtimoiy voqelik bilan uyg'unlikda o'rganishni hayotning o'zi taqozo etayotir. Chunki, inson-jamiyatning ongli, jonli a'zosi. U tarixni yaratuvchi dunyoviy umumbashariy qadriyatlar asosida davr qiyofasini o'zgartiruvchi buyuk kuch.

Xurshid Do'stmuhammadning «Bugun ertalab» hikoyasida psixologik tahlil, tuyg'ular realizmi o'zgacha ko'rinishga ega. Qahramon hamma hikoyalaridagidek ism-sharifli emas. U she'rlardagi lirik qahramonga o'xshab ketadi. Ya'ni, dilidagini zohir etayotgan shaxs. Adibning lirik qahramoni o'z ko'nglini taftish etish, tuyg'ular holatini tushuntirish, mazkur kechinmalar tabiatini ijtimoiy voqelik, hayot realliklari bilan uyg'unlikda kuzatayotgan, o'z kechmishidan falsafiy ma'nolar o'qishga hamda uqishga moyil intellektual shaxs. «Kallani ishlatish kerak». Ana shu ta'kid, uqdirish, da'vat qahramonni o'ziga, o'zligiga, kechmishiga, buguni va ertasiga nazar tashlashga, o'tayotgan kunlaridan ma'no topishga undaydi.

«Odamzod qavmi dunyoga kelib orttirgan dunyosi ham shu kallani ishlatish!... Ayni saharmardondan aql-shuurimni qiyin-qistovga olayotgan bu g'alati «Kallani ishlatish kerak!» degan malomatomuz jumlaning bugunga qanday dahli bor?! Nima, kallalar ishlayaptimi? Axir, insonning kallasi ishlayaptiki, dunyo mavjud, aks holda naq quyoshning qorasi o'chardi. Qanaqasiga o'chishini ham aytaymi, Oftobning harorat manbai bor-ku, o'sha odamlarning miyasiga joylashgan, tushundingmi azizim. Miyalar qanchalik baquvvat va sog'lom ishlasa, quyoshning nuri shu qadar kuchayadi. Kuchayish sur'ati sekinlashsa bormi, quyosh so'nadi-qoladi».¹

Insonni olqishlash yoki koyish oson. Eng og'iri eng mushkuli-uni tushunish amri-mahol. Yozuvchi qahramonning qismatini anglashga, kechmishi sahifalarini o'qish barobarida bizga ham tushuntirishga intiladi. Qahramon o'z qalbida qilt etib tebrangan hissiyot ma'nosini uqishga moyil, va shu bilan barobar, tevarak-atrofidagi voqea-hodisalarni ham anglashga tashna. Ularning yuzaga kelishi, tug'ilishi, o'sishi, so'nishi bir-biriga bog'liq, biri-ikkinchisini to'ldiruvchi, boyituvchi jarayonlar.

¹ Do'stmuhammad X. Bugun ertalab // Sharq yulduzi. 1994. 9-10- son. 135- bet.

Yozuvchi qahramonni eng nozik va qaltis holatlarga solib qo'yadi, borlig'ini, bu yorug' olamda borligini kuzatadi.

«...Odamzod qavmi aqldan qochib qutila olmaganki, hayoti qil ustiga kep qoldi. Man-man degan odamlar aqldan voz kechaman, aqlning izmiga yurmayman, degan qarorga kelgan zahoti bilish, bilishga tashnalik, boya aytganim-qiziqish butun a'zoyi badanni zanjirband etadi. Zanjirband etib, dunyoni ko'zingga shu qadar tor va qorong'u qilib qo'yadiki, zimmasiga o'n sakkiz ming olam muvozanatini saqlash yuki ortilgan birdan-bir fikrlovchi kallali jonzod-inson oliy muvozanat chizgan chiziqdan uzoqlasha olmaydi. Balki, o'sha taqdir chizig'iga monand tug'iladi, ko'payadi, yashaydi, o'ladi, qiriladi. Yaxshi ham, yomon ham, shoh ham, gado ham...»¹ Bu yerda tuyg'ular sintezi, lirik ehtiros, falsafiy mushohadokorlik insonni badiiy idrok va ifoda etishdagi yetakchi prinsiplar sifatida zohir bo'layotir.

«Bilishga tashna bo'lsang kallang ishlaydi, kallang ishlagani sayin quyoshning tafti saqlanadi shundan zaminda hayot sha'mi so'nmaydi. «Bilgil va qo'rqgil!» degani ham shu bilmasang bilishga intilmasang holing voy; U holda... pirovardida qo'rquvga olib boruvchi bilishga muhtalo ekan-da, inson... Bilish qo'rquvga emas, muhabbatga olib borsa-chi! Ya'ni, «bilgil va sevgil!» tushunyapsanmi tinimsiz bilish, bilishga qiziqish o'ylov arshidagi muhabbat koshonasiga olib chiqsa nimasi yomon?! Nahotki, insoniylik maqomining mungli va munis musiqasini tinglab orom topmoq uchun muhabbatdan ko'ra qo'rquv, tahlika qulayroq bo'lsa?».

Ko'rinadiki, bugungi hikoyachiligimiz qahramoni «Bugun ertalab» asari misolida kuzatilayotgandek, insonni, jamiyatni, dunyoni, voqelik jarayonlarini falsafiy idrok va ifoda etishdagi tafakkur teranligi bilan umuminsoniy xislat-fazilatlar kasb etayotir. Ko'ngil deb atalgan ma'naviy-

¹ O'sha yerda, 140- bet.

psixologik olamning ziddiyatli, murakkab, ham nurli va yana ayni paytda qorong‘u ko‘chalarini, odamiylikning yangi-yangi qirralarini kashf etayotir. Tuyg‘ularning fikrini o‘qish kechinmalarning ma’nosini uqish anglash sari tutingan tuyg‘ular realizmi Xurshid Do‘stmuhammad hikoyasida badiiy psixologizmning o‘ziga xos tabiatini belgilayotir.

X.Do‘stmuhammadning «Bugun ertalab» hikoyasi tajribasida kuzatadigan bo‘lsak, keyingi yillar hikoyachiligida olam va odam sir-sinoatlarini, tevarak-atrofimizni o‘ragan ijtimoiy muhitni falsafiy idrok etishga qaratilgan fikr-tafakkur bosh qahramonga aylanib borayotganini ko‘rish mumkin

Demak, bugungi kunda shaxsni ijtimoiy-psixologik planda tahlil qilish badiiy-estetik tadqiqotchilikning muhim xususiyatlaridan biriga aylandi. Zero, adabiyotshunos No‘‘mon Rahimjonov ta’biri bilan aytganda, «hamma gap adibning qanday mavzu va qahramonlarni tanlamasin, falsafiy-psixologik tahlil etishi va insonning zafari yoki inqirozi orqali tiriklik falsafasini, jamiyat psixologiyasini, umr hikmatini badiiy mujassamlashtira olishi, ma’naviy qadriyatlarni himoya qiluvchi umumbashariy mazmundagi xulosalar chiqara bilishida» ekan.

XX asrning 90- yillaridan e’tiboran, Xurshid Do‘stmuhammadning badiiy estetik izlanishlarida falsafiy-psixologizm chuqurlashdi. Adib hikoyalarida insonni tushunish, hamda tushuntirishda falsafiy ma’nodorlik badiiy tafakkurning ustivor xususiyati bo‘lib qoldi. Xurshid Do‘stmuhammadning keyingi yillar hikoyachiligi misolida aytadigan bo‘lsak, adibning avvalgi o‘n yillik izlanishlarida («Yo‘lakdagi odamlar», «Oq libos», «Qoyalardan balandda», «Saf», «Vasiy») lirizm, publisistik o‘ylar, shaxsning hayotdagi o‘rni, umrining ma’no-mohiyati xususidagi mushohadakorlik sinkretik holda uchrardi. Ana shu uyg‘unlik yaxlit bir badiiy sistemaga aylanib borayotgan edi. Mustaqillik, milliy mafkuraning

ma'naviy asoslarini mustahkamlash sari safarbarlik adib ijodiga ham sifat o'zgarishlar olib kirdi. Inson va jamiyatga bashariy miqyoslardan nigoh tashlash o'rganish va baholash madaniyati ustivor tamoyilga aylandi. Xususan, shaxsning ruhiy va fikriy erkinligi hamda inson bebaho intellektual qadriyatdir degan falsafiy konsepsiya adibning istiqlol davri ijodining mazmun-mundarijasini belgilab bermoqda. Milliy istiqlol davridagi adabiy-tanqidiy tadqiqotlarda psixologizm muammosi yetarlicha o'rganilmayotir.

Shu nuqtai nazardan yondashsak, Xurshid Do'stmuhammadning «Bozor» romani, qissa va hikoyalarida xarakter qirralarini tahlil etish yetakchi psixologik shakl hisoblanadi.

Psixologiyada xarakter deganda mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan faoliyat usullarida namoyon bo'ladigan tipik sharoitlarda ko'rinadigan va bu sharoitlarga shaxsning munosabati bilan belgilanadigan individual psixik xususiyatlar yig'indisi tushuniladi va shaxsning yo'nalishi-ehtiyojlari, motivlari, qiziqishlari, ishtiyoqi xarakterning mazmunini tashkil etadi.

Adabiyotda esa «Badiiy xarakter-bu individual belgilarni ham o'z ichiga olgan holda ma'lum bir ijtimoiy sharoitda paydo bo'lgan, ijtimoiy ma'no kasb qilgan iroda yo'nalishining asardagi badiiy irodasidan iboratdir. Faqat ijtimoiy sharoit asosida yuzaga chiqqan shaxs irodasi xarakterning asarda badiiy va g'oyaviy negizini ta'min etadi».¹

Shu nuqtaiy nazaridan yondashsak, bu ishimiz bevosita xarakterlar ruhiy dunyosini ochish mahorati muammosiga bag'ishlangan tadqiqot bo'lib X.Do'stmuhammad asarlaridagi psixologik tahlil vositalarining dialog, monolog xat kabi turlariga to'xtalamiz.

Badiiy asarda qahramon xarakterining qirralari xilma-xil bo'lganidek, uning ruhiy olamini ochuvchi «portret, monolog, dialog, tush, psixologik

¹ Qo'shjanov M. Oybek mahorati. -T., 1965, 5-6- betlar.

timsollar, peyzaj, galyusinasiya kabi poetik vositalari ham rang-barangdir».² Mazkur vositalar tahlili orqali adibning psixologik tahlil mahorati sirlari ochiladi.

X.Do'stmuhammadning «Jajman» hikoyasida ushbu mulohazalarning o'ziga xos tasdig'ini ko'rish mumkin. Hikoyada bozorda yuz bergan voqealar asosida oddiydek tuyulgan faktlar, detallar mohiyatidan ma'naviy qadriyatlar mag'zini uqishga qaratilgan ramzli holatlar, kayfiyatlar, kartinalar chiziladi. Maishiy hayot realliklarini bitta-bitta, tasvirlab, ulardan badiiy umumlashma-xulosalar tariqasida yaratilgan ramzli obraz va ifodalarda psixologik tahlilning o'ziga xosligi ayonlashadi. Shafqatsiz realistik idrok va ifoda adib hikoyalaridagi bosh estetik mezon sifatida ko'zga tashlanadi. Ularni ko'ngil bahridan terib jamlangan tuyg'ular, kechinmalar, o'y-fikrlar sintezi, deyish mumkin.

Hikoyada voqealar bozor va unda oralab yurgan g'alati bir maxluq atrofida yuz beradi. Odamlardan bir xillari maxluq, ya'ni Jajmanni oldiga chaqirib uning qornini to'yg'azsa, bir xillari uni quvib soladi. Hammani o'zining yeb to'ymasligi bilan hayratda qoldirgan bu maxluqni yozuvchi shunday tasvirlaydi: «Bobo xayolga chalg'ib, maxluq qachon va qanday qilib yerga tushganini payqamay qoldi, faqat uning sakrab-irg'ishlab darvoza tomon borayotganini ko'rgachgina, xushini yig'di. Bobo ko'rdi-maxluqning ko'zi, qulog'i, tumshug'i dam sichqonnikiga, dam tulkinikiga o'xshab, tinimsiz tovlanar edi... «Olmaxonku!» deb yubordi ichida bobo va shu zahoti boshini chayqab «tulkininan sichqondan tarqagan ko'rinadi», degan xayolga bordi, bir pas jim qolgach esa, «Qorni kengruniki...», dedi pichirlab, lekin maxluq qaddini rostlab ikki oyoqlab borayotganini ko'rib, «Yo odamdan

² Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi. –T., 1983. 32- bet.

tarqaganmikan?!» deb o‘yladi va beixtiyor shak keltirib qo‘ygandek shoshib yoqasiga tupladi...».¹

Ko‘rinadiki, bu yerda Jajmanning tasvirlanishida ham katta ramziy mazmundorlik yetakchilik qiladi. Jajmanni ko‘rganda Zardusht bobo dastlab uni olmaxonga, keyin dam sichqonga, dam tulkiga va oxiri odamga o‘xshatadi. Hikoya davomida shu narsa ma’lum bo‘ladiki, adib ushbu maxluq qiyofasida nafs balosini ifoda qiladi. Zero, nafsga mukkasidan ketgan, o‘z nafsini jilovlay olmagan inson tashqi jihatdan qanchalik (olmaxondek) chiroyli bo‘lmasin, (tulkidek) ayyor va bunday odamlar jamiyat uchun (sichqondek) zararlidir. Ma’lumki, tulki ham, sichqon ham boshqalarning rizqiga ko‘z tikib yashaydi.

«Bobo hiyla mahal maxluqni kuzatdi, uning qo‘li-oyog‘i tinmas, lekin hali-veri to‘yadiganga ham o‘xshamas edi. Uning qandoq qilib birovning mayizini tortinmay-netmay tushirayotganidan bobo hayronu lol bo‘lganicha, ko‘zlariga ishonmas, xayolida esa: «Bu qanday maxluq o‘zi? Bu qanday maxluq?» degan savol charx urardi».¹ Adib hikoyada Zardusht boboning o‘y-xayollari badiiy tasviri va talqini orqali fikrlash, xulosalar chiqarish uchun o‘quvchiga ham keng imkoniyatlar qoldiradi.

XX asrning 90-yillari o‘zbek hikoyachiligi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot olib birgan G.Sattorova ham o‘z ishida X.Do‘stmuhammadning «Jajman» hikoyasini tahlil qilib, asarning ramziy ma’no-mohiyatini juda to‘g‘ri anglaydi. U yozadi: «X.Do‘stmuhammadning «Jajman» hikoyasida Sharq falsafasining o‘ziga xos talqini badiiy falsafiy ravishda mujassamlangan. Bu bilan yozuvchi muayyan tarixiy sharoitda, xususan, sho‘ro tuzumi muhitida

¹ Do‘stmuhammadov X. Jajman // Siz sog‘ingan asarlar.-T.: Sharq, 2003. 71- bet.

¹ O‘sha yerda. 70- bet.

ildiz ota boshlagan millat tabiatidagi salbiy xususiyatlarni ko'rsatadi. Nafs orqasidan kelishi mumkin bo'lgan falokatlardan bizni ogohlantiradi»².

Ko'rinadiki, X.Do'stmuhammad mazkur hikoyada inson shaxsining fe'lidagi noqisliklar uchun kurashish, ulardan imkon qadar qutulish kabi umuminsoniy muammolar xususida qayg'uradi. Hikoyada ramziy tarzda aytilmoqchi bo'lgan axloqiy-falsafiy ma'no ancha teran. Axir qaltis bir qadam, nojo'ya bir og'iz so'z, noma'qul bir harakat, nafsni jilovlay olmaslik insonlik maqomini barbod etishi hech gap emas. Odamning o'zi cheksiz bir olam, uning hissiy-fikriy dunyosini anglab, oxiriga yetib bo'lmaydi. Odam avvalo, o'zini o'zi anglab bilmog'i, o'z ko'nglini tushunib yetmog'i, nafsini jilovlay bilmog'i lozim.

Adib hikoyasidagi Bozor-hayot, Jajman-nafs ma'nosida talqin qilinib, hikoyaning estetik ta'sirini ancha oshirgan. Lekin shuni ham e'tirof etish lozimki, Asqad Muxtor ta'kidlaganidek, «Chinakam badiiy asar hamma vaqt javobsiz savoldir. Bordi-yu adib unda biror muammo ko'targan bo'lsa ham bu-amalda hal qilib bo'lmaydigan muammodir».¹

Bugungi o'zbek nasri janrlarining taraqqiyoti realistik an'analarni yanada rivojlantirish barobarida, modernistik uslubiy izlanishlar orqali ham ta'minlanmoqda. Biroq, hamisha ham tasvir va talqin o'ziga xosligiga erishilmoqda, deyish qiyin. Individual badiiy talqin va tasvirgina janrning yangi imkoniyatlarini namoyon etadi. Modernistik romanlarda ma'no serqatlamligi, tuyg'ular teranligi, yozuvchi estetik idealining o'ziga xosligi, ruhiy tahlil chuqurligi ko'zga tashlanadi. Bu, bizningcha, yangi davrga mos ruhiy iqlim va kayfiyat tug'ilganligi, uni ifodalashga bo'lgan urinish kuchaygani, badiiy xarakter yaratishning yangi usul va shakllari vujudga kelgani, badiiy didning o'sgani bilan bog'liqdir. Jahon adabiyotidagi yangi

² Sattorova G. 90-yillar hikoyachiligida milliy xarakter muammosi: Filol. fanlari nomzodi dis. ...avtoref.-T.: 2002. 3- bet.

¹ Muxtor A. Uyqu qochganda... // Adabiyot-ruhiyat mulki.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. 43- bet.

badiiy-uslubiy izlanishlarga xayrixohlik nazari bilan qarash, ilg'or an'analarga intilish adabiy-badiiy hayotda o'ziga xos talqinlarni yuzaga chiqardi. Istiqlol adabiyoti va undagi yangi tamoyillar o'ziga xos estetik an'anaga aylandi.

Xususan, Xurshid Do'stmuhammadning asarlari zamiriga ilohiy tushunchalarning dadil singdirilishi shartli ramziy uslubni teranlashtirgan. Yozuvchi afsona va rifoyatlar mazmuniga ijodiy yondoshib, real davr muammolarini falsafiy-psixologik jihatdan umumlashtirishga erishgan. U romanning kompozision mukammalligi va syujet izchilligini ta'minlab, o'zining ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabatini majoziy usulda ifodalashga erishgan. Jamiyat kayfiyatining inson ruhiyatiga ta'sirini ramziy-majoziy uslubda tahlil etgan.

Badiiy asar qahramoni talqinida psixologik tavsif muhim rol o'ynaydi. Psixologik xarakteristikada muallifning ijtimoiy muhitga, qahramonlariga bo'lgan munosabati ifodalanadi, kitobxonlarda ularga faol munosabat hislari uyg'otiladi.

Asarda personajning kelib chiqishi, faoliyati, psixologik xarakteri, ichki kechinmalari, xulq-atvori, idroki, qobiliyati, tashqi qiyofasi va boshqalar haqidagi psixologik ma'lumot-muallifning psixologik tavsifidir. Personajlarning psixologik nutqiy xarakteristikasi qahramon obrazi ichki dunyosini ochishning muhim vositasi. Nutqiy xarakteristikaning, odatda, quyidagi turlari keng qo'llaniladi:

A) personajlar o'z-o'zini xarakterlaydi.

B) bir personaj ikkinchi bir personajni xarakterlaydi.

Badiiy asarda psixologik xarakteristikani rang-barang shakllari, ko'rinishlari, usullari uchraydi. Shulardan ba'zi birlarni biz X.Do'stmuhammadning «Bugun ertalab» hikoyasi asosida ko'rib chiqamiz.

Darhaqiqat, nutqiy xarakteristika, dastavval personajlarning o‘zlarini o‘zlari va bir-birlarini tavsiflovchi vositadir. Shu bilan birga, u oddiy so‘z emas, balki harakat hamdir. Har bir replika (personaj aytgan jumla) personajlar munosabatiga, albatta ozgina bo‘lsada o‘zgarish kiritiladi va muallifning bosh g‘oyasini shakllanishini jinddagi bo‘lsa-da, rivojlantiradi.

Gegel haqli ravishda ta’kidlaganidek, «... hayotni badiiy idrok etishda voqelikning mag‘zi nasriy asarlar asosini tashkil etadi. Bunda odamlar ruhiyati bilan jamiyat psixologiyasini vobasta anglash, ko‘rsatish va ifodalash adib badiiyatini belgilab beradi». Qolaversa, «Voqelikni realistik ifoda va idrok etishda san’atkorning estetik ideali, ijodiy nuqtai nazarini hal qiluvchi ahamiyatga ega. Voqelik xossalari ikki-chikirlari, mayda tafsilotlari bilan detallashtirib tasvirlash orqali hayotning real manzarasi yaratiladi. Bu hayotni epik miqyoslarda ko‘rish va ko‘rsatish tamoyillaridandir. Bu-badiiy tasvir mazmundorligining realistik ifoda shakllaridan biri» ekan, bu ma’noda mustaqillik davri o‘zbek hikoyachiligida adiblarimiz bir qancha yangi tamoyillarni yuzaga keltirayotir.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bugungi hikoyachiligimizdagi muhim fazilatlardan biri-bu shirin yolg‘ondan uzoqlashib, hayotning konkret va real muammolari xususida mushohadakorlikka berilganida ko‘zga tashlanadi. Xususan, adabiyotimiz uzoq yillar umumxalq baxt-saodati haqidagi va’dalar girdobida kuymalanib, aldanib yashadi. Bugun esa, u o‘z rivoji uchun yangi yangi manbalar izlayapti, topayapti. Bu esa o‘zligini tanib, bilib borayotgan, erkin va sog‘lom fikrlovchi, siyosatlashmagan individual qahramonlar obrazlarini yaratishga intilishdir.

Keyingi paytda voqea-hodisalarning «qon bosimini» kayfiyat va nafas olishini, yurak urishini odamlarning tafakkur madaniyati bilan bog‘liq ravishda aks ettirish realistik ifoda psixologizmning kuchayishini ta’minlagan» badiiy omil ekanligini adiblarimiz chuqur anglab yetdilar.

Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy ziddiyatlar hozirgi hikoyachiligimiz mevarini tashkil etmoqda. Bu narsa adiblarimizning butkul diqqat-e'tibori, badiiy nigohi shaxs ruhoniyyatiga, inson qalbiga-bekaron ko'ngilga ko'chganligidan dalolat beradi shundan kelib chiqib aytish mumkinki, inson qalbi adabiyotning katta doshqozoniga aylandi. Inson ko'nglida kechayotgan bo'ronlar, bo'hronlar, to'fonlar, tahlili orqali jamiyat tartiblariga, voqelik jarayonlariga, odamlararo muloqot oqibatlariga munosabat bildirish, ularni badiiy-estetik baholash hozirgi hikoyachiligimizdagi yetakchi tamoyillardan hisoblanadi. Zero, shaxsni ijtimoiy-psixologik yo'nalishda tahlil qilish badiiy-estetik tadqiqotchilikning muhim xususiyatlaridan biriga aylandi. Demak, «psixologizm-inson taqdiridagi xoh fojeiy yoki romantik, xoh jo'mardlik yoki satirik holatlar bo'lsin, barchasini realistik o'zanga solayotir. Bu-realistik tasvir va tafakkur madaniyatining yangi ko'rinishlaridan biri hisoblanadi». Shu ma'noda fojeiy qismlarni realistik o'zanda tasvirlab berish ham san'atdagi go'zallikning xos ko'rinishlaridandir. Negaki, inson qalbidagi yorug'lik hayotidagi riyo, razillik, zo'ravonlik, qabohat, yolg'on, zulm singari illatlar bilan ro'baro' kelayotir. Lekin u ana shu zulmatli ko'rinishlarining yo'q bo'lishini istaydi. Bugungi hikoyalarimiz qahramonlari yorug'lik tantanasi uchun kurashda ko'ngil pokdomonligini saqlab kelayotir.

Tadqiqotimiz mavzusini qiyosiy tahlil qilish maqsadida so'nggi yillarda o'zining bir qator hikoyalari bilan ko'pchilikning diqqat-e'tiborini tortib kelayotgan olim va adib Tilab Mahmudov hikoyalari haqida ham qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik. Adib hikoyalar X.Do'stmuhammad asarlaridan farqli ravishda badiiy psixologizm hayotiy detallar asosiga quriladi. Shu ma'noda, har bir detal ochqich vazifasini o'taydi. Adibning «O'tin», «O'n so'mlik qizil pul», «Terak», «Navvos», «Maqbara», «Oqar daryo oqmasmidi jimgina», «Tumor», «Tilla uzuk» va boshqa hikoyalarida tuyg'ular realizmining ifodasi o'zgacha. Adib ko'zga oddiydek ko'ringan

maishiy hayot ikir-chikirlaridan ruhiyat hayotini lov-lov suratlantiruvchi psixologik manzaralar yaratadi. Oddiydek tuyulgan faktlar, detallar mohiyatidan ma'naviy qadriyatlar mag'zini uqishga qaratilgan ramzli holatlar, kayfiyatlar, kartinalar chizadi. Maishiy hayot realliklarini bitta-bitta, detallashtirib tasvirlagan asnolarda va ulardan badiiy umumlashma-xulosalar tariqasida yaratilgan ramzli kartinalarda psixologik tahlilning o'ziga xosligi ayonlashadi. Bular adibning ijodiy manerasi, ijodiy savqi. Unda obyektiv, xolis tasvir yetakchi. Shafqatsiz realistlik idrok va ifoda adib hikoyalaridagi bosh estetik me'zon sifatida ko'zga tashlanadi. Ularni ko'ngil bahridan terib jamlagan tuyg'ular, kechinmalar, o'y-fikrlar sintezi, deyish mumkin. Bular-tuyg'ular hayoti, kechinmalarining tafakkurga yo'g'rilgan asnolari. Bolalik o'smirlik yillarining tiyrak nigohlari, yigitlik davrining ko'rgan-bilganlari va kamolot ayyomining mulohazakorligi yaxlit bir butunlikda sintezlashgan. Aytish joizki, bir umr badalida hayotda ko'rgan-kuzatganlari, anglagan va lekin tub-tubigacha tushuna olmagan hayot haqiqatlari, tiriklik mevalari, ko'ngil deb atalgan sirli dunyoning ziyo bilan tunga qorishgan sinoatli kechinmalari bir bo'lib eshitiladi.

Adib yaratgan xarakterlar shu paytgacha adabiyotimizdagi qahramonlarga o'xshamasligini har kuni ko'rib, suhbatlashib yurgan tanish-bilishlarimizga qaysidir jihatlari bilan xiyla qora tortsa-da, yana fe'l-atvorining qaysidir alomatlari bilan ularni ham takrorlamaydi. Shu paytgacha tasavvur va tushunchamizda shakllangan na ijobiy va na salbiy qahramonlar deyishga tiling bormaydi. Ular, aslida, hayotiy qahramonlar. Turmushdagidek jonli xarakterlar, xom sut emgan bandalar, g'alati odamlar. Ikki karra-ikki to'rt singari darrov tushunishga ro'yxush bermaydigan kimsalar.

Qahramonlar o'tirib-turishi, so'zlash-tarzi, gap-so'zlari, qilg'iyu xatti-harakatlari bilan xotirangda mixlanib qoladi.. Bular-Totim xola, Risqitilla,

Samar kampir, Mavjuda xola, Qorasoch kampir, Risolat kampir, Sattor buva, zakunchi Inombobo, Toshgul kampir, Abdulla xir-xir, Ko'char aka, Qanar oqsoqol. Ularning har biri individual xarakter xususiyatlariga ega bo'lgan odamlar. Adibni, asosan, hayot taqozosi bilan qahramon boshiga tushgan u yoki bu ko'rgiliklari jarayonida namoyon bo'lgan odamiylik yoki g'ayrinsoniylik ko'proq qiziqtiradi. Adib tog' kishilarining fe'l-atvorida, tirikchilik tarzida zuhur topgan go'zal xulq-atvor bilan barobar ma'naviy qashshoqlik alomatlarining ham suratlarini chizadi.

Bu xil g'alati fe'l-atvorli kishilar, asosan, nuroniy chol-kampirlar. Ular tirikchilik, turmush tarzi, dardi-dunyosi bir-biriga o'xshamagan taqdirlar. Xususan. «Tilla uzuk» hikoyasidagi opa-singillarni olaylik. Keksalikda Xosiyat buvi nevarasini boqchadan olib keladi-yu, o'zini behol sezib, yotib qoladi. Kundan kunga ahvoli og'irlashib boradi. «Ana ketadi», «mana ketadi», degandek farzandlariyu jigarlari sarosimada. Bordi keldisi ancha uzoqlashib ketgan singlisi ham ikki kunning birida opasidan xabar oladi. Xosiyat buvining ostonasidan qadami uzilmay. Ayon bo'ladiki, singlining yonib kuyishlari bejiz emas ekan. Odam olasi ichida, deganlari shu-da. O'lim to'shagidagi behol va bemajol Xosiyat buvining qo'lidan kelinlik tilla uzugini singlisi yechib olmoqchi bo'ladi.

Yozuvchi xarakterlarni xolis va obektiv tasvirlaydi, xususan singilning qilmishini axloqsizlik yoki tubanlik deb qoralamaydi. Qahramonlarning qilmishi-yu kechmishlarini qay tariqa baholash imkoniyatini o'quvchi ixtiyoriga qoldiradi. Mazkur badiiy usul adibning «Maqbara», «O'n so'mlik qizil pul», «Oqar daryo oqmasmidi jimgina», «O'ch», «Navvos», «Alam», «Terak», «Qashqa», «Mayna» singari badiiy yetuk asarlari uchun ham xos. Ularda nozik san'atkorlik nigohi bo'y ko'rsatib turadi.

Tirik jon-da: yo'qsa, Ismat ona bilan Toshpo'lat buva («Navvos» hikoyasi) ko'zdek qo'shni bo'laturib, «siz» tili «senga» boradimi? Bir-birini

ko'rishga ko'zi, otishga o'qi bo'lmay qoladimi? Har ikki qo'shnining bahorda yaylovga chiqarilgan buzoqlari ayni tut pishig'iga kelib yo'qolib qoladi. Bormagan, qidirmagan joylari qolmaydi. Izi chiqmaydi. Oradan biror oy o'tib, Toshpo'lat buva buzog'ini qirdan topib kelibdi, degan uzun quloq gap qishloqqa oralaydi. Ismat otaning yuragi qiziydi. Oxiri hafsalasi pir bo'lib, «kelgan balo-qazo shunga ursin, mol topiladi, jon topilmaydi», deya o'zini yupatadi.

Oxiri shu narsa ayonlashadiki, Toshpo'lat buva qirdan etaklab kelgan navvos Ismat otaniki ekan. Navvosni ko'chaga olib chiqib arqondan bo'shatilgan paytda to'ppa-to'g'ri Ismat otaning darvozasiga borib, hovlisiga kirib ketadi. Toshpo'lat buva yer yorilmaydi-yu yerga kirib ketmaydi, mulzam qoladi. Axir bir oyog'i to'ridayu ikkinchisi go'rda bo'lsa, bilib-bilmaymi, anglab yoki anglamaymi, yolg'onni yeb o'tirsa?

Adibning ijodiy manerasi uchun xos xususiyatlardan biri-qahramonlarning ana shu taxlit kutilmagan, g'alati holatlardagi o'ng'aysiz, noqulay asnolar psixologiyasini yaratishdir. Toshpo'lat buvaning holati ham kulgili, ham fojiali. Axir, uni nima shayton yo'ldan urdi? Bu galdagi ko'rgulikmi yoki achchiq qismatmi? Ha ko'rgulikning ko'chalari ko'p ekan va u insonni go'rgacha ta'qib etaverar ekan.

«O'n so'mlik qizil pul» hikoyasidagi egachi-ovsin Qumri bilan Toshgul kampir kechmishini olaylik. Qirq yillik qadrdonlar shaharga mehmonga borishadi-yu qishloqqa yetti yot begona bo'lib qaytishadi. Hammasi Toshgul kampirning noo'rin shubhasidan boshlanadi. U Qumri kampirni o'n so'mlik qizil pulini kechasi o'g'irlab olib qo'yganlikda ayblaydi. Uyiga qaytgach esa pulini pamildori egati orasidan topib oladi. Tesha chopiq qilayotganida tushib qolgan ekan.

Odam o'ziga ham, o'zgalarga ham nega munchalik mehrsiz, e'tiborsiz, oqibatsiz bo'lib qoldi. Inson fe'li munchalik mubham, sirli ekan. Axir,

ko'ngil sindi, endi uni o'nglab asliga qaytarib bo'larmikan? Adib buvaning ham, Toshgul kampirning ham qilmishlarini na oqlaydi va na qoralaydi. Vohalanki, boboning niyati xayrli edi-ku. «Toshpo'lat buva zo'r-bazo'r, bukchayib qoldi, u oriyatdanmi, alamdanmi kavrovday gavdasini silkitib-silkitib navvos kirib ketgan hovliga qarab yig'lab turardi»¹.

Adibni yuqoridagi olijanob tuyg'uning fojialik qismati ko'proq qiziqtiradi. Bu-tuyg'ular realizmining yangi ko'rinishi. T.Mahmud badiiy tasvir va talqin orqali fikrlash, xulosalar chiqarish uchun o'quvchiga keng imkoniyatlar qoldiradi. Axir yoshmi-qarimi, har kim bosgan qadami uchun ma'sul, javobgar. Eng muhimi badiiy ifoda tabiiyligi va samimiyligiga erishish, tuyg'ular haqiqatini ta'minlash. Detallar, holatlar, kayfiyatlar me'yori, tabiiyki, kechinmalarning haqqoniy va hayotiyligini asoslaydi.

O'zbek hikoyachiligi tarixida qishloq kishilari hayoti ko'p bor qalamga olingan. Qishloq ahlining ma'naviy dunyosiga, axloqiy jihatlariga bir nuqtai nazar T.Mahmudov hikoyalariga o'zgacha yorug'lik bag'ishlaydi. Bu tuyg'ular, kechinmalar qiyofasini gavdalantirish va hissiyotlar hayotini ko'rsatish orqali psixologik sharoit yaratish, demakdir. Eng muhimi ana shu badiiy nigoh orqali anglangan hayot haqiqatlari, ko'rgulik ko'chalaridan ilg'angan yorug' va qorong'u lahzalar haqida o'quvchi bilan sidqidildan suhbatlashadi. Bizni ham o'zi ko'ra olgan ruhiy dunyo realliklariga oshno etadi. Sevinchlari-yu dardi-alamlariga o'ksik va alamli yig'isi hech bir o'quvchini befarq qoldirmaydi. U qadrini o'zi oyoqosti qilgani uchun, oriyatini o'z qo'llari bilan sindirgani uchun, o'zini o'zi tiriklay o'ldirib, go'rga tiqib o'tirgani uchun kim aybdor.

Hikoyadagi kosa-tagida nim kosa tarzida aytilmoqchi bo'lgan axloqiy-falsafiy ma'no ancha teran. Qaltis bir qadam, nojo'ya bir og'iz so'z, noma'lum bir kor-hol odamlilik maqomini barbod etishi hech gap emas ekan-

¹ Mahmud T. Oqar daryo oqmasmidi jimgina. Hikoya. –T., 2000. 192-bet.

da. Odamning butun bir tirikligi badalida misqollab yiqqan qadrini, insoniy fazilatlarini bir lahzada botmonlab shopirib yo'qqa chiqarishi oppa-oston ish ekan-ku. Odam avvalo, o'z qadri-manzilotini o'zi baland tuta olsagina, o'zini-o'zi e'zozlay bilsagina izzat topadi. Buning uchun odam yuz yoshlar bilan yuzlashishi, dunyo kezishi, olam tanishi shart emas. Odamning o'zi bekaron olam. Uning hissiy-fikriy dunyosini anglab, oxiriga yetib bo'lmaydi. Buning uchun odam avvalo, o'zini-o'zi anglab olmog'i, o'z ko'nglini o'zi tushunib yetmog'i kerak.

Adibning aksar hikoyalaridagi shafqatsiz realistik ifoda orqali yuzaga chiqadigan fojeiy ohang yuraklarni zirqiratib yuboradi. Oqibat va xiyonat, mehr va shafqatsizlik, yaxshilik va riyo, olijanoblik va munofiqlik singari boqiy masalalar turli xil hayotiy muhit va sharoitlardagi taqdiralar orqali badiiy idrok etiladi. «Terak» hikoyasidagi Huri xola bilan Ortig'alining qo'shnichilik munosabatlarini oling. Huri xola yolg'iz beva kampir. Olis shahardagi o'g'li o'qishni tugatib kelsa, unga atab imorat solish, uylash niyatida keng hovlisini gir aylantirib terak qadab chiqadi. Hash-pash deguncha teraklar sarrov va to'singa yaraydigan bo'lib qoladi. Katta kuyovi kelib yiqitib ketgan teraklarni arralab saranjomlashda Huri xolaning qo'li kalta. «Huri xola soyning narigi tomonidagi qo'shnisiga bir og'iz gapirmasdan ustachilik qo'lidan keladigan, tesha, bolta deysizmi, arra bosqon deysizmi, hamma buyumlari taxt turadigan Ortig'ali soydan o'tib, Huri xolaga arra tortishib yuboradi» (147-bet).

Qishloq odamlari o'zi shunaqa, yaxshi odatlari ko'p. Biror yumushga chaqirsang, vaj-karson qidirmay, qarashib yuboradi. Odamni yolg'izlatib qo'ymaydi. Ortig'ali ham shunaqa hayrixoh. Va lekin oradan xiyla fursat o'tar-o'tmas Huri xola uyida yo'q mahali uch-to'rtta sarrovbop teraklarini o'g'irlab, o'z imoratining to'siniga ishlatib yuboradi. «Ha, endi, olsa, olibdida. Qo'li kaltalik ham og'ir ko'rgulik. Davosiz dard», deb qo'yish mumkin.

Lekin hamma gap fojia-Ortig'alining shirin kunlarini zahar-zaqqumga aylantirgan, guldek umrini xazon qilgan, o'limga taqab olib borgan narsa-ana shu nojo'ya qilmishidir. Bilib-bilmay, anglab-anglamay bosgan qadami uning o'z boshiga etadi. Vos-vos kasaliga chalinadi. Yotsa ham, tursa ham vahima o'pqoni o'z girdobiga ketaveradi; cho'ka boshlaydi. Huri xolaning sarrovbop to'siniga ko'zi tushgan zahoti goh yo'g'on ilon tilini chiqarib, buralib kelayotgandek bo'laveradi. Kulimsirab turgan Huri xolaning istehzoli nigohi yuragini teshib o'tib, tilka-pora qilib yuboradi. Ortig'ali vijdon azobida, yurak o'ynog'ida, ko'ngil qiynog'ida tamom bo'ladi. Qovjirab yotib qoladi.

Adib hikoyalari odam olasi ichida degan falsafa mohiyatini ochishga qaratilgandek, odamlar ko'nglidagi rahmon bilan shaytonni ko'rsatayotgandek va ayniqsa, ajinalarning afti-angorini chizayotgandek tuyuladi. Zero, mavridi kelib, odam ichidagi ezgu kuch g'olib kelsa, ojiz asnolarida esa yovuz kuch ustunlik qilarkan. Demak, tuyg'ular shaklidagi yorug'ligu qorong'ulik odamlarning ichida ham yashar ekan. Bu narsa esa odamning xayrli amallari yoxud noqis qadam olishlarida ko'proq o'zligini namoyon etarkan. Rozi-rizolik asnosida «Huri xola Ortag'alining ko'zlaridan oqqan yoshlarni qo'llari bilan artib qo'yar ekan, allaqachon kechirib yuborganman, bolam, o'zingni qiynama, bu yorug' olamda nimalar bo'lmaydi, deb qo'yadi-egamning o'zi kechirsa bas» (151-bet).

Tilab Mahmudov hikoyalaridagi realistik tasvir salohiyatida aynan ana shu psixologik talqinning yangi sifat ko'rinishida qishloq kishilarining fe'l-atvori, hayot tarzi ko'ngil ko'chalari tasviri orqali milliy xarakter xususiyatlarini suratlantirishga moyillik kuchli va ularda o'ziga xos mazmundorlik bor. Tuyg'ular tragizmi, kechinmalar fojiasining omillari ko'p emas. Adib hikoyalari odamdagi odamiylik fazilatlarini saqlab qolish uchun kuyib yonayapti. Demak, tuyg'ular tabiatidagi fojialarning ildizi, bu odamning ko'ngli. Aslida o'lim ham ne'mat. Faqat uning ta'mi, tusi, rangi

turfa xil. Faqat har kimga qilmishi va fe'l-atvoriga yarasha turfa ko'rinishlarda nasib etarkan. Negaki, Toshpo'lat buva, Toshgul kampir, Ortig'alilar tiriklayin o'zini-o'zi go'rga tiqayapti. Uyat-o'limdan yomon, deganlari shu-da.

T.Mahmudov qahramonlari o'z qilmishlari bilan bizning ongimizda, dunyoqarashimizda shakllangan yuksak insonparvarlik haqidagi ma'naviy-axloqiy tasavvur va tushunchalarni payxon qilayapti, loyga qarishtirib, o'zi ham ana shu balchiqqa toyib yiqilayapti. Ya'ni, insonning boshqa jonzotlardan ajralib turadigan odamiylik fazilatlari qasriga putur yetkazayapti, rahna solayapti.

Bir zum xayolga erk beraylik-da, tasavvur qilib ko'raylik. Aytaylik, Esxilning Orestasi yoki Yusuf Xos Xojibning O'gdilmishi, Gomerning Odissiyasi yoki Alpomish, Shekspirning Gamleti yoki Alisher Navoiyning Farxodi, Husayn Jovidning Shayx San'oni yoki Fitratning Abdulazizxoni, Abdulla Qodiriyning Otabegi va Anvari-eng yaqin yoki begonami, biron-bir kimsani hamyonidagi pulni o'g'irlaganlikda nohaq ayblasa, qo'shnisining navvosini molxonaga tang'ib, o'zimniki deb o'tirsa, o'zi yo'qning-ko'zi yo'q qabilida ish tutib, beva kampirning to'sinlarini olib imoratiga ishlatib yuborsa, ularning shaxsini bezab ko'rkamlashtirgan odamiylik, olijanoblik, go'zallik, adolat, ezgulik haqidagi tasavvurlarimiz shu zahoti barbod bo'ladi.

Demak, ma'naviy-axloqiy xislat-fazilatlar barcha zamonlarda odamzodning aziz va mukarram, bebaho bashariy qadriyatlari silsilasini tashkil etgan. Ular ma'naviy go'zallikning suvda cho'kmaydigan, o'tda yonmaydigan boqiy xususiyatlari sirasidan ekan. Faqat shubha-gumon, tuhmat, birovning haqqiga xiyonat, aldov va yolg'on singari illatlar boqiy qadriyatlar kushandasi. Inson qadri, shaxs sha'ni-eng buyuk va bebaho qadriyat. Qachonki, odam sha'ni poymol etilgan, qadri oyoqosti qilingan joyda zulmga, istibdodga zo'ravonlikka qarshi Bani Odam bosh ko'taradi.

Isyoni olovga aylanadi, alanga bo'lib yonadi, fig'oni ko'kka ko'tariladi. Ana shunday odamlar bir-biriga choy emas, zahar ichirgan, ko'zlariga cho'p suqqan, u ko'zi bu ko'zini o'ygan asnolarda Odamzod bilan birga barru bahrlar ham qo'shilib yonadi. Bu shaxsning jamiyatda, hayotda tutgan o'rnini va mavqeini mustahkamlash uchun kurashning bir ko'rinishi. Bu shaxs ruhoniyyatini badiiy idrok va ifoda etish shakllaridan yana biri. Bu realistik tasvir madaniyatining yangi sahifasi. Xususan, uni fojiaiy psixologizm, deyish ham mumkin.

Qornimga emas, qadrimga yig'layman, degan achchiq alam, alanga o'tida jizg'anak qahr-g'azab asar voqealarini harakatga soladi, syujet oqimini boshqaradi. Tahqirlangan izzat sha'ni o'zining adolatli ehtiromini tiklash uchun bosh ko'tarayotir. Bu Tilab Mahmudov hikoyalaridagi fojiaiy ruhning, fojiaiy yo'nalishning mohiyatini tashkil etayotir.

«Bugun ertalab» hikoyasi: «Mingta telbaning aqli bor menda, millionta aqlining telbaliklari» epigrafi bilan boshlanadi. Hikoyaning asosiy qahramoni o'zligini qidirib, dunyo tashvishlaridan bezor bo'lgan inson. Hikoyaning biror joyida qahramon nomi tilga olinmaydi. Hikoya birinchi shaxs tilidan rivoya qilinadi. Hikoyaning syujeti-inson deb atalishi buyuk jonzotning hayotda o'zini-o'zligini anglash o'rniga turmush ikir-chikirlarga, zohiriy olam bezaklariga o'ralashib qolayotganligi birma-bir xatti-harakatlarda emas, balki kuyunchak qahramonning ongida (ichki monologlarda) yoritilib beriladi:

Ayni sahar uyqudan uyg'onib, hali tug'ilib ulgurmagan ham edimki, ya'ni ko'zimni ochib ulgurmasimdan ta'ma, kinoya, haqorat va yana allaqanday yovuz ma'nolar aralash shu kalima xayolimga tirq'alldiyu, subhiy halovatim to'zg'idi. «Kallani ishlatish kerak! Kallani ishlatish kerak!»... Nima kallalar ishlayaptimi? Axir insonning kallasi ishlayaptiki, dunyo mavjud, aks holda naq quyoshning qorasi o'chadi. Qanaqasiga o'chishini

ham aytaymi? Oftobning harorat manbayi borku, o'sha odamlarning miyasiga joylashgan, tushundingmi, azizim, miyalar qanchalik baquvvat va sog'lam ishlasa Quyoshning nuri shu qadar kuchayadi, kuchayish sur'ati sekinlashsa bormi, Quyosh so'nadi-qoladi!»¹

Ushbu monolog bugungi «Bozor sharoitidagi insonlarni qiynayotgan ma'naviy-bashariy muammolarning, ya'nikim «oftob», «quyosh» ma'rifatning qudrati haqidadir. Haqiqatan oftobning harorat manbayi, ...odamlarning miyasiga joylashgan». «Bilim-aql chirog'i»-deganlari juda to'g'ridir. U bizning qorong'u ko'chalarimizni (hayot davomidagi) yoritib turuvchi nur.

«Boy ila xizmatchi»da Solixboy Gofirni yo'lga sololmagan o'z mayillari (domla, Ellikboshi va boshqalar) ustidan zaharxanda kular ekan, bu-muallifning ham kulgisidir. Aynan ushbu xususiyatlar X.Do'stmuhammad ijodida ham muhim deb bo'lmaydi.

Chunki farqli o'laroq, X.Do'stmuhammad metodining eng ilg'or xususiyatlari-voqealikni ijobiy ideal nuqtai nazardan ko'rsatish emas, balki qahramonlarning psixologik qiyofasi va ichki dunyosi kechinmalarga e'tibor berish. Hayot dialektikasi bilan hamohang tasivirlashga intilishdir.

¹ Do'stmuhammad X. Hijronim mingdir, mening (qissa va hikoyalar). –T.: Yozuvchi, 2000. 68- bet.

II BOB

XURSHID DO‘STMUHAMMAD HIKOYALARI BADIYYATI

Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalarida inson taqdiri talqini

Azaldan aksariyat asarlar uchun xos bo‘lib kelgan yana shunday kamchiliklardan biri – sujetni juda oddiy va jo‘n tarzda qurish bugungi qissachilikda ham davom etmoqda. Bir-biriga shunchaki bog‘langan voqealar bayonidan iborat bu tur asarlarda hayot hodisalari jiddiy tahlil etilmaydi, ularga aniq munosabat bildirilmaydi. Tijorat maqsadida bitilgan, xususiylar gazetalar savdosiga mo‘ljallab bitilgan ayni narsalar adabiyotning bugungi jamiyatdagi o‘rni, ahamiyatiga „soya“ solib turadi. Tabiiylar, „soya“lar har doim bo‘ladi. Ammo ular kitobxonlarni hayot haqida o‘ylantiradigan, „inson“ deb atalmish murakkab xilqatning sirli-sehrli, g‘aroyib qalb olami bilan tanishtiradigan asl asarlar qadrini hech qachon pasaytirmaydi.

O‘zbek adabiyotida g‘arb mamlakatlari turmushi aks ettirilgan, bosh qahramon sifatida g‘arb kishisi obrazi yaratilgan badiiy asarlar nisbatan kamroqdir. O‘tgan asrlar adabiyotiga nazar tashlasak, bularga misol sifatida Furqatning „Suvorov“, „Yunon mulkida bir afsona“, Sulton Jo‘raning „Bruno“ dostonlari hamda O‘lmas Umarbekovning „Bulg‘or qo‘shiqlari“ turkum hikoyalarini ko‘rsatish mumkin.

Istiqlol davrida o‘zbek adabiyotida adabiy mavzularning jug‘rofiylar va etnik hududlari tobora kengayib borayotgani, adiblarimiz hatto Osiyo, Yevropa sarhadlaridan oshib, Beruniylar avlodlariga munosib tarzda, boshqa o‘lkalar hayoti manzaralarini ham milliy adabiyotimizga olib kirishga intilishayotganining shohidi bo‘lib turibmiz. Bu jihatdan, taniqli yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammadning izlanishlari tahsinga sazovordir. Bu yo‘nalishda Xurshid aka dastlab ulug‘ rus yozuvchisi Dostoyevskiy haqida „Yolg‘izim – siz!“ hikoyasini yozib nashr qildi. Uch bo‘limdan iborat katta

hikoyada hayotning anchagina achchiq-chuchugini tatib, yoshi qirq beshdan oshgan adibning baxtli oila qurish orzusini yigirma yashar dilbar qiz Annaga to'g'ridan-to'g'ri aytishga botinolmay, „yangi asar rejasini bayon qilish“ qabilida unga muhabbat izhor qilishi, oqibati ular uchun baxtli va jahon adabiyoti taraqqiyoti uchun foydali bo'lib chiqqan nikohdan ilk farzand tug'ilishi voqealari maroqli tarzda tasvirlangan. Bu asar Rossiya adabiy jurnallarida nashr etilsa, rus kitobxoniga ham manzur bo'lib, adabiy aloqalar jonlanishiga yaxshi hissa bo'lib qo'shilishi shubhasizdir. Kamina bir necha yil burun Berlinda Gumboldt universiteti professori, o'zbek adabiyoti bo'yicha taniqli mutaxassis Ingaborg Baldauf xonim bilan suhbatda qaysi o'zbek yozuvchilari asarlari Yevropada o'qilishi mumkin deb so'raganimda, u kishi birinchilar qatori Xurshid Do'stmuhammad nomini tilga olgan, yozuvchi asarlarini qiziqish bilan o'qib borishini e'tirof qilgan edi.

Bulardan qat'iy nazar, „Jahon adabiyoti“ jurnalining 2004- yil 11-sonida (noyabr) e'lon qilingan va „Beozor qushning qarg'ishi“ kitobiga kiritilgan X.Do'stmuhammad qalamiga mansub „Al-A'rof“ fojiasining e'lon etilishi yozuvchi ijodi muxlislari uchun bir daraja kutilmagan hodisa bo'ldi, deyish mumkin. Chunki asar qahramoni – Amerikaning buyuk yozuvchisi Edgar Allan Po (1809-1849) ijodi o'zbek tiliga kam tarjima qilingan, hozircha uning qalinroq bir kitobi ham nashr etilmagan. Biroq, jiddiy mutolaaga mashg'ul kitobxonlar orasida biron bir chet el yozuvchisi ijodi va shaxsiyatiga qiziqish darajasi uning asarlari o'zbek tiliga nechog'li tarjima va nashr qilinishi bilan o'lchanavermas ekan.

Hozirgi o'zbek hikoya va qissachiligida Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Abduqayum Yo'ldosh, Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, Zulfiya Qurolboy qizi singari ijodkorlar qalam tebratishmoqda. Ular yaratgan hikoya va qissa namunalari ham uslub, ham shakl jihatidan o'zgarib bormoqda.

Xususan, o'zbek hikoyachiligi ikki xil uslubiy yo'nalishda rivojlanayotganligini kuzatish mumkin: an'anaviy realistik va modernistik. Zamonaviy o'zbek yozuvchilari ustoz o'zbek hikoyanavislarining, shuningdek, jahon hikoyachiligi ijodiy tajribalari bilan, ramziy-majoziy obrazlar va uslub jihatdan G'arb adabiyotiga xos modernistik shakl va usullardan keng foydalanishib, hikoyachilikda yangicha badiiy-estetik yangilanishlar yasashmoqda. Ularda qahramon ruhiyatiga yanada chuqur kirish, badiiy psixologizmning yangicha tasviri vositalari bo'lgan adabiy gallyutsinatsiya, illyuziya singari tasvirlar, yangicha ramziy-psixologik timsollar yaratish, hatto yozuvchi fantaziyasi bilan yaratilgan badiiy-romantik to'qima obrazlar talqini ham uchraydi.

Shu ma'noda, so'nggi o'n yillik o'zbek hikoyachiligida Xurshid Do'stmuhammadning „Beozor qushning qarg'ishi“, Sobir O'narning „Chambilbeyning oydalasi“, Nazar Eshonqulning „Yalpiz hidi“, Abduqayum Yo'ldoshning „Bir tun va bir umr“, Ulug'bek Hamdamning „Uzoqdagi Dilnura“ nomli qissa va hikoyalaridan jamlangan kitoblari e'tiborga loyiq. Binobarin, Xurshid Do'stmuhammadning „Jim o'tirgan odam“ hikoyasida bitta ilmiy institutda qirq yil xizmat qilgan olim – Qurbonalining hayoti, xususan, uning pismi xarakteri, ya'ni, ko'rib, bilib turib, bilmaganlikka olish kabi jamiyatimizda kun kechirayotgan shaxslarga xos loqaydlik ijtimoiy salbiy illati badiiy muhokama etiladi. Hikoya qahramoni Qurbonali, aslida, hayotining birinchi qismida botir, gapga chechan edi. Ammo hayotining ikkinchi qismida xuddi otasi kabi, padari vasiyat etib ketganidek, tiliga qulf solib, jim yashaydi. Binobarin, Qurbonalining odamovi, ajabtovur xarakterini hikoya matnida muallif o'z bayoni vositasida shunday tasvirleydi: „Qitmirligimi, pismiqligimi tutganida u hech bir mo'minning yetti uxlab tushiga kirmagan qiliqlarni o'ylab topadi. Deylik, uyidan chiqqach, ro'parasidan tanish-bilish yaqinlashayotganini ko'rgan zahoti ko'zini chirt

yumib, yo'lida davom etaveradi. Yo'l besh qo'lday ma'lum – na qoqiladi, na suqiladi. Betma-bet kelgan tanish esa hayron salomlashaymi-yo'qmi, deya bir qarorga kelgunicha Qurbonali bekatga yetib ulguradi. Qilig'idan o'zi mutaassir bo'lib miriqib ... ichida kuladi. Ha, bu inson ichida kulib, ichida quvonib, ichida xunob bo'lishni, nimaiki bo'lmasin, barini ichiga yutish san'atini mukammal egallagan“. Hikoyada bayon etilayotgan onasi vafoti bilan o'tkazilgan Ilyosvoynikidagi (Qurbonalining qo'shnisi) xudoyi ma'raka, ta'ziyaga kelgan chollarning gurungi, bu bahsga o'zgacha talqin bergan noma'lum shaxsning deyarli har kuni hikoya qahramoni oldidan chiqib, ma'rakadagi voqeani eslatish orqali, go'yoki, ramziy ma'noda, jamiyatda olimlik maqomini olgan-u, ammo odamiylik maqomiga erisha olmagan Qurbonalining fojiaiy hayoti muhokama etiladi. Qurbonali har kuni kutilmaganda oldidan chiqib, ma'rakadagi voqeani eslatuvchi bu kishini „Kimsan“ deb ataydi. Bizningcha, yozuvchi bu obrazga hikoya qahramoni Qurbonali tili va nigohi bilan „Kimsan“ deb ism berar ekan, mazkur ifodada ham hikoyanavisning muayyan badiiy maqsadi nish berib turibdi. Nazarimizda, Kimsan obrazi hikoyaning bosh qahramoni Qurbonaliga, uning butun boshli hayotiga, hayotiy a'moliga, qirq yillik ilmiy faoliyatiga „Sen o'zi kimsan?“, „Bu dunyoda yashab, umring poyoniga yetganida o'zingga savol berib ko'r-chi, sen nimaga intilding? Nimaga erishding? Nimani yutqazding?“ – degan bir qator zalvorli savollarni o'rta tashlayotgandek taassurot uyg'otadi. Demak, Kimsan hikoya sujetini va uning muhim kompozitsion g'oyasini shakllantiruvchi aniq maqsadli, mantiqli obraz sanaladi.

Shu bois, hikoyada atay o'ylab topilgan obraz „Kimsan“ asar badiiy g'oyasini ochishda muhim hisoblanadi. Kimsanning luqmaligap-so'zlaridan, chunonchi, „jim o'tirgan odam eng xavfli odam“, degan hukm-xulosasidan so'ng, Qurbonali oyog'i kuygan tovuqdek tipirchilab, vijdoni azobda qoladi.

Qurbonali qanday fan sohasi bilan shug'ullangan, qanday ilmiy kashfiyot qildi kabi tafsilotlarga yozuvchi mutlaqo to'xtalmaydi. Asarda ilgari surilayotgan ikkita muhim g'oya o'simlikning o'q tomiri singari ko'rinish berib turibdi. Birinchidan, Qurbonali hayoti misolida: „Olim bo'lish oson, ammo odam bo'lish qiyin“, degan jaydari bir xalqona falsafa ko'rsatib beriladi.

Xurshid Do'stmuhammad hikoya qahramonlari ismiga (Qurbonali, Kimsan, Qurolboy, To'lash tarasha, Ilyosvoy, Odilxon yuvosh) va ma'rakadagi: „Ilmli kishi qanday xususiyatlarga ega bo'lmog'i lozim?“ degan bahsli munozaraga ham milliy, ham falsafiy-ramziy ma'no yuklaydi.

Eng muhimi, hikoyada millatning tili qulf bo'lib qolishiga sabab bo'lgan sho'ro davri, hatto o'z dini va e'tiqodini baralla ayta olishdan ham qo'rqadigan xalq fojiasi Qurbonali va uning otasi hayoti misolida va institut rahbari gap-so'zlari orqali badiiy tasvirda aks ettiriladi. Ta'mirtalab bo'lib qolgan idoraning zinasi Qurbonalining tashabbusi bilan sement qilinadi, so'ngra, jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishdan so'ng oddiy sement zinalar tomigacha marmardan qilinadi. Mazkur tasvirlarda, xususan, Qurbonalining idoradoshi Odilxon yuvoshning quyidagi gap-so'zlaridanoq, ziyoli shaxsining naqadar qashshoqona hayot kechirayotganidan voqif bo'lamiz: „– Qurbon aka, – dedi ko'zini chimirib. Ko'zoynagiga ko'rsatkich barmog'ini nuqdi. So'ng g'oyatda maxfiy yangilikni oshkor qilayotgan odamdek, bo'zrayib turib shipshidi: – Zina qolib, devor-u tomlargacha marmar qoplanib ketdi-yu, sakkiz yildan beri oynakni butlolmayman!..“ Jamiyatda chiroyli, zamonaviy binolar qad rostlashi va ular, shubhasiz, insoniyatga xizmat qilishi davlatning taraqqiy etganligidan nishona. Ammo ishxonadagi marmar zinlarning sovuqligi, yaltiroqligi va toyg'oqligi singari inson his-tuyg'ulari ham sovuqlashib, badbinlashib, odamovilashib ketmog'i aslo ijobiy xususiyat emas. „Jim o'tirgan odam“ hikoyasidagi ikkinchi o'q chiziq – marmar zinlar

qaysidir ma'noda hikoyada insonlarga xos „usti yaltiroq, ichi qaltiroq“ insonlarning ramziy timsoli ma'nosini badiiy ifodalagan.

Zamon kundan-kun shiddatkor, yangicha axborot texnologiyaga, yangi ma'lumotlarni tez o'zlashtirib, jadal hayotga tatbiq eta oladigan uddaburon yoshlarga, shaxslarga muhtoj. Endi bunday tezkor jamiyatda yuvosh Odilxon singari shaxslar yaxshi hayot kechirishga qodir emas. Chunki tuzum, jamiyat va zamona zayli o'zgardi. Hikoya qahramoni Qurbonali Odilxon yuvoshning qo'li kaltaligi sababini zamonadan emas, o'zidan ko'radi: „Ko'zoynaging darz ketibdi-yu, mabodo ko'zing sitilib oqsayam aravangni o'zing, o'z qo'ling bilan sudraydigan zamon kelganiga qancha bo'ldi, so'tak! Eplasang – sudra aravangni, ko'chani boshingga ko'tarib sudra, eplamasang – egamning dargohi bepoyon!..“ Qurbonalining ichki monologi orqali ifodalangan fikrlaridan ayon bo'lmoqdaki, u zamondan orqada qolib ketgan qoloq odam ham emas, u fikrlay oladi, baholay oladi, lekin dilidagi gapini tiliga chiqarmaydi. Uning eng katta nuqsoni shu. Zero, yuqoridagi qahramon ichki monologida u sakkiz yildan beri darz ketgan ko'zoynagini yangilay olmayotgan kasbdoshining shunday yurishiga e'tiroz bildirib: „Eplasang – sudra aravangni... eplamasang – egamning dargohi bepoyon!..“ – deya Odilxon yuvoshni o'linga mahkum etib, uni ayovsiz tanqid etadi.

Besuyak tili tufayli Qurbonalining begunoh otasi ikki marotaba qamalib chiqqan. Shu bois, otasi qalbiga cho'kkan qo'rquv vahimasi, og'iz ichidagi bir parcha etni dushman sifatida talqin etish prinsipi bora-bora farzand yuragini ham zabt etadi. Go'yoki, qo'rquv – nasliy-irsiy kasallik kabi avloddan-avlodga o'tib, zabonsizlik, tilini ichiga yutib yashash san'atini egallagan qahramonning oilaviy shajarasi ko'z oldimizda gavdalanadi.

Qurbonali ehtiyotkorlikda, tilni behuda valdiratmaslikka shu darajada berilib ketadiki, natijada, u odamovi, insoniy sifatlardan mahrum bo'lib qolgan ayanchli qiyofaga tushib qoladi. Adib Qurbonali obrazini satirik obraz

darajasiga olib chiqib tasvirlaydi: „Bunday damlarda Qurbonali ich-ichidan hoholab kuladi. Kuladi-yu, sirtiga chiqarmaydi, shunday shodumon holatida ham qovog‘i soliq, sipo, vazmin va beozor qiyofasiga sodiq qoladi. Qiyofa qanchalik to‘ng bo‘lsa, huda-behudaga gaplashaveradigan, otamlashaveradigan kimsalar shuncha kamayadi. Qurbonali yelimdek yopishqoq tanish-notanishlardan yetti gaz nari yuradi...“ Mazkur psixologik portretida Xurshid Do‘stmuhammadning qahramon ruhiy holatini mahorat bilan aks ettirishda, hajviy nasr va satirik obraz yaratishda rus yozuvchilari Gogol, Chexov hamda taniqli o‘zbek adiblari Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Said Ahmad singari hikoyanavislarning ijodiy tajribalari unga qo‘l kelganligi yaqqol sezilib turibdi.

Qurbonali besamar hayoti natijasida, „mahallaning so‘pisi“ darajasigagina chiqa olgan oddiy olim, u burnining tagidan narini ko‘ra olmadi. Aslida, olim shaxs dunyo ilmidan, dunyo afkor ommasi qiziqayotgan muammolar bilan qiziqqa olishi, ular bilan bahslashishi, juda bo‘lmaganda, ular darajasida fikrlay olishi lozim edi. Adib Qurbonalining hash-pash deguncha o‘tib ketgan besamar umri misolida, bugungi kun ziyolisini jadalroq mehnat qilishga, faqat tor doirada emas, xorij ilmini ham egallash darkorligini uqtirayotgandek hissiyot uyg‘otadi.

Hikoyada Kimsan, marmar zina, telexronitel kabi so‘zlarga urg‘u berib borilar ekan, shular orasida, Qurbonalining shaxsiy qo‘riqchisi bor, degan gumonlarga borib qolgan hammaslamlarning gap-so‘zlaridagi ikkinchi tagma’noli so‘zni uqib olishimiz mumkin. Bu, aslida, mustamlaka sharoitida yashagan o‘zbekning o‘tmishiga ishora. Qahramon ismining „Qurbonali“ deb atalishida ham aniq badiiy-estetik maqsad ko‘zlanganligi muqarrar.

Kuzatganimizdek, Xurshid Do‘stmuhammad hikoyasida qavatma-qavat ma’no mavjud, shunga ko‘ra, adib ijodini polifonik badiiy tafakkurga ega, deyish mumkin.

Ramziy-falsafiy talqindagi o‘ziga xoslik

So‘nggi o‘n yilliklar o‘zbek hikoya va qissachiligi shakl va mazmun e‘tibori bilan badiiy (badiiy uslubda, badiiy obrazda, badiiy tasviriyy vositalarda) va, shuningdek, estetik yangilanishlar (aksar o‘zbek hikoyalarida komillik, halollik, ma‘rifatparparvarlik – estetik ideal sifatida namoyon bo‘lmoqda) qilganligini yaqqol kuzatishimiz mumkin.

Ko‘pchiligimiz dunyo adabiyotining yangilanish jarayonlariga beqiyos ta‘sir ko‘rsatgan amerikalik buyuk adib Edgar Poning 1829- yilda nashr etilgan „Al-A‘rof, Temurbek va boshqa she‘rlar“ nomli ilk kitobidan o‘rin olgan va sohibqiron bobomizga bag‘ishlab yozilgan she‘riy doston bilan yaxshi tanishmiz (dostonni Faxriyor o‘zbek tiliga tarjima qilgan). „Al-A‘rof“ dostoni umr yo‘ldoshining vafoti tufayli qattiq iztirob chekkan shoir qalamining mahsuli. Doston shoir rejasiga binoan 14 bobdan iborat bo‘lishi nazarda tutilgan, ammo bitkazilmay, chala qolgan va bizgacha ikki qismi etib kelgan. Doston nomi haqida muallifning o‘zi shunday yozuvlar qoldirgan: „Bu nomni arablardan olganman va Al-A‘rof degani samovot-u do‘zax oralig‘idagi bir joy bo‘lib, u erda tushgan odamlar jazoga ham tortilmaydilar va abadiy rohatga ham erishmaydilar“.

Aslida „Al-A‘rof“ Qur‘oni Karimning yettinchi surasi bo‘lib, u haqda shunday ma‘lumot beriladi: „Makkada nozil bo‘lgan bu sura 206 oyatdan tashkil topgan bo‘lib, u payg‘ambarlar haqida batafsil hikoya qilgan birinchi suradir. Shuningdek, bu surada qiyomat kunidagi holat tasvirlanadi. U kuni kishilar uch toifaga bo‘linadilar: hayotlarini iymon va yaxshi amallar bilan o‘tkazgan kishilar ahli jannat, kofirlik va o‘zlariga ham, o‘zgalarga ham yomonlik qilish bilan o‘tgan kimsalar do‘zax egalari bo‘ladilar; qilgan yaxshiliklari bilan yomonliklari barobar kimsalar esa „A‘rof“ egalari bo‘ladilar. A‘rof – jannat bilan do‘zax o‘rtasini ajratib turadigan devor bo‘lib, uchinchi toifaga mansub odamlar o‘sha devorning ustida Olloh o‘zlarini

jannatgami yoki do‘zaxgami hukm qilishini kutib turadilar. Bu surada mana shu holatning tasviri o‘z ifodasini topgani uchun „A‘rof“ deb atalgan“.

Haqqast, Edgar Po hayotiga bag‘ishlangan „Al-A‘rof“ dramatik fojiasi kitobxonda kuchli his-hayajon qo‘zg‘adi. Bu asarni mutolaa qilar ekanmiz, u olis o‘tmish emas, dunyoning XXI asrdagi ahvoli, bugungi kunlarimiz haqida, tarixning takrorlanishi xususida hikoya qilayotganini anglaymiz. Mutolaa mobaynida o‘tgan asrning yakunida ro‘y bergan olamshumul o‘zgarishlar va eng avvalo bizni dunyodan ajratib turgan qatag‘on panjaralarining qulashi oqibatida boshlangan jarayonlar ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘lib turadi. Mutolaa davomida ayni shu beomon jarayonlar tufayli himoyasiz qolgan hududlarga bostirib kirgan jaholat saltanatining elchisi, – ehtiros qalami yaratgan Qora Qarg‘a eshiklarimizni betinim taqillayotganini, sabrsiz ravishda derazalarimizdan mo‘ralayotganini va uning qanotlari beorom yuragimizga soya tashlab turganini ilg‘ab turamiz. Asardagi Edgar Po monologlari Nasimiyning ushbu satrlarini qayta-qayta eslashga majbur qildi:

Manda sig‘ar iki jahon, man bu jahona sig‘mazam,

Gavhari lomakon manam,kavnu makona sig‘mazam...

Fikriy shiddat, botiniy ehtiros bilan yo‘g‘rilgan „Al-A‘rof“ yovuzlik va jaholat, shoir va muhit, ijod va ro‘zg‘or, inson va muhabbat, ijodkorning zo‘ravon va molparast jamiyatga nisbatan kelishmas ijtimoiy munosabati (pozitsiyasi), ijodkor va muhit, so‘z qadri va arzon safsata, g‘urur va pastkashlik haqida hikoya qiladi.

Bu asar odamizotning oliy maqsadi ilohiy go‘zallikka erishmoq, bu go‘zallik esa insoniy komillikda mujassam deb ishongan, butun umrini hayotning chirkin va beshafqat girdoblaridan omon qolishga sarflayotganini anglagan, komillik va go‘zallikka erishish yo‘lida ijodni hayotidan ustun qo‘yishgacha borgan va „Men fikrlash va jafo chekish uchun yashamoq

istayman“ (Pushkin), degan soʻzlarni umrguzaronlik emas, tiriklikning maqsadi deb bilgan insonga bagʻishlangan.

Maʼlumki, jahon adabiyoti durdonalarini oʻqib-oʻrganishda ilgʻor kitobxonlar har doim ham tarjimalarni kutib turishmaydi. Masalan, Argentina yozuvchisi Xorxe Luis Borxes va yapon adibi Akutagava Ryunoske asarlari oʻzbek ziyolilari tarafidan katta qiziqish bilan koʻp mutolaa qilinsa-da, hali ularning alohida kitoblari oʻzbek tilida nashr etilganicha yoʻq. Jahon madaniyatining boshqa koʻplab buyuk namoyandalari kabi, ilk kitobi Amir Temur nomi bilan atalgan Edgar Po nomi, asarlari va hayotining muhim tafsilotlarini Oʻzbekistonda yaxshi bilishadi, deyishga haqlimiz. Binobarin, „Al-Aʼrof“ fojiasining mavzusi biz uchun notanish emas. Asarda yozuvchi hayotining soʻnggi yillari tasvirlangan. Uning qismatdoshi sohibjamol Virjiniyani ajal oʻzining sovuq ogʻushiga olgan. Edgar biron chora koʻrishga ojiz. Atrofdagilar Virjiniyaning fazilatlarini taʼriflab, tasalli berishdan nariga oʻtishmaydi. Oxirgi kunlarda ham er-xotin suhbatlari tanho muhabbat haqida. Ular shu darajada ruhan yaqinlashganlarki, Edgar xotini huzurida boshqa maʼshuqalari nomini eslashdan tortinmaydi. Virjiniya rashk qilish u yoqda tursin, erini hamdardlik bilan tinglaydi. Pyesada Edgarning xotiniga qarata: „Goʻzal koʻzlaringni taʼriflashdan sira charchamayman! Ming marta, million marta taʼriflayman-u, bilasanmi, birorta soʻzni ikki bora takrorlamayman“, deyishi shunchaki shoirona mubolagʻa emas. Virjiniya buyuk asarlar yaratilishida ilhom parisi boʻlish baxtiga musharraf boʻlgan va shu tufayli adabiyot tarixiga kirgan ayollardan biri. Edgar Po asarlaridagi ayollar obrazlariga Virjiniyaning sifatlari singdirib yuborilgan.

„Isrofil“ sheʼrida „Ijodning beshigi – ehtiros“ deb yozgan, hayotda adabiyot va ayollardan boshqa qiziqishlari kam boʻlgan Edgarning asosiy hamsuhbatlari ham, pyesada tasvirlanganidek, oʻzining hamkasblari edi. Ammo daho adibning oʻz hamkasb doʻstlari bilan ham umumiy til topisha

olishi dargumon. Shu sababli suhbatlar keskin va munozarali. Bu hol o'sha davrdagi Amerika jamiyatiga baho berishda ham ko'rinadi. Do'stlari odamlar orasida avj olgan boylik orttirish talvasasi tabiiy bir holat, deb uni tinchitishga urinishganida Edgar battar yonib ketadi: „Ko'ryapsizlar, ko'pchilik ertangi kunga ishonishning birdan bir chorasi – boylik, faqat boylik orttirish deb o'ylayapti. Aslida bu yo'l, oxir-oqibat, jarga oborib qulatishini tushuntirib qo'yish bizning vazifamiz, burchimiz!“ Bu iqtibosdan ayon bo'ladiki, adabiyotning qudratli kuch ekanligini anglagan adib o'z qalami bilan jamiyatga ezgulik urug'ini sochishni qalamkashlik burchi deb biladi. „Pul hukmronlik qilgan joyda haqiqat tilini qisib o'tiradi“, – degan hamkasbidan farqli ravishda, har qanday holatda o'z mamlakatining kelajagiga katta ishonch bilan qaraydi.

Fojeiy qismatli buyuk ijodkorlar shaxsiyati va ruhiyatida ba'zi o'xshash jihatlar, ayni iztiroblar mavjud bo'lishini kuzatish mumkin. Nasimiy „Manga sig'ar ikki jahon, man bu jahona sig'mazam“, Mashrab „Saropo dard ko'rdum, muddaoni ko'rmadim hargiz“ deya nido qilishgan. Ko'p yo'qotishlarni ko'rgan bo'lsa-da, taqdirning eng og'ir zarbasi, ya'ni kiborlarcha yashashini orzu qilgan suyukli xotini Virjiniyaning hayotda na farzand, na ro'shnolik ko'rmasdan, ammo hech bir shikva-shikoyatsiz ma'sumona jon berishi Edgarning dardi dunyosini battar qorong'u qilib yuboradi. „O'zim ichimga sig'maganim sig'magan, Amerikagayam, dunyogayam sig'madim“ deya alam bilan xitob qiladi u.

Qahramonni qiynagan muammolar, ziddiyatlar tig'i tobora o'tkirlashgach, endi ularni tasvirlash uchun hamkasblari yoki noshir-u tanqidchilar bilan suhbat-u munozaralar yetarli bo'lmay qoladi. Muallif Edgarni, ehtimolki, uni o'ragan muhitdagi yagona munosib raqib, ya'ni o'z-o'zi bilan olishish va tortishishga majbur etadi. Buning uchun badiiy vositalar topish muammosi asarda ajoyib tarzda hal qilingan. Ya'ni 1, 2, 3, 4- qiyofalar

paydo bo'lib, qahramon bilan munozaraga kirishadilar-u, tezda ular aslida Edgarning o'zi, to'g'rirog'i, bo'lingan Edgarning turli bo'laklari ekanligi ayon bo'ladi. Darvoqe, inson shaxsiyatining keskin qarama-qarshi qutblarga bo'linib, ikkilangan holatga tushish manzarasi Edgar Poning „Ziddiyat shaytoni“, „Vilyam Vilson“ kabi hikoyalarida yuksak mahorat bilan aks ettirilgan.

Pyesa Edgar Po asarlaridan birining nomi bilan atalgan. „Al-A'rof“ uning o'smirlikda yozilgan, tugallanmasdan qolgan dostonidir. Amerikada tug'ilib o'sgan yozuvchining yoshligidan Sharq madaniyatiga alohida qiziqish bilan qarashi, ilk dostonlariga sharqona nomlar qo'yishi g'aroyibdir.

Nazarimizda, badiiyat imkoniyatlaridan foydalanib, ayniqsa dramaturgiya janridagi asarlar uchun zarur bo'lgan kontrastni yanada kuchaytirish uchun Edgar Po hayotining burilish nuqtalari – nurli onlarini ham tasvirlash, o'limi oldidan meteordek yonib kechgan hayotini xotirlashi tarzida, pyesaga yana ba'zi go'zal lavhalarni kiritish mumkin edi. Tug'ilishidanoq og'ir turmush girdobiga tashlangan Edgarning hayoti, uni asrab olgan boy oila xonadonidagi bolalik, o'smirlik davridan tashqari, uzluksiz drama tarzida kechgan. Shu sababli adib biografiyasida dramatik asarlarga zeb bo'la oladigan holatlar, o'ta hayajonli damlar kam emas. Ularning aksari Edgarning qismati bo'lgan badiiy ijod bilan bevosita bog'liqdir. Bulardan biri 1833- yilda Baltimor shahridagi adabiy jurnalning ellik dollarlik yutuq qo'yilgan hikoyalar tanloviga Edgar oltita hikoyasini yuborishi, buning natijasida boshqa da'vogarlar asarlari o'z-o'zidan bir chetga surilib, tanlov komissiyasi a'zolari uning biri-biridan zo'r hikoyalaridan qaysisini g'oliblikka tanlash uchun tortishishgani va ularning barchasini jurnalda e'lon etishga qaror qilishgani, shu tariqa adabiy doiralarda qariyb notanish bo'lgan boshlovchi bir kunda dahoga aylangani, u bilan yaqindan tanishish uchun tushlikka taklif qilishganida, surunkali

ochlikdan o'lar holatga yetgan tanlov g'olibi, boray desa, egnida tuzukroq kiyimi yo'qligini aytib, uzr so'rab xat yo'llagani voqeasidir. Afsuski, bu e'tirof uning hayotligida faqat tor doirada bo'lib, adibning moddiy ahvolidagi aytarli o'zgarish yasamadi. O'sha davr Amerikasining kitobxonlar ommasi orasida ingliz tilidagi o'qishli asarlar asosan Angliyada yaratiladi, degan qarashlar hukmron bo'lib, qalam haqi evaziga hayot kechirish uchun qahramonlarcha kurashgan Edgar Poning shoh asarlarini ko'pincha nashriyotlar qabul qilmay, qaytarib yuborishar, chop qilishga erishgan kitoblarining ham nusxalari kam bo'lib, u kutgan daromadni keltirmas edi. Aksincha, uning favqulodda iqtidoridan ba'zi jurnal egalari o'z nashrlari obunachilari sonini oshirish va shu tarzda boylik orttirish uchun ustalik bilan foydalanishganki, bu narsa „Al-A'rof“ pyesasida ham ko'rsatilgan. O'sha paytdayoq boy mamlakatlardan biri bo'lgan Amerikaning buyuk adibi umr bo'yi qashshoqlik balosidan qutulolmagan. Hayoti oxirida uni hushidan ketib, abgor holatda ko'chada yotganida topib olishadi va u kasalxonada jon beradi.

Jadid adabiyoti mutaxassislari alloma Fitratning „Hind ixtilolchilari“ dramasini yozishdan maqsadi mustamlaka Turkistonning ozodlik uchun kurashini bilvosita aks ettirish, deb tushuntirishadi. Hozirgi ijod erkinligi sharoitida X.Do'stmuhammadning o'zbek jamiyati hayotini tasvirlash uchun Amerika mavzusiga murojaat qilishiga zarurat bo'lmasa kerak. Shunga qaramay, biz har qanday asarni yozishga turtki beradigan narsa muallif yashayotgan davr va jamiyat hosilasi, yozuvchi ko'nglidagi ijod dardi, ko'pincha, jamiyat dardlariga hamohang, deb aytishga moyilmiz. „Al-A'rof“ o'zbek sahnasida qo'yilsa, tomoshabinlar asar qahramonlari amerikaliklar ekanini tezda unutib, o'zlariga yaqin va tanish bir hayot manzarasini kuzatayotgandek holatga tushishsa kerak.

„Al-A'rof“ asari O'zbekistonda Edgar Po ijodiga qiziqishni yanada o'ttirishiga, yozuvchi akamizning adabiy shijoati yosh hamkasblariga yaxshi o'rnak bo'lishiga aminmiz.

Hikoya janrida faol ijod qilayotgan, bir qator hikoyalari bahs-u munozaralarga sabab bo'lgan taniqli yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning ushbu janrda shu paytgacha yaratgan qariyb barcha asarlari **2006- yilda** „Sharq“ nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati tomonidan „Beozor qushning qarg'ishi“ nomli yagona jildda 5 ming nusxada chop etildi. Besh yuz sahifadan oshiq hikoyalar to'plami mavzuga qarab sakkizta bo'limga bo'lingan va undan qirqta asar o'rin olgan.

Mutolaa jarayonida darhol ko'zga tashlanadigan jihat shuki, to'plamdagi hikoyalarda qiziqarli voqealar tasviriga asoslangan bo'rtib turgan sujet yo'q hisobi. Bu hol X.Do'stmuhammad ijodiy metodining o'ziga xosligi bilan bog'liq. Hikoya yozish jarayonida muallifni voqeago'ylik emas, balki badiiy san'atkorlik qiziqtiradi. Sujet chizig'i qahramonlar ruhiyati orqali o'tadi. Binobarin, X.Do'stmuhammad hikoyalarini inson ruhiyati tahlili haqidagi hikoyalar deb atash mumkin.

Adibning tarixiy hikoyalari davr jihatidan asosan keyingi ikki asrga oiddir. Ma'lumki, XX asr boshida o'lkamizda kapitalistik munosabatlar kuchaygach, dovrug'i Turkistondan uzoqqa ketgan katta boylar paydo bo'lgan. Biroq ular orasida nega aynan andijonlik Mirkomilboy, toshkentlik To'xtaboy va romitanlik Choriqulboy kabilar faoliyati istiqlool davrida adiblar diqqatini jalb etib, mazkur boylar adabiy va hujjatli asarlar qahramonlariga aylanmoqda? Bu savolga lo'nda javob to'plamda „**Bedor moziy**“ nomi bilan alohida bo'limga ajratilgan tarixiy hikoyalar uchun muallif yozgan kirish so'zida mujassam: „Kishilar xotirasidan o'chmagan tarixiy voqealargina tirik hisoblanadi... Ularning ahamiyati, qimmatini keyingi avlodlarga bedorlik baxsh etishidadir“.

Hikoyalar qahramonlari Mirkomilboy va To‘xtaboy sarmoya to‘plash, boylik orttirish barobarida millat taraqqiyoti, milliy hamjihatlik haqida qayg‘urib, mustamlaka davrida ham ushbu ezgu g‘oyalar amali uchun imkon qidirishadi. Tabiiyki, u zamon sharoitida bunday odamlarga oson bo‘lmagan va ularning hayoti muqarrar ravishda fojiali kechgan. Ayniqsa, Oktabr to‘ntarishidan keyin barcha boylar xalq dushmanlari deb e‘lon qilinib, ta‘qib ostiga olingan. Ularning bir qismi Vatanni tark qilib, o‘zga yurtlarga bosh olib ketishgan. Biroq barcha ham bunga qodir bo‘lmagan. „Qazo bo‘lgan namoz“ hikoyasida Istanbulga ko‘chib kelishni taklif qilgan Anvar poshoga javoban Mirkomilboy shunday deydi: „Lekin vatanni qanday opkelamiz? Vatanni ko‘chirib bo‘lmaydi-ku!“ Shu tariqa Vatan fojiasi – uni sevgan shaxslar fojiasi ekanligi hikoyalarda mahorat bilan ko‘rsatilgan.

Xurshid Do‘stmuhammad bag‘ri xotiralarga to‘la adib. Bu xotiralar otabobolar hikoyalaridan, bolalikda kechgan voqealardan qolgan. Bu xotiralar bugunning talabi va ta‘siri bilan uyg‘onadi va adib yuragini bezovta qiladi.

Garchi ayrim g‘arblik donolar „Ha deb orqasiga qarayvergan millat (demak inson ham. Xurshid Davron) har qadamda qoqila-qoqila yo‘l bosishga mahkum“ desalar-da, o‘tmishini unutgan millat har qanday taraqqiyot manbayi bo‘lgan – milliy ruhni yo‘qotib qo‘yishi mumkin, oxir-oqibatda so‘qirligi tufayli jar komiga qulashi mumkin. Ayni shu sababdan adib kitobidan o‘rin olgan olis tarixga bag‘ishlangan „Oq libos“, „Qazo bo‘lgan namoz“, „To‘xtaboyning boyliklari“ kabi hikoyalar nechog‘li alamli kunlardan hikoya qilmasin, kitobxonga eng avvalo bugun uchun kerakli kuch va fikr bag‘ishlaydi.

Yozuvchi ayrim hikoyalarida voqea yoki qahramoni haqida hamma gapni „chaynab“ bermaydi, „qissadan hissa“ chiqarmaydi, kitobxonga ham ish qoldiradi. Mana shunday hech gap yo‘qday tuyuladigan hikoyalarning biri – „Otamning oshnasi“. Zamon voqealaridan uzilmagan, uni ziyrak kuzatib

yurgan o'quvchi aytilmagan bor gapni tushunadi, hikoya davomida yuragida asta-sekin qo'zg'algan dard uni mutolaadan keyin ham ancha vaqtgacha qo'yib yubormaydi. Ayni shu tarzda asarlarida yozuvchi ezgulik va yovuzlik har qanday sharoitda yonma-yon mavjudligini ko'rsatadi, bu tushunchalarni bir nuqtada jamlay oladi va buning oqibatida voqealar yoki holatlarning suratan sokin, siyratan shiddatli kechishini ko'zimiz bilan emas, botiniy nigohimiz bilan ko'rishga majbur qiladi. Bu Xurshid Do'stmuhammadning adib sifatida katta tajriba va mahoratga ega ekanligini namoyon etadi.

X.Do'stmuhammadning zamonaviy mavzudagi hikoyalarining shakl va mazmun jihatidan rango-rangligi muallifning uslub ustidagi keng izlanishlari hosilasidir. Tabiiyki, asosiy ta'sir kuchi inson ruhiyatining sokin tahlili va nozik uslubga tayanuvchi hikoyalar mutolaasi kitobxondan anchagina ziyrak va mushohadali bo'lishni talab etadi. „Otamning oshnasi“ hikoyasida cho'lda ishlaydigan kattakon odam mehmon bo'lib kelgan xonadonda futboldan gap qo'zg'alganda uy sohibi o'g'liga mehmonni: „Amaking ashaddiy ishqibozlardan“ deya ta'riflaydi. Mehmonning istagi bilan futbolga chipta olishadi. O'yin boshidagi suhbatdan mehmonning futbolga yigirma yildan keyin ikkinchi bor kirayotgani ma'lum bo'ladi. „Ashaddiy ishqiboz shumi?“ degan kinoyali o'y o'tadi xayolimizdan. Biroq hikoyada ba'zi his-tuyg'u, mayl-istak va ishqibozlik odamda sharoit taqozosicha uzoq muddat yashirin holda bo'lib, vaqti soati kelganida junbishga kirib, o'zini namoyon etishi san'atkorona ko'rsatilgan. Xalq tilida buni odamning „ochilgan payti“ deyiladi: „Mehmon o'rnidan turib olgan, quloqni qomatga keltirayotgan qiyqiriqlarga qo'shilib, dam unday, dam bunday ovoz chiqarar, uning olqishi, na'rasi boshqa muxlislarnikidan yaqqol farqlanib quloqqa botar, har safar ovoz chiqarganida beixtiyor: „Biron kori-hol bo'ldimi?“ degan xavotirda u kishining aftiga qarayverdim“.

Totalitar tuzumning shaxsga nisbatan zo‘ravonligi haqidagi asarlar adabiyotda ko‘plab yaratilgan. „Jim o‘tirgan odam“ hikoyasi ham shu mavzuga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, asar yengil hajv bilan yo‘g‘rilgan, ya’ni unda fojiaaviylik yumor vositasida ko‘rsatilgan. Bu jihatdan „Jim o‘tirgan odam“ni Chexovning „Unter Prishibeev“, „Semiz va oriq“ kabi hikoyalariga mengzash mumkin. Hikoya qahramoni Qurbonali bir paytlar „botirgapchi“ bo‘lib, ayrimlar uning bu xislatiga havas ham qilishgan. Ammo uch og‘iz jumla „sharofatiga“ o‘n yildan oshiq o‘tirib kelgan padari buzrukvori bir hikmatni farzandining qulog‘iga quygan: „Xudo dushmanni har bandaning og‘ziga joylab qo‘yibdi. U dushmanning oti – til, zabon! Yorug‘ dunyoda eson-omon yashab, o‘z ajaling bilan o‘lmoqchimisan – tilingga tugun solib yur“. Otasining o‘limidan so‘ng Qurbonali uning bu hikmatiga vasiyat kabi amal qiladi. Biroq tuzumning qabohati shu darajadaki, hatto „jim o‘tirgan odam“ ham o‘zini „gunoh“dan soqit his qilolmaydi: „Uning shuuri-yu vujudini qo‘rquv zabt etgan, qon tomirlarida qon emas, qo‘rquv zir yugura boshlagan edi!“ Hikoyada epizodik tarzda ko‘rinsa-da, esda qoladigan obrazlardan biri nihoyatda qitmir, o‘ziga gard yuqtirmaslik uchun „noxush“ gap qo‘zigan davradan darhol juftakni rostlaydigan To‘lash tarashadir. U Qurbonalidan ham ancha ehtiyotkor va tiliga pishiq odam. Biroq tuzum razolatiga had yo‘qligi shundan ayon bo‘ladiki, unda To‘lash tarasha kabi odam ham shubha-yu ta’qibdan emin yashashi dargumon.

Xurshid Do‘stmuhammadning kitobxonlarni maftun qilgan birinchi asari „Jajman“ edi. Ayni shu bitik kitobxonga o‘zbek adabiyotiga o‘ziga xos ovozga, o‘z mustaqil dunyoqarashiga ega adib paydo bo‘lganini to‘la-to‘kis anglatgan edi. Hikoya yozilganidan buyon ancha vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, yil o‘tgani sayin bu hikoyadan ko‘zlangan maqsadning yangi-yangi qirralari ochilib borayotgani ko‘ramiz.

Nazarimizda, „Jajman“ jannatdan quvilgan Odam Ato qavmining tarixi haqidagi hikoyadir. Bozordagi har gal yo‘q etilganday, ammo yana paydo bo‘ladigan ebto‘ymas maxluh bilan kurash boshlagan odamlar bilmaydilarki, bu maxluq bekinadigan, yana chiqib keladigan teshik bozor chetidagi devordagi tuynuk emas, balki ularning yuragidadir. Ichindagi maxluqni o‘ldirmay turib, uning tashqaridagi soyalarini – jaholat va yovuzlikni mahv etib bo‘lmasligi haqida bu hikoya.

„Jajman“ hikoyasi milliy hikoyanavislik yutug‘i sifatida e’tirof etilib, u haqda ko‘plab fikr-mulohazalar bildirildi. „Jajman“ga taqlidan boshqa hikoyalar ham yozildi. Har kimga ayonki, badiiy jihatdan pishiq asarlar turfa talqinlarga imkon tug‘diradi. „Jajman“ X.Do‘stmuhammadning bozor mavzusiga bag‘ishlangan ilk asarlaridan biri. Albatta, adib asarlaridagi bozor – jamiyat ramzi. Jamiyatning ko‘plab muammolari bozorda bo‘rtib ko‘zga tashlangani uchun ham yozuvchi mazkur mavzuga ko‘proq murojaat qilayotgandir. „Jajman“ hikoyada yuho nafs timsolidir. Oldin uni beozor maxluq ko‘rib, erk bergan odamzod so‘ngra dahshatga tushadi: „Shuni o‘ldirib, tinch yashaylik!“ Biroq, jajmanni, ya’ni jamiyatda hakalak otib ketgan baloyi nafsni o‘ldirish osonmi?! Ilk bor 1989- yilda e’lon qilingan hikoyada umumning kurashga safarbar etilishi natijasida „o‘ldi“, deb hisoblangan jajmanning ikki barobar kattalikda tirilib kelishi go‘yo adabiy bashorat bo‘ldi.

Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalarining – boshqa o‘zbek adiblari ijodida juda kam uchraydigan – yana bir fazilati ularning aksariyatida o‘zbek va jahon she’riyati ohanglarining namoyon bo‘lishida deb bilaman. Bu ayniqsa „Oqimga qarshi oqqan gul“, „Qoyalardan balanda“, „Qor odam“ kabi hikoyalarda yorqin namoyon bo‘ladi. Bu esa Akutagavaning „Haqiqiy adib shoir bo‘lishi kerak“ degan gapini yodimizga soladi. Akutagavaning fikrini davom ettirsak, haqiqiy, teran proza hamma vaqt va faqat poetik asosga asos

bo'ladi. Zero, poeziya, har qanday so'z san'atining zaminidir. Hatto buyuk Tolstoy ham „Tazarru“sida bekorga o'zini yozuvchi yoki romanist deb emas, „Men san'atkorman, shoirman“ deb aytmaydi. Tolstoy Chexov haqidayam „u shoir“ deb yozadi. Donishmandlarning biri „faqatgina she'riyat chinakamiga tarixga ta'sir qila oladi“ degan edi. Tolstoy va men nomini unutgan bir donishmand „shoir“ degan tushunchalarni qofiyali asar yozadigan odam deb emas, balki so'zni – tilni his etgan ijodkor deb tushunishgan.

O'zbekning katta hikoyanavislaridan marhum Shukur Xolmirzayevning barchamiz sevib o'qigan dilbar hikoyalarida voqealar ko'proq qishloqda yoki tog'lar-u dashtlar qo'ynida kechadi. X.Do'stmuhammad hikoyalarining aksar qahramonlari – katta shahar sokinliklari. Shahri azimning qaynoq hayoti, zamonga qarab tovlanib-tuslanishi, buning natijasida sokinliklar duchor bo'layotgan muammolar turli qirralari bilan tasvirlanadi. „Qor odam“ hikoyasi qahramoni shahar markazida yashaydigan „soqolli kishi“ shovqindan bezor bo'lib, do'xtir maslahatiga ko'ra „shaharning ovloq chekkasi – Achaoboddan hovli-joy qiladi“. O'n yildan so'ng: „Shahar uni quvib Achaobodga ham yetib keldi... Soqolli kishining eski dardi qo'zidi. – Chidang, – dedi tajang do'xtir maslahat emas, zarda qilayotgandek ohangda, yashashni chidaganga chiqargan! Shahardan qochib qayoqqa borardingiz?!“

Ha, shunday zamon keldiki, endi shahardan qochishning iloji yo'q. Aksincha, shaharga intilish, shaharga ko'nikish, shahri azimda, ya'ni millionlar orasida kun kechirish yo'llarini izlash lozim. Shahar hayoti esa bir paytlardagidan ham ko'proq qaynab, tovlanib-tuslanmoqda. „Yoqub izquvarning hiylasi“ hikoyasi qahramoni ichi tesha tegmagan gaplar-u qochiriqlar koni bo'lsa-da, ilgarigi zamon taqozosiga ko'ra, tilini qisib yurib, ahyon-ahyonda tiliga kuchi yetmay qolgan paytlar aytganini eshitganlar uni ichidan pishgan pismiqqa chiqarishadi. Biroq sabr-toqat va omilkorlik bilan yangi zamonga mos „hunar“ topgan „Yoqub pismiq“ kimsan „Yoqub

to‘ram“ga aylanadi. Yoqub to‘ram o‘z shaxsiy kuzatishlari, xudo bergan aqlini ishlatishi tufayli yangicha hayot kechirish falsafasining ijodkorlaridan biri: „Yoqub to‘ram o‘ylab ko‘rsa, endigi zamonda falon kasbning pattasi cho‘ntagimda deganing bilan noning butun bo‘lmas ekan, endi davr-u davron ishning o‘zini emas, ko‘zini bilganniki!“

To‘plamdagi ayrim hikoyalarning joziba kuchi shunchalikki, ularni oxirigacha o‘qib ulgurmayoq, kitobxonda oldingi sahifalarga takror ko‘z yugurtirish, asarning mazmun-mohiyatini ilg‘ash, tag qatlamlariga chuqurroq yetish ishtiyoqi paydo bo‘ladi. „O‘n birinchi eshik“ shunday hikoyalardan biri. So‘lim istirohat bog‘ida Rasul o‘z sevgilisi Bashorat bilan kezmoqda. Sayr-u sayohat uchun barcha narsa muhayyo: daraxtzor, ko‘l sohili, sayhonlik. Biroq Rasul tinimsiz bog‘ning devorlari, eshik-darvozalarini izlaydi. Rasul bilan „dunyoning eng olis burchaklarigacha ketib qolishga tayyor“ Bashorat unga hamdardlik bilan deydi: „– Qiziqsiz-a, Rasul aka... „Devor, darvoza“ deyapsiz-u... mana shu odamlar-da, devor! Darvoza-yu eshiklar – odamlarning yuragi, qalbi, mana shu yurak va qalblar tushunsagina darvoza tavaqalari ochilgan hisoblanadi biz uchun!“

Bu satrlardan so‘ng kitobxonga hikoya ramzlar asosiga qurilgani, asar qahramonlari nomlari ham ramziy ekanligi ayon bo‘ladi. Diqqat taranglashib, Rasul devor-darvozalarni qidirish va ochishga zo‘r bergani sayin, o‘quvchi aql va tasavvurlarini ishga solib, ramzlar qatiga yashiringan mazmun-mohiyatni izlaydi. Eshiklar ko‘p-u ochiladiganini topish ancha mushkul kechadi. Bog‘ning ovloq burchagida g‘ishtli devor orasidagi taxtani ko‘rganida Rasul maqsadga yaqin yetganini his qilib, darhol uni ko‘chirishga kirishadi. Temir mixlarni asbob-uskunasiz ko‘chirib ola boshlaydi va Bashoratga deydi: „Bu mixlar eshikka yoki taxtaga emas, yurakka qoqilgan. Sen bilan birgalashib, ana shu yurakdagi mixlarni bitta-bittalab sug‘urib tashlaymiz. Mayli, qo‘limiz qonasin, mayli ko‘karib-shilinsin, lekin yurak

mixlardan tozalansa, tomirlardagi qon gupirib oqadi, qara, zanglagan-qoraygan, egri-bugri, katta-kichik mixlar“.

Bu hikoya mumtoz shoirlar g‘azallari singari turfa talqinlarga imkon beradi, desak, mubolag‘a bo‘lmasa kerak. Hayot, inson va jamiyat haqidagi bir qolipga solingan biqiq o‘y-fikr, mustabid tuzum vujudimizga singdirgan mute‘lik biz tark etishni istamagan „so‘lim istirohat bog‘i“ emasmi? Bog‘dan tashqaridagi har bir narsa bizga noayon, yot va keraksiz, hatto, zararli tuyuladi. Kimki tor qobiqni yorib chiqmoqchi bo‘lsa, tushunmaslik degan metin devorga duch keladi. Bu hali holva. Mustaqil fikrlash, ilg‘or jahon hamjamiyati darajasidagi tafakkurga erishish yo‘lini ochish uchun yuragimiz, qalbimiz, ongimizga qadalgan, zanglagan mixlarni bittalab sug‘urib tashlashimiz kerak. Har birimiz o‘zimiz uchun Rasul, millatdoshlar uchun esa Bashorat yanglig‘ sadoqatli madadkor bo‘lmog‘imiz lozim.

„Ko‘ngil... yangilik qidiradir“ bo‘limidagi ba‘zi hikoyalarni yozishdan maqsad neligini dabdurustdan fahmlash qiyin. Tasvirlanayotgan narsa va hodisalar go‘yo parokanda, ayqash-uyqash, mantiqan bir-biriga bog‘lanmagandek. Ong oqimi usuli yaqqol sezilib turadi. Hikoyaning ohangiga tushib olgan o‘quvchigina asta-sekin undagi to‘laqonli asarga xos yaxlitlikni tuya boshlaydi. Bunday hikoyalardan estetik zavq olish uchun muallif niyatiga xayrixohlik va tasvirlanayotgan g‘aroyib hodisalarga ishonish kifoya: „Tasavvur qilgandan ko‘rgan ming chandon afzal... Yetishmoq uchun, ko‘rmoq uchun esa halqa yo‘ldan kesib o‘tishga, qordevorlar payida uzala tushib yotishga, odamning qor uchquniga aylanib ketishi mumkinligiga, alhol, moviy ko‘l tubiga sho‘ng‘ib quyonbaliq tuta olishiga ishonmog‘ingiz – ana shu ishonchga mubtalo bo‘lmog‘ingiz kerak“. („Halqa yo‘ldan ho‘-o‘ narida“ hikoyasi).

Yozuvchining bir qator qahramonlari savollar girdobida qolib, ularga javob izlayotgan kishilar. Bular jo‘n savollar emas, ularni tirikchilik

tashvishlarigina tug'dirmagan, balki tafakkur kishisining o'z-o'zini ayovsiz so'roqqa tutishi natijasida yuzaga kelgan: „Aygash-uyqash qatorlashayotgan bu savollarni o'ylamoq, chamalamoq, tosh-u tarozi pallasida o'lchamoq uchun ozmuncha aql-idrok, ozmuncha fursat, hurlik, erkinlik... tantilik zarurmi?!“ („Bugun ertalab“ hikoyasi).

To'plamdagi hikoyalarda chiroyli tasvir, o'tkir iboralar, Toshkent shevasiga xos nozik qochirimlar ancha-muncha uchraydi: „o'zbek sabrga tug'ilgan“, „o'zimizdan durust futbolchilar yetishib chiqmaguncha „Paxtakor“ning peshonasi yarqiramaydi“, „minilmagan toychoqning qazisini yeb katta bo'layaptilar-a“, „tirikchilik bani basharning tumshug'idan jilov o'tqazib, yetovga soladi“, „ichmasa – mushukdan yuvosh, og'ziga qitdek tegsa – qiyomat-qoyim deyavering“, „umr – o'ylov arshiga ko'tarilish uchungina berilgan fursat, muhlat“, „imorati olmonlarning o'yinchoq fabrikasidan yangigina charaqlab chiqqan qo'g'irchoqqa o'xshaydi – uzoqdan qaragan odamga kulayotgan, jilmayayotganday“ va hokazo.

„Beozor qushning qarg'ishi“, shubhasiz, chuqur ilmiy tadqiqotlar, qizg'in adabiy muhokamalarga arziqli to'plam. Zero, undan joy olgan asarlar adabiyotimizdagi yangilanayotgan badiiy tafakkur, o'zbek hikoyanavisligining bugungi darajasi hamda zamonaviy jahon hikoyanavisligida tutgan o'rnini haqida jiddiy fikr-mulohazalar aytishga imkon beradi. „Beozor qushning qarg'ishi“ hikoyasida ona tabiat va uning jonivor-u jonzotlarining inson uchun naqadar kerakligi xususida anchayin teran fikr-u mulohazalar atroflicha ifoda etilgan. Hikoyadan keltirilgan ushbu parchada ham buning yorqin namunasini kuzatamiz:

„– Qadriya, men bir savdoyi yigit bo'lsam, mening nimamni yoqtirasan?

– Voy, o'libgina keta qolay, men qachon seni „yoqtiraman debman?! O'zing-chi, o'zing! Qizimni uzatay deyapman-u, nima jin urib menga ilakishib yuribsan?!

Boshqa tirikchiliging yo‘qmi?!

– Tirikchilik?.. – Fozilbek shunday dedi-yu, tishi simillab og‘rigan odamday aftini bujmaytirdi, ko‘zini xiyol ochib, ro‘parasida – rastaning u tomonida – shamshoddek kosatini tik tutib turgan juvonning paxtaday oq, buloq suvidek tiniq yuziga, bo‘yniga... qirmizi yonog‘iga razm soldi. Ovozini pastlatib so‘radi:

– Badaning sadafdan ishlanganmi?

– Suyulma, – dedi Qadriya, – musulmon odamning farzandisan-a!

– Musulmon kishida nafrat emas, muhabbat kuchliroq bo‘ladi.

Juvon savolga ortiq e‘tibor bermadi, aftidan u duch kelgan erkak yo ayol bilan e-eski qadrdondek sirlashib-tillashib ketaveradigan, dam beg‘ubor, dam o‘ta quv ko‘rinadigan kunda-shunda bu yigit bilan gurung qurish niyati yo‘q edi. Biroq Fozilbek muddaosini tushuntiribroq ifodalashga kirishdi...“ (279-280-betlar)

Bu o‘rinda ayniqsa, muallifning samimiy ifodasi – o‘ziga xos uslubi ko‘zga tashlanadi. Negaki, uslub mahorat, iste’dod birlashsagina haqiqiy san’at asari dunyoga keladi. „Inson o‘zining haqiqiy mohiyatini faqat qo‘rquv holatidagina to‘la anglaydi“ – deb yozgan ekan faylasuf Syoren K’erkegor. Uning bu fikri nisbiy haqiqatdir va insonning hayotida ro‘y beradigan oniy qo‘rquvlar haqida bo‘lsa kerak. Agar, K’erkegor yozganidek bo‘lganida edi, yetmish yillik qo‘rquv saltanatida yashagan o‘zbek adiblarining mohiyatan yuksak asarlarini o‘qigan bo‘lar edik. O‘ylashimizcha, inson o‘zining haqiqiy mohiyatini ozod fikrlash imkoniyatiga ega bo‘lgandagina to‘la anglaydi. Yangilanayotgan o‘zbek adabiyotidagi asarlar, Xurshid Do‘stmuhammad kabi badiiy ijodga, hayot haqiqatiga „o‘zgacharoq yondashish“ yo‘lidan matonat borayotgan adiblarimizning ijodi buni yaqqol isbotlab turibdi.

III BOB.

“BOZOR” ROMANIDA HAYOTIY HAQIQAT VA BADIY MAHORAT

Romanda badiiy ifoda va obrazlar talqini

XX asr adabiyotshunosligida keskin va qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lgan roman janrning genezisi hamda taraqqiyot tamoyillarini o'rganish barobarida milliy romanchiligimiz imkoniyatlari, ayni paytda, janrning milliy istiqlool davridagi holatini ko'zdan kechirish, ilmiy tahlilga tortish orqali roman taraqqiyoti, shaxs ichki olami, insonning botiniy va zohiriy tabiati badiiy inkishof qilinar ekan, romanga xos tafakkur janrining o'ziga xosligini namoyon etuvchi adabiy omil sifatida maydonga chiqadi. Romanga xos tafakkur badiiy asar mohiyatini anglatibgina qolmay, jamiyat badiiy-estetik tafakkuri darajasini ham namoyon etadi.

O'zbek milliy romanining tarixi, taraqqiyot tamoyillari qisman o'tmish va asosan zamonaviy voqelik bilan belgilanishini nazarda tutgan holda, uning shakllanishi va taraqqiyotida, avvalo, XX asrga kelib, mukammal roman janri tadrijiga ega bo'lgan rus, so'ng esa g'arb romanlari kata rol o'ynaganligini e'tirof etish kerak.

X.Do'stmuhammadning «Bozor» romanida ko'zga tashlanuvchi aniq xususiyat shundaki, yozuvchi real zaminda turib syujet rivoji davomida ongli ravishda asar g'oyasini yanada bo'rttirish maqsadida romantik bo'yoqlardan va modernietik tasvirdan mahorat bilan foydalanadi. Asar ekspozitsiyasi ham o'ziga xos «Dunyo boshi gulzor, odoshi mazor, gulzoru mozorning orasi bozor» epigrafi va «Bozor» timsoli tasviri bilan boshlanadi. Zamonamiz kishilari va «Bozor» qiyofasini ochishda bosh qahramon Fozilbek bilan Qosimbek, Diyorbek, Qadriya, Baxtish, Von Suu, G'ulomjon, Egam Bobolar o'rtasidagi dialoglardan mohirona foydalangan. Syujet rivojidagi barcha

dialoglar oddiy so‘zlashuvlar emas, balki xarakter yaratuvchi obrazli nutqlardir. Ekspozisiyaning o‘zidayoq quyidagi dialog keltiriladi.

«- Xudo bergan yetti o‘g‘il-qizni to‘yini to‘rtala faslga mo‘ljallab o‘tkazdim, illo, birortasidagi yomg‘irdan qochib qutilolmadim, hammasining to‘yida jala quygan-e! Mana, vallohi a’lom, saraton, odam yonaman, deydi-yu, yomg‘iri tinmaydi!...

Fozilbek hayrat aralash kuldi.

- Mayli, o‘lim bo‘lmasin,-deydi karvonning ko‘ngli uchun. –Yomg‘ir baraka belgisi, ana. U bir necha qadam nori ketgan joyida Kamol karvon uni to‘xtatdi».¹

Fozilbek va Kamol karvon o‘rtasidagi ushbu dialogda hech qanday shiddatli dramatism sezilmaydi. Lekin dialogdagi «-o‘lim bo‘lmay iloji yo‘q, uka» javobining Kamol karvon tilidan ta’kidlab aytilishi syujet rivoji jarayonida noxush voqea sodir bo‘lishidan dalolat beradi. Bu tasvir usuli asar ekspoyasiga nihoyatda mosdir.

Asarda syujetning asosiy ikkita liniyasi mavjud. Bular: Bozor va sevgi-muhabbat liniyalaridir. Yozuvchi syujetning shu ikki liniyasi rivoji davomida inson va bozor, inson va muhabbat, inson va ma’rifat inson va mehr-oqibat kabi davr muammolarini badiiy tahlil qiladi.

Roman qahramoni Fozilbek yoshi o‘ttizni qoralagan bo‘lsa-da hali uylanmagan. U uylanishdan qo‘rqadi, yo‘q, to‘g‘rirog‘i uylanishi o‘zi xohlamaydi. Sababki «Munosibxon»i yo‘q. Shu boisdan Fozilbek har kuni «sen tengi yigitlar nevarali bo‘vottiyu, uyalmaysanmi, so‘ppayib yurishga?!» kabi ta’na dashnomalarga qoladi. Buning ustiga otasi Qosimbek kasal, «kasal»i nima o‘zi, kenja o‘g‘li Fozilbekni uylantirishmi? Shu bilan sog‘ayib ketadi-mi? Buni hech kim, na Diyorbek biladi na opalari. Akasi va

¹ Do‘stmuhammad X, Bozor. –T.: Sharq, 2000. 7- bet (shu manbadan olingan boshqa misollarning sahifasi qavs ichida beriladi).

opalari buni sababi Fozilbekni uylanishida deb bilishadi. Roman asosiy syujeti ham shunga bog‘liq dialog bilan boshlanadi.

- Tanimagan – netmaganimni, sinamagan-bilmaganimni tanlashdan uyalaman. Habiba ukasining bemavrid hazilidan battar xunobi chiqdi.

- Tanish-netish uchun, nima, birovvi qizini ichiga kirib chiqishing kerakmi?!

Avval nari-veridan ko‘rgin, yuzlashtiraylik... Husni, bo‘y-basti ma‘qul kelsa, bo‘ldide!... (9- bet)

Keltirilgan ushbu dialogda Fozilbekning ma‘naviy barkamol, vijdonli va oriyatli inson ekanligiga ishora qilinadi. Fozilbekning ma‘naviy qiyofasi syujet voqealari rivoji davomida, suhbatma-suhbat ochilib boraveradi. Shu bilan birga voqealar oqimi jarayonida dialoglar ham rivojlanib boradi. Biz ana shu mantiqiy o‘shish jarayoniga e‘tibor qaratamiz. Yozuvchi asosan Fozilbek va «Bozor» qiyofalarini ochishda psixologik xarakterga ega bo‘lgan dialoglardan o‘rinli va samarali foydalangan.

- Nimadan kulyapsiz, otasi? – erini avaylabgina so‘radi Qumri ona. U cholining fe‘lidagi g‘alati o‘zgarishni sezib o‘tirgan edi.

- Bozordan. Bozorning ustidan kulyapman-dedi. Qosimbek oqsoqol o‘sha zahoti labi lunjini yig‘ishtirib-Bozorni epaqaga keltiraman deb yashagan o‘zimning ustimdan kulyapman... (24- bet).

Jaholat va fisqu-fasodga botgan «Bozor»ni «yo‘l»ga solmoqchi bo‘lgan Qosimbekning butun umri bekorga ketganligini hayoti adog‘iga etganda anglayotgani o‘z tilidan ishonarli va ta’sirchan berilgan. Qosimbek ham hamma qatori oddiy odam. Boshi yostiqqa tekkandagina inson qadr-qimmatini, o‘zligini anglamoqda.

Professor H.Umurov psixologizmning tahlil vositalariga to‘xtalar ekan, dialogni «ikki syujetli» dialog («Birinchi syujet»da qahramon hissiyoti va kechinmalari rivoji ularning nutqlari, mamikasi, imo-ishorasi orqali aks etadi;

«Ikkinchi syujet»da qahramon kechinmalari rivoji avtor tomonidan tushuntiriladi, ularga avtor baho beradi) deb atab ko'rsatadi. Ana shunday «Ikki syujet»li dialoglar biz tadqiqot obyekti qilib olgan «Bozor» romanida ham psixologik funktsiyani bajaradi.

Romanda «ikki syujet»li dialog qahramonlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini ochishda, ruhiy holatini aks ettirishda mahorat bilan qo'llanilgan. Asardagi qaysi bir dialogni olib ko'rmaylik, suhbat jarayonida, albatta ularning qalb kechinmalari, ko'ngil tug'yonlari-yu, istaklari dialog va monologlarning dialektik birikuvi vositasida, avtor nutqining monologlarga singib yangi bir badiiy kashfiyot hosil bo'lganligining guvohi bo'lamiz.

...Qosimbek chol istar-istamas suhbatlashib turganida Diyorbek qo'qqisidan insofiylar haqida gap ochdi.

Otasi «yalt» etib u tomon o'girildi.

- Kimlar?!-deb so'radi.

Qosimbek cholning shum odati bor edi: u allaqachon eshitib-surishtirib-bilib ulgurgan yangilikni birovdan eshitsa mutlaqo bexabar kishi qiyofasida anqovsirab quloq solib turar edi.

«Bozor xiyla usuli» deb qo'yar edi. Fozilbek «Torki odat amrimahol» deganlaridek, chol hatto o'z farzandlari bilan muomilada ham shu xiylasini qo'ymas edi.

-Iya, eshitmadiyzmi?!-dedi u otasini hangu-mang qilayotganidan havliqib,-hammaning og'zida shu-ku!...

Shunday dedi-yu, hammaning og'zidagi gap allaqachon bozorboshining qulog'iga yetmay qolmagandir, degan taxmin farosatiga kelmadi.

- Xo'sh?...dedi Qosimbek o'g'lini tezlab. Diyorbek hayajonini bosalmadi.

- Insofiylar bozorni o'z izniga solarmish!

- O'zimizni qadimgi insofgami?...

Diyorbek otasining dabdurustdan bergan savoliga javob topolmay duduqlandi, otasi norozi ohangda tovushni picha ko'tardi:

- Yo, osmondan yangicha insof tushibdi-mi?...Diyorbek tili besuyaklik qilib qo'yganini shundagina fahmladi. «Bozorda insof qolmadi» degan iddao «Sizda insof qolmadi degan mulohazaga tengligini u o'ylab ko'rmagan edi (25-26- bet).

Dialogda avtor nutqi qahramonlar nutqi bilan qo'shilib Diyorbek va Qosimbekning ma'naviy portretini yaratayotganday bo'ladi. Diyorbekning asl qiyofasi otasi bozorboshi ekanligida ochilmadi. Mana Qosimbek chol sog'ligi yomonlashdiki, uning o'rnida Diyorbek o'g'li rahbarlik qilyapti.

Qosimbek tushgan sharoitga mana o'g'li Diyorbek ham tushdi. Bundan ko'rinadiki hanuz sirli inson qalbi, uning evrilishlari bevosita u yashagan sharoit, mansub bo'lgan muhitiga ham bog'liq ekan. Chol juda ayyor «eshitsa-da-bilsada» sir boy bermaydi. «Bozor»da ishlatishi kerak bo'lgan hiylasini, hatto o'g'illariga ham qo'llaydi. Lekin, Fozilbekka emas, ziyraklik va nazokat bobida oqsaydigan, dumbul o'g'li Diyorbekka munosabatda qo'llanadi.

Insonning dilini bilishi, uning sirlarini ochib ko'rsatish-asarlarini biz maroq bilan o'qiydigan yozuvchilarning har biriga beriladigan, ta'rifdagi birinchi so'zlar shular. X.Do'stmuhammad qahramonlarining ma'naviy-ahloqiy qiyofasini birdagina chizmaydi, balki har bir voqea, epizod jarayonida ularning kimligini tasvirlab boradi. Ayniqsa ilmu-ma'rifat, mehr-oqibat, insof nimaligini bilmaydigan «Bozor» kishilarining qiyofasini ayovsiz ochib boradi. Shu bilan birga kitobxonni ham «Bozor» kishisiga aylanib ma'naviyat-ma'rifatdan ajralib qolmaslikka chaqiradi.

Roman qahramoni Fozilbek bozor aylanib yurib «Munosibxon»ini topganday bo'ladi. Uni bir ko'rishdayoq sevib qoladi. Mana o'sha dialog:

«-Uzumning qanaqasi yaxshi...- «Yaxshi ko‘rasiz» demoqchi edi, so‘ngi lahzada savolini o‘zgartirdi: -bo‘ladi?

Fozilbek qizdan ko‘z uzmadi, savolining beo‘xshov chiqqanini ham o‘ylab ko‘rmadi, qizning oppoq manglayiga, bo‘yniga o‘g‘rincha ko‘z qirini tashladi. Qiz bosh ko‘tarib unga qaramadi, lekin savolini javobsiz ham qoldirmadi:

- Xusaynisi...

So‘ng... Fozilbek ortiq so‘z topolmadi, og‘iz juftladi-yu, tili tanglayiga yopishdi qoldi... Fozilbek serryib, uning izidan kuzatganicha qoldi.

- Kitobxonada ishlaydi.

Mo‘ysafid uzumfurushning keyingi so‘zlari xayoli parokanda yigitning qulog‘iga elas-elas chalindi.

- Anavindagi rastaboshining qizi.

Boyaqish, pokiza juvon...

«Sutga chayilganday»-deb yubordi. Fozilbek beixtiyor.

Ushbu dialogdan ko‘rinadiki yozuvchi sevgining qudratini Fozilbekning ruhiy holatidan, undagi hayajonlanishda tasvirlab beradi. «Husaynisi» so‘zi matnda juda o‘rinli qo‘llanilib, bu so‘z matnda Qadriyaning portretini chizib berishdan yoki ko‘p so‘zlikdan saqlagan. Muallif ruhiy holatni shunday ishonarli tasvirlagan-ki Fozilbek hatto mo‘ysafid cholning «pokiza juvon» degan so‘zlariga e‘tibor ham bermaydi. To‘g‘rirog‘i e‘tibor berishni o‘zi xohlamaydi. Romandagi ana shu epizoddan keyin bosh qahramon bilan bog‘liq voqealar ancha tez rivojlanib o‘sib boradi.

«Fozilbek yozuvchining idealidagi qahramon, Qadriya esa, kitobning timsoli bo‘lsada, ular haqiqiy jonli odamlarga xos xususiyatlardan fazilatlardan, o‘y-kechinmalardan butunlay mahrum emas. Shunga ko‘ra, kitobxon deyarli barcha odamlarga taaluqli bo‘lgan xatti-harakatlarni, gap-so‘zlarni, his-tuyg‘ularni ulardan ham kutishga haqli. Chunonchi,

Fozilbekning sharq kishisi, o'zbek yigiti bo'la turib, shuningdek, qo'shnisining kelini qiz chiqmasligi oqibatida bo'layotgan janjallar qulog'ini qomatga keltirayotgan bir sharoitda juvonga uylanishning mohiyati to'g'risida sira o'ylamasligi, erkaklik g'ururining qadri haqida mutlaqo iztirob chekmasligi kitobxonga erish tuyuladi. Teran psixologik tahlil esa, Fozilbekning ana shunday iztirobli ruhiy holatlarini gavdalantirishga va u shu orqali Qadriyaga muhabbati qay darajada yetilganligini mufassal ko'rsatishga yo'l ochishi mumkin edi»¹ deb ta'kidlaydi professor. Sanjar Sodiq.

Bundan tashqari Qadriya romanda faqat ramz sifatida tasvirlanib, «Haqiqiy, jonli odamlarga xos xususiyatlardan» mahrum bo'lganda edi unda asar syujetining mantiqiy o'sishi bo'lmasdi.

Eng xarakterlisi yozuvchi o'zi aytmoqchi bo'lgan «ma'rifat» bosh g'oyasini yorita olmagan bo'lar edi.

Voqealar rivoji davomida Fozilbek har xil yoshdagi kishilar bilan suhbatda bo'ladi-ki, bu dialoglar (sistemasi) o'sishi jarayonida «Bozor»ning asl qiyofasi yoritilib boradi.

-Fozilbekning ko'ngli birdan yumshadi.

-Bu mayda-chuyda hech biri bejiz emas, aka,-dedi u yotig'i bilan-Bularning bari-xosiyatsizlik alomatlari...hamisha illatning hikmati bozorda shayton aralaganida. Diyorbekning boshi shishib ketdi. U ensasi qota boshlaganini yashirmay og'iz juftlaganida Fozilbek mulohazasini adog'iga yetkazdi:

- Bozor talvasasidan chetda omon qolgan odamning o'zi yo'q: Undan ziyon zahmat chekmagan oila ham yo'q. (Shunga g'alva, shunga kasofat ayni urchigan) paytda juftlashayotgan er-xotinlar, shu muhit shu sharoitda dunyoga kelayotgan bolalar...(39- bet).

¹ Sanjar Sodiq. Haqqoniylik kuchi. O'zAS. 2000. 8- dekabr.

Ko‘rinadiki Fozilbek aqlan ish yuritadigan, fikr-mulohazali zamonaviy yigit. U «kasofat ayni (urchigan) paytda» uylanishni xohlamaydi. Xohlaydi, lekin «Bozor»dan yiroq, uning kasofatiga yo‘liqmagan «Munosib»xonni izlaydi. Yozuvchi qahramoni «Bozor» haqidagi munosabatini bildirish bilan birga tushkunlikka ham tushadi. Bu tushkunlik holati xarakter rivojlanishining dastlabki bosqichi uchun to‘g‘ri edi.

Qahramondagi bu tushkunlik keyinchalik yo‘qolib o‘z intihosini topa boradi. Fozilbek endi o‘z sevgilisini «Qadriya»sini topdi. Qadriya uning ko‘nglida chin muhabbatni (ma‘rifatga-muhabbatni) uyg‘otadi. Fozilbekdagi komillik asar syujeti rivojida o‘sib boradi. - Qadriya jilmaydi. Yigitning yuragidagi cho‘g‘ alanga olib gurilladi. Qadriya buni sezdi chog‘i, shundayiga ham oppoq chehrasi yanayam oqarib ketdi. Qadamini jadallashtirdi. Indamay boraverishdan battar o‘ng‘aysizlanib qariyb shivirladi:

- Boya aytganimday, tashlab ketishgan pul yig‘ilib qolgandi. Sizning yordamingiz...

- Meni ham insofiylar qatoriga qo‘shib qo‘yarsiz...

Qadriya hurkib ketgan ohudek Fozilbekka jovdiradi, yon-veridan o‘tayotganlarga birrov ko‘z yugurtirdi-da, gapirdi:

- U gapni faqat sizga aytdim...

- «Faqat menga?!» -Fozilbekning shundayiga ham ichiga sig‘mayotgan hayajoni azbaroyi toshib ketdi. «Demak, faqat menga ravo ko‘rdi. Sirni menga ochdimi, demak!» (69- bet).

Ushbu ikki syujetli dialogdagi «insofiylar» ular bilan bog‘liq Qadriya tilidan aytilgan «tashlab ketilgan pul», «U gapni faqat sizga aytdim» kabi tillol va gaplari tushunarsiz. «Insofiylar» timsoliku tushunarli lekin, ular bilan bog‘liq nima sir bo‘lishi mumkin. Unday bo‘lsa Qadriya nega «U gapni faqat sizga aytdim» deya javob qaytaradi? Xullas «Asarda ramzlarning haddan

tashqari ko‘payib ketishi oqibatida ularning ba‘zilari qanday ma’no anglatishi yoki qaysi g‘oyaviy maqsadga xizmat qilishi noma’lumroq bo‘lib qolgan».¹

«Odatda, dialog haqida gap ketganda, uni «ikki yoki undan ortiq shaxs o‘rtasidagi suhbat» deb ta’riflashadi.

Bu to‘g‘ri fikr. Ammo masalaning boshqa bir tomonini ham hisobga olish zarurdek ko‘rinadi. Gap shundaki dialog yaratish badiiy ijod texnikasining qiyin bo‘laklaridan biri. Ikki yoki undan ortiq shaxs asarda suhbatlashtirilib qo‘yilsa, tamom, shu bilan oddiy dialog yuzaga keladi, deb o‘ylash noto‘g‘ri. Har qanday dialog asarda rivojlantirilib beriladigan voqealar silsilasining muhim bir xalqasi bo‘lib xizmat qilishi va qahramonlarning ichki holatlarinigina emas, balki inson sifatidagi mohiyatini ham ochishga yordam berishi kerak».²

X.Do‘stmuhammad xoh real shaxslar obrazini yaratsin, xoh timsol, ramziy obrazlar yaratsin munozaralarda avtor nutqi ruhiy holatlarni oydinlashtiruvchi vazifasini bajaradi. Nafaqat ruhiy holatlarni balki qahramonning ma’naviy «inson sifatidagi mohiyatini ham ochishga yordam berishi kerak».

Fozilbek va Diyorbek o‘rtasidagi dialogni olaylik: -Otamizning senga mehri bo‘lakcha» - dedi akasi qo‘qqisdan. Fozilbek bunday gapni kutmagandi, shuning uchun bo‘lsa kerak, bu gapning zamiridagi niyatni ilg‘ay olmadi. Akasining o‘ylovlari boshqa bir dard bilan bog‘liqligi uning keyingi gapida ayon bo‘ldi qo‘ydi. - Bozorboshlikni senga topshirsalar, bu yoqda tishini qayrab turgan qashqirlar uncha-buncha odamni... Diyorbekning ko‘zlari o‘ynab ketdi, uning nazarida shu daqiqada bozorning kimning ixtiyoriga o‘tishi hal bo‘ladigandek, ukasini ko‘ndirsa bas, baxt qushi o‘zining qo‘liga kelib qo‘nadigandek edi (142- bet).

¹ Sanjar Sodiq. Haqqoniylik kuchi // O‘zAS. 2000. 8-dekabr.

² A.Boboniyazov. Bir dialog tahlili // O‘TA 1993. 4-son, 56-bet

Aka va uka o'rtasidagi bu «ikki syujet»li dialog ikki vazifani bajaradi. Birinchidan: Diyorbekning ma'naviy qiyofasini ochish uchun uni ma'lum muhitga solib, biror faoliyati tasviri orqali «kim»ligini namoyon qilib o'tirmaydi. Aksincha ko'p so'zlikdan saqlanadi. Ikkinchidan «Bozor boshilikni senga topshirsalar, bu yoqda tishini qayrab turgan qashqirlar uncha muncha odamni...to'liqsiz gapining Diyorbek tilidan aytilishining o'zi uning ma'naviy qiyofasini yaratib qo'yadi. Diyorbek xudbin odam «uncha-muncha odamni...» pichingi bilan o'z ukasiga bozorni men bilan talashib yurma, qo'lingdan kelmaydi demoqchidek.

Dialog yana davom qiladi ayyor Diyorbek ukasining bozorga qiziqishi bormi, yo'qmi, shuni bilish uchun uning ko'ngliga solib ko'radi: - Bozorni uncha-buncha qashqirning tishi, betmaydigan kishi qo'lga olgani ma'qul-dedi Diyorbek bamaylixotir.

- Chayxonayam qarab turmaydi, albatta. Lekin otamiz xaliyam bo'sh kelmaslar, yoki...

- Men bozorni tushunmayman...

- Tushunasa-an, o'smoqchiladi akasi, uning gapini bo'lib. –Otam ham aytgandilar...

- Tushunsam tushunarman, ehtimol mening tushunishim hech kimnikiga o'xshamas...

Biror insonning, bozorni to'la tushundim, uni istagancha izmimda tutib turaman, deyilishining o'zi-uning tushunmagani aslida (143-bet).

Ha, «Bozor» kimlarni o'z domiga tortmagan deysiz. Mana ko'rinayaptiki hatto bir onaning qornidan talashib tushgan ikki jigargo'shalar qay xayolda. Diyorbek «Bozor», mol-dunyo yo'lida o'z ukasini ham unutdi. Bozor ularning huzur halovatini o'g'irladi, aka-uka o'rtasidagi mehr-muhabbatni ham sotib oldi. Yo'q, Fozilbek boshqacha. U bozorga qiziqmaydi emas, qiziqadi. O'zicha bozorni isloh qilmoqchi «gullab yashnatish

qalovini» o‘ylab ham qo‘ygan. Lekin Qadriyani sevdiyu o‘zgardi qoldi. Inson hayotini muhabbatdan boshqa narsa bezay olmasligini anglab etdi. «Qadriya» ma’rifat, kitob timsoli bo‘lib, yozuvchi. «Bozor»dan ta’madan, har qanday ilinjdand qutilishining yagona yo‘li shunda deb biladi. Faqat shu yo‘l bilangina odamlarning ongini, dunyoqarashini o‘zgartirish mumkinligini his qiladi. Aka-ukalar o‘rtasidagi bunday munosabat tasviri bugungi «Bozor» muhiti uchun tipik xodisadir. Muallif Diyorbek, Fozilbeklarning qiyofasini ochish bilan birga kitobxonni bugungi real hayot ruhiga olib kirib, uni «Bozor»ning ming bir qiyofasi haqida o‘ylashga, mulohaza yuritishga tortayotir. Yozuvchi romanda «Bozor» qiyofasini va bozor muhitini ochib berish uchun Baxtish, Kampir, G‘ulomjon, Egam bobo, Zar bobo kabi bir qator yordamchi obrazlarni yaratgan. Bosh qahramon Fozilbek deyarli har kuni bozor aylanadi, qiladigan ishi yo‘q. Shu sababdan «Bozor»ni kuzatadi. Yozuvchi o‘z maqsadini amalga oshirish uchun Fozilbekni obrazlarning har biri bilan suhbatlashtiradi. Bozor haqidagi fikr-mulohazalarini bildiradi. Romanning syujet yo‘nalishini an’anaviy uslubda yozilgan asarlardagidek voqealar emas, balki obrazlarning fikr mulohazalari, dunyoqarashi, ongi tashkil etadi. Fozilbekning baxtshi ismli eski tanishi bilan bo‘lgan suhbatni olaylik:

«Fozilbek mahmadona do‘sti boshlagan mavzuga astoydil qiziqishini namoyish qilib qo‘ymoqchidek bosiqlik bilan tilga kirdi:

- Gunohkorlik tuyg‘usi odam tug‘ilgan lahzadayoq insonga ilashar ekan.
- Har kimga ham emas!...

- Mayli-da! Lekin hali tug‘ilib ulgurmagan, to‘g‘rirog‘i, onasining qornida yotgan homilalik paytlaridayoq odamda o‘z jonini saqlash ilinji, ehtiyoji shakllanib ulgurgan ekan! Va jonzod borki, joni chiqib ketguncha qadar, e-eng so‘ngi soniyaga qadar jon qayg‘usida nafas oladi va jonini

saqlash ilinjida hech qanday yovuzlikdan ham razillikdan ham qaytmaydi (85- bet).

Ushbu dialogdan ko‘rinadi-ki kitobxon syujet rivoji davomida voqealar ketidan ergashmaydi. Balki, hozirgi insonlarning ongi, dunyoqarashi bilan tanishadi. Nafaqat tanishadi shu bilan birga ularning fikr mulohazalarini qalb ko‘zgusidan o‘tkazadi. Zamondoshlari va o‘zini ochiqchasiga tahlil qilib kitobxon o‘z faoliyati haqida xulosalar chiqaradi. Fozilbek va Baxtish dialogining avji nuqtasini kuzataylik:

- Shu - uncha izdihom orasida qiroatxonaga qadam bosadigan birorta aqli rasoiyg‘-a! -Qayerga?

- Qiroatxonaga... loaqal bir marta borgin, bosh suqib ko‘rgin-uvalanib-uqalanib, arang qad rostlab turibdi.

- Menga qolsa, har bitta bozor o‘rtasida bittadan qiroatxona qurdirgan bo‘lar edim. -Qiroatxonada yong‘in xavfi borligi chin - dedi Baxtish - xo‘sh, yopib qo‘yganiga necha yil bo‘ldi? A, necha yil bo‘ldi? Yonib ketmadi-ku? O‘pirilib tushshadi-ku!... Ro‘parasida dang‘illama choyxona, soqqaxona, hammom kechirasanu... dang‘illama xojatxona qurishga pul topiladiyu, qiroatxonaga to‘rtta guvala topilmadi!. (87-89- betlar). Ha yozuvchi ustalik qildi, achitib-achitib aytdi, kuyunib-kuyunib gapirdi.

Bugungi «Bozor» odami ming ilinj yo‘lida o‘z zohiriy olamiga deb beribdi-yu, botiniy olamini (ma‘naviyatini) unutibdi.

X.Do‘stmuhammad ikki do‘stni bekorga suhbatga kiritmadi! Bugungi (yoshlarning) insonlarning oldiga ko‘zgu tushdi xolos. Yozuvchi X.Do‘stmuhammad bosh qahramon Fozilbekning G‘ulomjon, Egambobo, Zar bobo va kampir bilan bo‘lgan dialoglarida ham «Bozor»ni tahlil qiladi. Shunday qilib asar g‘oyasini yaratishda dialoglar asosiy vazifani bajaradi. Lekin «Bozor»ning qator personajlari tilidan hadeb tahlil qilinaiverishi kitobxonning medasiga tegishi ham mumkin. Umuman, «Bozor»ni tahlil

qilish uchun, ma'rifatning zarurligini ta'kidlash uchun shuncha yordamchi personajlar va bosh qahramon orasida dialoglar yaratish shartmidi? Qahramon ruhiyatini davr, ruhi, asarning bosh g'oyasi bilan chuqur bog'langan holda mahorat bilan ochib berishning eng natijali usullaridan biri monologlardan to'g'ri va o'z o'rnida foydalana bilishdir.

X.Do'stmuhammadning mazkur tadqiqot ob'ekti qilib olingan romanida monologning: monolog-xotira, monolog-mulohaza, monolog-muhokama kabi turlari qo'llanilgan. Monologning bu kabi turlari qahramonning qalb dialektikasini, ruhiyatining muhitga bog'liq ekanligini oydinlashtiradi.

«...Fozilbek o'zining tug'ilishi onlarida kechirgan uqubatlarini, sho'rlik onaizori chekkan azoblarini tasavvur qilib, og'ir xo'rsindi!»

Mana, haqiqiy cho'pchak aka! ...Nega o'lishni dog'da qoldirib eson-omon tug'ilishning o'zi cho'pchak!... Cho'pchakdan buyog'i esa...tug'ilguncha qadar...ona qornidagina minnat, ta'ma yo'q, keyin esa keyin... bosh qora tuproqqa yetguncha qadar bu dunyoning jamiki cho'pchashi har qadam har nafasda ilinj, ta'ma, minnatga hamroh, atrofingda girdikapalak, ulardan qochib qutilolmaysan, ularning qurshovida yashab o'tishga mahkumsan, odam!» Fozilbek xayolidan kechgan o'ylarini akasiga ovoz chiqarib aytmadi (43- bet). Keltirilgan ushbu ichki monolog-monolog mulohaza bo'lib hisoblanadi. Mulohaza romanning bosh qahramoni bo'lgan Fozilbekning qalbida kechadi. Fozilbek otasining arzandasi, ha shunday. Lekin u arzanda bo'lishini xohlamaydi. Chunki onasi Fozilbekni dunyoga keltirishi bilan yorug' olam bilan vidolashgan.

Fozilbek o'zi tug'ilib qolgan muhit haqida mulohaza yuritmoqda. U real hayotning ilinjsiz, ta'masiz bo'lishini juda istaydi. Lekin iloji yo'q, endi jonini saqlash ilinjida yashaydi. «Bozor» romanidagi bosh qahramon asar davomida mulohazaga, xayolga ko'p beriladi. Kitobxon romanni o'qir ekan, ekspozitsiyada «bozor» muhiti bilan tanilib borayotib hayajonga tushadi,

chunki birdaniga o'z botiniy olami haqida o'ylay boshlaydi. Ayniqsa, millatning kelajagi bo'lgan yoki kitobxon Fozilbekning quyidagi monologini o'qib chuqur mulohazaga berilmasdan iloji yo'q. O'ziga munosib yor topolmayotgan qahramonimizning hayolidan nimalar kechmayapti deysiz:

«-Munosib? Munosibxon!... jonim, yolg'izim, quvonchim Munosibxon!...» «Qayerlarda qolib ketdingiz, Fozilbek aka, ko'chaga tikilaverib ko'zim to'rt bo'ldiku!» deydi o'pkalanib kelinchak. Qallig'ining o'pkalanishi dastavval Fozilbekka biram yoqadi, o'pkalanish suzilish, mayus tortish burilib ketish, dimog'u firoqqa aylangani sayin esa uning hayronligi ortadi.

«Men sizni ota-onam, aka-opalarim qistovi bilan tanlaganman» - deya olmaydi, bir nimalarni to'qib-bichib yoki dangaliga kelinchakka tushuntirishga urinadi. Kelinchak o'laman sattor tushunmaydi, shunda Fozilbek, «Odatim shu, jonim, bir bozorga sho'ng'isam, haftalab oylab kezaman, bozordan bo'lak dunyoni unutamani» deb uqdirish yo'lini izlaydi.

Bu monologdagi «Munosibxon» haqiqiy real shaxs emas. Balki Fozilbekning hayolidagi qidirayotgan, «Munosibxon»i timsolidir. Fozilbek hali o'z ko'nglidagi yorini topganicha yo'q. U aka-opalari izlayapti, topayapti ham. Lekin bu munosibxonlar unga munosib emasda. Monologda avtor nutqi bilan qahramon nutqi qo'shilib yanada emotsionallikni oshirib kitobxonni o'ziga tortadi. Bu monolog-muhokamada yozuvchi xayolida uylangan Fozilbekning ko'nglidagi tortishuvi ya'ni ota-onasi topgan munosibxon bilan fikriy tortishuvi savol-javob usulida juda o'rinli tasvirlangan. Bu ichki monolog orqali adib qahramon psixologiyasini to'liq kashf qilish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga kitobxon hayolida ham «munosib» so'zi chir aylanib inson taqdiri, ruhiyati haqida chuqur o'ylashga majbur bo'ladi. Bu esa adibning g'arb modern adabiyotini va sharq romantikasini yuksak mahorat bilan mujasamlashtiriganidan dalolat beradi. Bunday

monologlar har qanday kitobxonni xayollar og‘ushiga olib asar voqealari oqimiga qo‘shib qo‘yadi.

Bosh qahramon. Fozilbekning monolog-xotirasiga e‘tibor beraylik:

«O‘z ko‘zi bilan ko‘rdi, shohid bo‘ldiki, o‘lim uzoqdagi narsa emas, u har kimga hissasidagi pulidan-da yaqinroq. Pul sarflanif-sovurilib ketadi, yo‘qoladi-ketadi, u qo‘lning kiri, pulning egasi yo‘q, pul jozibali bo‘lsa-da, vafosiz, tirik jon borki, shu vafosizga intiladi, unga vafo ko‘rsatgisi keladi, undan sadoqatlar kutadi, uning ishqida aylanib-o‘rgiladi, o‘lim esa yovuz, biroq-vafodor. Pulni harchand maxkam tutma, ehtiyotlama, unga harchand joningni nisor qilma-befoyda, u dunyodagi eng suyuq oyoq ayoldan-da bevaforoq» (45- bet).

Fozilbek bozor aylanib yurib bolalikdagi do‘sti In‘omalini ko‘rib qoladi. Yuqoridagi monolog o‘n uch-o‘n to‘rt yoshlarida In‘omalinikiga borgan Fozilbekning «o‘lim» va «pul» haqidagi fikr mulohazalari edi. O‘ttiz yoshlardagi Fozilbek tilidan berilgan bu monolog-xotira qahramonning individual ma‘naviy olamini yaratish uchun juda o‘rinli qo‘llanilgan. Aks holda yozuvchi ko‘proq lirik chekinish qilib ko‘p so‘zlikka berilgan bo‘lardi. Monologning tili aniq va ravshan, hozirgi hayotning qiyofasini ko‘z oldimizda to‘liq gavdalantiradi.

Fozilbekning monolog nutqi, ayniqsa «o‘lim» va «pul» to‘g‘risidagi qalb iztiroblari kitobxonga ham ta’sir ko‘rsatadi va shu usulda Fozilbek obrazini oydinlashtiradi. Yozuvchi Fozilbek monologi vositasida zamondoshlarimizning qiyofasini, yashirin sir-asrorlarini, o‘y-fikrlarini tipiklashtirib beradi. Asar qahramoni o‘ziga munosib yor topolmayotganidan, topgandayam «Bozor»dan begonasini o‘ziga faqat o‘zigagina munosibini topish qiyin bo‘layotganidan iztirob chekadi. Hatto onadan tug‘ilganiga ham ming pushaymon bo‘ladi. shu asnoda ming xil hayollarga boradi. Yashash ilinjida chora izlaydi. «Mana, tuproqdan tashqarida kunni-kunga, yilni-yilga

tasbeh donalariday terib yuribdi. O'ylagani-o'ylagan, «Aslida shart emasdi, bu tinim bilmas charxi kajraftar uchun shuncha odam kammidi?!» deya shakkok mulohazalar yuritishdan tolmaydi. Tug'ildi-nima-yu tug'ilmadi nima?... Tug'ilmagan taqdirda bashariyatning biron mo'yi kamayib qolmas edi. Tug'ilib, voyaga yetib odam-bashara bo'lib yuribdi. Bundan bashariyatning biron tuki ortib ketgani ham yo'q...Unday desa, «Yashashdan na xojat?» deb dunyodan bezguvchilar ko'payib ketsa, bu yorug' olamning ahvoli ne kechadi?...Bu yorug' dunyo kimga qoladi? (48- bet). Bu monolog-mulohaza Fozilbekning Qadriyani uchratmasdan oldingi xayolidagi fikr-mulohazalari, qahramonni shu kabi xayollar esini tanibdiki qiynaydi. Yozuvchi shunday holatni bekorga yaratmaydi. Haqiqatan ham yashashdan ne foyda «Bozor»ni ahvoli-ku hammaga ayon, ustiga-ustak o'z mahbubasini topolmasa.

X.Do'stmuhammad Qadriya obrazini yaratib Fozilbekni bunday bo'lmag'ur xayollardan xalos etadi. Endi u boshqalarga xalaqit bermasdan o'ziga yashashdan na xojat demay, balki o'zgacha yashashni orzu qiladi. Chunki qadriya uning qorong'u qalbiga chiroq yoqdi. «Fozilbek seskinib tushdi». Qo'liga pul tushdi deguncha bozorga qarab chopadi... Pul tushmasa-chi? Pul tushmasa qorong'i va zax xonadan chiqmay o'tiradi. Kitob yig'adi, ortadi-surtadi, o'qiydi. Pulu bozor bilan ishi yo'q. Fozilbek qizni birinchi uchratishdayoq buni sezdi. Chunki qiz rasta yoniga keldi, bir bosh Husayni uzum oldi-da, kaftidagi pulni uzatdi. Narxini so'ramadi, tortishmadi. Indamaygina iziga qaytdi. «Pulga begona qiz» deb yubordi o'sha topda Fozilbek. «Sutga chayilganday!» deb beixtiyor og'zidan chiqqan hayratiga shu xitob qo'shildi» (33-bet).

Monologni o'qigan kitobxon mazkur nutqlar, ichki hissiyotlar muallifni kimi yoki qahramonnikini? - buni bilmay qolishi tabiiy. Chunki monologdagi «qo'liga pul tushsa bozorga chopadi», «pulga begona qiz», «Sutga

chayilganday» soʻzlari yozuvchining yoki qahramonning soʻzlari emas, balki (ilohdan) gʻoyibdan kelayotgan soʻzlarday. Asarda monologga avtor nutqining aralashib kelishi qahramonning ruhiyatini yorqinroq ochishga yordam beradi. Fozilbek Qadriyani ilk bor bozorda uchratdi. U Qadriyaning «Husaynisi» degan samimiy, qoʻngʻiroqday ovoziga mahliyo boʻlib qolgan edi. Oʻshanda uzumfurush chol - «Anavindagi rastaboshining qizi. Boyaqish, pokiza juvon» degandi. Qadriyani qiroatxonga kuzatib qoʻygan Fozilbekning xayolidan kechgan. Fikrlarni kuzataylik: «demak, oilali emas! - dedi ich-etini kemirayotgan shubha gumonlarini haydab. – Uzumfurush amaki aytdi-qoʻydi-da...juvon deb oʻylagan. Basharti..Basharti juvon boʻlgan taqdirda ham, oilali emas (105-bet). Yozuvchi bu keltirilgan monolog orqali inson qalbining yashirin, hech kim bilmaydigan, faqat oʻzigagina ayon boʻlgan qirralarini ochishga harakat qiladi.

Lekin uning nutqidagi «juvon boʻlgan taqdirda ham, oilali emas, soʻzlari Fozilbekning juvonmi-qizmi bunga eʼtibor ham bermayotganligini anglatadi. Professor Sanjar Sodiq «Haqqoniylik kuchi» maqolasida «Fozilbekning Sharq kishisi, oʻzbek yigiti boʻlaturib, shuningdek, qoʻshnisining kelini qiz chiqmasligi oqibatida boʻlayotgan janjallar qulogʻini qomatga keltirayotgan bir sharoitda juvonga uylanishining mohiyati toʻgʻrisida sira oʻylamasligi, erkaklik gʻururining qadri haqida mutlaqo iztirob chekmasligi kitobxonga erish tuyuladi»¹ deb toʻgʻri taʼkidlaydi.

Ichki monolog qahramonlarning ogʻir ruhiy holatlarini, birovga aytib boʻlmaydigan yashirin, iztirobli dardlarini kitobxonga yetkazish usulidir. Yozuvchi X.Doʻstmuhammad oʻziga xos badiiy tajribaga ega boʻlgan yuksak mahorat egasidir.

«Bozor»dagi monologlar anʼanaviy asarlardagi monologlardan farq qiladi. Anʼanaviy uslubdagi monologlarda koʻproq biron voqeani eslash yaʼni

¹ Sanjar Sodiq. Haqqoniylik kuchi // OʻzAS. 2000. 8- dekabr.

xotirada tiklash va monolog-muhokama ustunroq bo'lsa, «Bozor»da qahramon ko'proq voqelikni o'z ong prizmasidan o'tkazib xayolotga beriladi. O'tgan zamondagi voqealar emas, balki o'sha paytdagi ruhiy xayoloti qayta jonlantiriladi. Bundan tashqari monologlar ko'proq mulohaza xarakteriga ega.

O.Muxtorning «Ming bir qiyofa» romani voqelikni badiiy idrok qilish va ifoda tarziga ko'ra Omon Muxtor nasriga xos uslub taraqqiyotida o'ziga xos xalqani tashkil etdi. Ular milliy adabiy an'analar salmog'i kuchliligi bilan ajralib turadi. «Aflotun» romani tafakkur tarzida xalq mifologik qarashlari asosida yuzaga kelgan e'tiqodiy ishonchlarga asoslanish poetik mushohadaning badiiy-estetik qimmatini oshirgan.

«Ko'zgu oldidagi odam», «Tepalikdagi xaroba» romanlar fikr va tafakkurlarga asoslangan, qahramon o'y-xotiralari, muhokama-mulohazalar asosiga qurilgan. Xarakterlar polifonik tahlil qilingan. Demak, O.Muxtor ijodiy izlanishlarida falsafiylik, tarix, bugun va kelajakni bog'lishga intilish, yozuvchi va qahramon o'ychanligi ko'zga tashlanadi. Shunga muvofiq tarzda analitik va shartli ramziy-uslubiy yo'nalishlar, ba'zan modernistik talqin unsurlari kuzatiladi, publisistik talqin ko'zga tashlanadi. Ayrim hollarda adib kitobxonga quruq axborot tarzidagi tafsilotlarni bayon qiladi. Natijada yozuvchining his-tuyg'ulari to'lig'icha o'quvchiga yetib bormaydi.

X.Do'stmuhammadning «Bozor» romanida esxatologik xarakterdagi mifdan foydalanilgan. «Oqbo'zot va Ko'kbo'zot» haqidagi «rivoyat» deb berilgan mifdan tarixiy asoslari jihatidan qadimgi turk mifologiyasi bilan aloqadorligi folklorshunoslikda H.Zarif, M.Jo'raev, S.A.Qasqabasov tadqiqotlarida o'rganilgan. Biroq, romanda «Adabiy borliq qarshisida insonning umri qatradir», degan fikrni ta'kidlash, roman dramatizmi va syujet dinamikasini kuchaytirish, mazmunni teranlashtirish maqsadida

muayyan shakllanish va takomillashish bosqichini o'tagan afsonaga murojaat qilinadi.

Ma'naviy-axloqiy muammolar talqini

Ma'lumki, muayyan asarda kompozitsiya tasvirning aniq va muayyan belgi-xususiyatlarini uyushtirish, tartibga solish hamda harakat maydoni – holat ruhiyatini ta'min etish vazifasini bajaradi. To'g'rirog'i, real voqelik mohiyati va uning tasvirda namoyon bo'lish tarzini badiiy shakllantirish ifodasi mazkur istilohning tabiatini asoslaydi. Unda ichki mohiyat va tashqi tarkib uyg'unligi, maqsadga muvofiqlik va o'zaro ta'sir nisbati, sharoit taqozosi va xarakter mantig'i uzviyligi, hayotiy aqida va badiiy tasvirni bir-biriga bog'lashda namoyon bo'ladi. Aynan poetikaning zaruriy sharti – shakl va mazmun vobastaligi struktural yaxlitlikni ta'minlaydi. Odatda, har janr tadrijining badiiy mundarijasi – kompozitsiyasi mudomi murakkab hamda ko'p qatlamli tizimda markazlashadi. Jumladan, romanda unga xos tamoyillar nutqiy ong (monolog va dialog), hodisot (tafsilot va chizgilar), manzara (tabiat tasviri va portret) vositasida tadqiq sahniga ko'tariladi. Atamaning murakkabligi uning voqelik ziddiyatidan yangidan-yangi sifat ko'rsatkichi o'sib chiqishi yordamida izohlanadi. Shu ma'noda, kompozitsiyani g'oyaviy-hayotiy-estetik asosni birlashtirib turadigan vositalar majmui tarzida baholash mumkin. Demak, kompozitsion taomillar bayon shakli va hayotiy ustqurma uzluksizligini tayinlaydi. Bevosita ijodkor konsepsiyasining asardagi ishlanganlik darajasi epik janrlarda muayyan aloqa badiiy intizom shakllanishining kafolatini tashkil qiladi.

«Bozor» romani davr va zamondoshlarimiz haqidagi mushohadalarimizni boyitish qudratiga molik bo'lgan, hayotimizda «Bozor» munosabatlarini noto'g'ri tushunish sababli paydo bo'layotgan kamchiliklarning badiiy in'ikosidan tug'ilgan asardir. Romanda voqealikni badiiy tafakkur ko'zi bilan tadqiq etish, qahramonlar taqdirida «Bozor»

munosabatlari keltirilib chiqargan illat (kitob o'qimaslik)lar silsilasi, bugungi yangi davrning badiiy qiyofasi chizib berilgan. Asarda ma'rifatparvarlik g'oyasi ilgari surilgan va xalollik, imon, to'g'ri so'zlik, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlar ham ta'sirli ifodalangan.

Ayniqsa Fozilbek va Qadriyalar romanchiligimizdagi yangi qahramonlardir. Ular qiyofasida bugungi davr ruhi aks etib turadi. Har bir davrning o'z qahramonlari bo'ladi. Fozilbek va Qadriyalar yozuvchining kashfiyoti emas, balki bugungi zamon talabi, zamondoshlarimizning ma'naviy ehtiyoji natijasidir. Fozilbek va Qadriya ana shunday ehtiyoj qahramonlaridir. Davr qahramoni deb hisoblanayotgan Fozilbek hayoti va o'ziga xos dunyoqarashi tasviri orqali bugungi kunimizning ma'naviy qiyofasini ko'ramiz.

Fozilbek hozirgi bozorchilarga xos xususiyatlardan butunlay mahrum emas. Jumladan o'sha odamlar kabi «Fozilbek bozordan beri, kelmaydi, olomon oqimiga qo'shildi deguncha joni orom oladi. Demak, u ham o-la-di!» U o'zining hamma qatori oluvchi ekanidan tonmaydi, faqat miyig'ida kulib, aybdor odamdek o'ng'aysizlanib, «har kim didi-farosatiga yarasha oladi» deb falsafa qiladi.

Bozor va uning odamlari yozuvchiga inson hayoti muammolarini badiiy tahlildan o'tkazish uchun bir vosita bo'lib xizmat qiladi. «Bozor» manzarasining ta'sirchan chiqishi uchun yozuvchi romanga «Jajman» hikoyasi mazmunini ustalik bilan singdirgan. Muallif falsafasidan ayon bo'lishicha «Bozorga asl odamlar kerak». Shu tariqa yozuvchi o'zining maqsadlaridan biri hozirgi zamon bozorida ish yuritadigan inson qiyofasini chizish ekanligini ayon etadi va asar markaziga Fozilbek timsolini bosh qahramon qilib qo'yadi. Uning qiyofasini chizishda muallif realistik tasvir yo'llaridan ancha chekinib, romantik bo'yoqlarga keng o'rin beradi. Fozilbek

o'zi yashayotgan muhitni ayniqsa «Bozorni» qayta qurishni juda-juda istaydi. Lekin buni amalga oshirish yo'lini topolmay qiynaladi.

Hatto bemavrid dunyoga kelganligidan noliydi ham shunday bo'lsada u yashashdan bir «ilinj» topadi. U ham bo'lsa Qadriyaning muhabbatiga, sazovar bo'lish. Qadriya romandagi ma'rifat timsoli bo'lib Fozilbekning hayotida kelajakka yo'naltiruvchi yorug' chiroq bo'lib uning hayotga bo'lgan umidini paydo qiladi.

Romanda hayot muammolarining davr qahramonlari talqinida berilishi shakliy izlanishlardagi rang-baranglik, o'ziga xoslik-romanning ijtimoiy-problematik va psixologik roman ekanligidan dalolat beradi. Muallif asarda bugungi hayotimizdagi yutuq va kamchiliklarni, ayniqsa, zamondosh yillarimizning ma'naviy hayotidagi kamchiliklarni ochib berishi va shu orqali biz yoshlarni kelajak uchun yashashga, fikr-mulohaza yuritishga undaydi.

Birinchidan: Romanda, bosh qahramon Fozilbek xarakteri talqinida bugungi davrdagi yoshlarning ongida ro'y berayotgan ziddiyatlar o'zaro qarama-qarshiliklar va ma'naviy bo'shliqlarga ma'rifatparvarlik, fikr-mulohazakorlik kabi g'oya va insoniy fazilatlar qarshi qo'yiladi. Romanda qahramonning «Men»i bugungi hayotdan «Bozor» muhitidan ma'no axtaradi. Muhitning sog'lom bo'lishi faqat ma'rifatga bog'liq ekanligini anglab yetadi.

Ikkinchidan: Romandagi Qadriya real shaxsdan ko'ra ko'proq «kitob» va «ma'rifat» timsolidir. Biron bir tuzum yoki jamiyat umri tugab ikkinchisi yashayotgan muhitda albatta ma'naviy bo'hronlar bo'lishi tabiiy. Tarixga bir nazar solaylik: XX asr boshlarida jadidlar xalqni maholatdan, qoloqlikdan olib chiqishning eng to'g'ri yo'li ma'rifat ekanligini anglab yetganlar. Shunday ekan bugun dunyo bizga yuz tutayotgan davrda biz dovdirab qolmasligimiz va buyuk xalq avlodlari ekanligimizni anglagan holda aql

bilan fikr-mushohada bilan ish tutishimiz lozim. Shunday bir vaziyatda ma'rifatparvarlik bosh g'oya bo'lishi ijtimoiy zaruratdir.

Romanning g'oyaviy mazmunidagi salmoqdorlik, haqqoniylik bilan ta'minlangan asosiy qahramonlar xarakterida adabiyotning tasvir doirasiga kirmagan, yangi hayotiy material va muhim ijtimoiy muammolar aks etgandagina haqiqiy badiyat namunasi yaratiladi. X.Do'stmuhammadning «Bozor» romani shu nuqtai nazardan e'tiborga molikdir. Yozuvchi romanda zamondoshlarimiz xayolida kurtak otib kelayotgan, eng avvalo, bugungi muhitni «Bozor» sharoitini go'zallashtirishga xizmat qiladigan asl-xalqparvar rahbarlar tayyorlash muammosini qo'yadi. Bosh qahramon ijtimoiy va ma'naviy qiyofasining hayot haqiqatiga, uning mantiqiga tayanib yaratilishi yozuvchining muvaffaqiyatidir.

Bozor inson hayoti muammolarini ko'tarish uchun nihoyatda qulay vosita sifatida tanlanishi yozuvchi xohishi bilangina emas balki ko'proq turmush taqozasiga ro'y bergandek tuyuladi, chunki roman qahramonlaridan Diyorbek aytganidek, «Odamlarning ko'ngli, o'y-xayoli, maqsad-maslagigacha bozorxonaga aylanib ketdi». Shunga ko'ra, Fozilbek juda to'g'ri ta'kidlaganidek, «Bozor» odamlarning asl basharasini kunday ravshan ko'rish mumkin bo'lgan eng qulay joy hisoblanadi.

Shu tariqa, muallif bozordan inson hayoti muammolarini, ofatlarini kunday ravshan ko'rsatuvchi ko'zgu sifatida foydalanishga urinadi.

Romanda unumli qo'llangan modernistik tasvir unsurlari qatoriga ramzlardan nihoyatda keng foydalanish va ular zimmasiga cheksiz teran ma'no yuklash, kutilmagan voqealarga alohida e'tibor qaratish va ularni qayta-qayta tilga olish yo'li bilan ayrim masalalarning muhimligini ta'kidlab borish, psixologik tahlilda o'ta qisqalikka intilish va realizmga xos mufassallikdan qochish kabi usullar kiradi. Romanda eng ko'p qo'llangan ramzlar sifatida to'yga taklifnoma va o'lim xabari timsollarini ajratib

ko'rsatish to'g'ridir. Fozilbek qayerga bormasin, qo'liga taklif qog'ozi tutqazadilar. Shuningdek, u kim bilan gaplashmasin, deyarli doim zakonchi (asar qahramoni laqabi)ning janozasi kechiktirilib o'ligi ko'milmayotganini so'zlaydilar. Asar oxirida esa, uning otasi Qosimbekning vafoti haqidagi xabarni keltiradilar. Mazkur ikki asosiy ramz vositasida muallif o'zining Fozilbek tilidan bayon qilingan: «Chin sevgi-yu o'limdan boshqasi yolg'on» degan g'oyasini alohida ta'kidlagan tarzda yuzaga chiqarishga uringan ko'rinadi.

Roman boshlarida janozasi kechiktirilib, o'lim tekshirishga olib ketilgan zakonchi asar oxirigacha ham ko'milmay qolib ketaveradi. Hamma mayitning holiga dildan achinsa-da uni xorlikdan qutqarish yo'lida hech narsa qilolmaydigan ojiz kimsalar bo'lib qolaveradi. Yozuvchi talqinidan ayon bo'lishicha buning sabablaridan biri inson nafsning, manfaatning, foydaning quliga aylana borib, o'z qadr-qimmatini yerga urishi hisoblanadi.

Xuddi shuning ramzi sifatida romanda chuqurga tushib ketgan ot timsoli gavdalantiriladi. Ot beli sinib, o'lib yotganiga qaramay, chaqqon «bozor»lar uning jigarini o'marib, odamlarga sotishga urinadilar. Bu jonli manzara inson qadrini tushirayotgan omillardan biri uning foyda yo'lida hech qanday tubanlikdan hayiqmay qo'yganligi haqida xulosa chiqarishga yo'l ochadi.

Ko'rinadiki, «Bozor» romanida davrning eng muhim muammolari «ma'naviyat va ma'rifat, bugungi yoshlar tarbiyasi masalasi juda o'rinli badiiy tahlil qilingan. Yozuvchi bu masalaga shunchaki yondashmaydi balki ijtimoiy darajaga ko'tariladi. Shu bilan butun jamoatchilikning diqqatini o'ziga qaratdi desak noto'g'ri bo'lmaydi. Romanda «voqeaga ijtimoiy urg'u berilib yozilganda, uning ahamiyati bir qadar oshadi. Madomiki, ijtimoiy hodisa sifatida tahlil etilayotgan voqea falsafiy mushohada etilsa, u umuminsoniy qimmatga ega bo'ladi».¹

¹ Ahmad Otaboy. Shaxs, jamiyat va abadiyat // O'zAS 1997. 14- mart.

Yozuvchi Fozilbek portretini chizishda ikki xil yo'l tutadi. Avvalo, Fozilbek qiyofasi avtor nutqi orqali chiziladi. Lekin romanda ikkinchi yo'l ya'ni qahramonning ma'naviy portretini chizishda dialog va ichki monologlarga alohida psixologik vazifa yuklatilgan.

Roman syujetining rivojidan, qahramonlarning o'zaro suhbatlaridan shu narsa anglashiladiki yozuvchi qahramonlarning tashqi faoliyatidan ko'ra ularning fikr qilish, falsafa yuritish kabi xislatlariga ko'proq e'tibor beradi.

Roman qahramonlari biron ishni qilishdan oldin fikr-mushohadaga berilishadi. Shu bois romanda voqealikdan ko'ra his-tuyg'u, xayolat, falsafiy mushohada tasviri ustun. Buni bosh qahramon misolida ko'plab ko'rishimiz mumkin:

«Fozilbek: «Shu aql farosating bilan qanday qilib menga xotin bo'lasan?» - deb dag'dag'a qilishdan tilini tiyadi, Munosibxonga eshitirmaygina: «o'sha besh tanga ilinjida odamgarchilik qiyofasidan chiqib...o'zlarining asl aft-angorini ko'z-ko'z qiladilar» deydi, «Bozor-odamlarning asl basharasini kunday ravshan ko'rish mumkin bo'lgan eng qulay joy» deydi» (12- bet).

Ko'rinadiki, Fozilbek romanning boshidanoq «Bozor» va shu muhitdagi odamlarinng asl basharasi haqida xayol suradi. «besh tanga ilinjida odamgarchilik qiyofasidan chiqib...», «Bozor-odamlarning asl basharasini kunday ravshan ko'rish mumkin bo'lgan eng qulay joy» kabi ta'kidlovchi gaplari romanda «Bozor» muhiti va ma'naviyat muammosini asosiy dolzarb masala qilib qo'yadi.

Romanning uslubi an'anaviy uslubdan ancha farq qiladi. Shuningdek, romanni tushunish uchun kitobxon davr muammolarini anglay oladigan mulohazakor, fikr-mushohadan shaxs bo'lmog'i kerak.

«Bugungi o'zbek nasridagi o'zgarishlar o'quvchidan o'z malakasini oshirib berishi shart qilib qo'yimoqda. Chunki badiiy ijod, har qanday san'at turi kabi, kechagi kunnig qolishida qola olmaydi».¹

Roman syujeti rivoji jarayonida bugungi davrning eng muammoli masalalari: yoshlar va kitob, yoshlar va oila, sevgi va muhabbat, adolat, mehr-oqibat, bozor va yoshlar kabilar yoritilib beriladi. Lekin yozuvchi romanda bozor va yoshlar, yoshlar va oila, inson va uning botini kabi muammolarni bo'rttiribroq tasvirlashga harakat qiladi. Shu boisdan Fozilbek xayoli tasvirida bu masalalarni qayta-qayta yoritishga harakat qiladi. Bunday usul ayrim joylarda ortig'idan ko'proq takrorlanib kitobxonni zeriktirib qo'yadi.

Roman qahramoni Fozilbek hali uylanmagan. U o'ziga munosib qizni izlaydi. Onasi va opalari aytgan qizlarni o'ziga «Munosibxon» deb hisoblamaydi. Har galgiday ertalabki nonushta paytida Fozilbek yana ta'na dashnomlarga qolmadi. Shunda yozuvchi noan'anaviy usulni qo'llaydi. Ya'ni bosh qahramon bo'lgan Fozilbek go'yoki opalari aytgan «Munosibxon»ga uylangan Fozilbek xayolan uylangan (opalari olib bergan) qiz bilan qilayotgan suhbatini olaylik.

«Qayerlarda qolib ketdingiz, Fozilbek aka, ko'chaga tikilaverib ko'zim to'rt bo'ldi-ku» deydi o'pkalanib, kelinchak. Qallig'ining o'pkalanishi dastavval Fozilbekka biron yoqadi, o'pkalanish, suzilish mayus tortish burilib ketish, dimog'u firoqqa aylangani sayin esa uning hayronligi ortadi, «Men ota-onam, aka-opalarim qistovi bilan tanglaganman» deya olmaydi, bir nimalarni to'qib-bichib yoki dangaliga kelinchakka tushuntirishga urinadi, kelinchak o'laman tushunmaydi. Shunda Fozilbek:

«Odatim shu, jonim, bir bozorga sho'ng'isam, haftalab, oylab kezaman, bozordan bo'lak dunyoni unutaman» deb uqdirish yo'lini izlaydi» (11- bet).

¹ A.Otaboy. Shaxs, jamiyat va abadiyat // O'zAS. 1997. 14- mart.

Ushbu xayol tasviri shu qadar cho‘zilib ketadi-ki kitobxon asl Fozilbekni unitib xayol surayotgan qahramon bilan hamnafas bo‘lib qoladi. Fozilbek birgina shu xayoliy olamidagi «Munosibxon» bilan bozor va odamlar, bozor muhitidagi inson qiyofasi, pul va inson muammolari haqida falsafa yuritadi. Real qahramonning xayolidan shunchalik muammolarning o‘rin olishi, bundan tashqari o‘zi xohlamagan qizga xayolda uylanib u bilan ijtimoiy muammolar haqida bahslashuvi an‘anaviy realistik uslubga ziddir. Ammo quvonarlisi shuki romanni o‘qigan har bir kitobxon avvalo Fozilbekning taqdiriga uning «munosibxon» kim? - degan o‘yga boradi. Shu bilan kitobxon voqelikka emas, balki Fozilbekning idealidagi «Munosibxon»ga qiziqib qoladi. Fozilbek sevgi va muhabbat, bozor va bu muhitdagi qizlar «Munosibxon»lar haqida xayoliga tolqanda kitobxon ham o‘zi yashayotgan muhit va davr muammolari haqida o‘ylay ketadi. Nafaqat o‘ylaydi, balki bosh qahramon bilan davr muammolari haqida bahslashib-tortishib boradi.

Yozuvchi talqiniga ko‘ra, bozorga rahbarlikning qiyinligi undagi illatlar bilan belgilanadi. Unday illatlardan biri sifatida asarda sotuvchiyu xaridorlarning turli-tuman amaldorlar, tashkilotlar va shubhali «soliqchi»lar tomonidan talanishi manzarasi chiziladi. Bu manzara romanda «tog‘ni yutvorsayam to‘ymaydigan» nojins mahluq timsolini yaratish orqali amalga oshiriladi. Bu nojins hech joydan kelgan emas. Balki odamlarning vujudiga qalbida paydo bo‘lgan shayton vasvasasi nafs balosidir: Romandagi Zar bobo nutqiga e’tibor beraylik:

«Qo‘lga tushmaydigan bandi mana, bo‘tam... bobo endi mushti bilan chap ko‘ksiga gursillatib urdi». – Hibsxonaning kattasi shu yerda, payt poylab yotgan bandilar shu hibsxonadan tiraqaylab qochdi, chirog‘im. Qo‘riqboshi aytayotgan, akang, sen aytayotgan poyloqchilar bilan bu bandilar qo‘lga tushmaydi (125- bet).

Romanda davr muammolari syujet rivoji jarayonida epizodma-epizod, dialogma-dialog tahlil qilinib boradi. Yozuvchi bozor muammolarini yoritishda asosan Fozilbek va boshqa personajlar o'rtasidagi dialogik nutqdan ustalik bilan foydalanadi. Fozilbek asarda Qosimbek, Diyorbek, Qadriya, Baxtish, G'ulomjon, Egam bobo, Zar bobo va boshqalar bilan bo'lgan suhbatlarda bozor va ma'naviyat, bozor va inson qiyofasi masalalarni tahlil qiladi.

«Bozor» romaniga ilohiy mazmundagi kiritmalar ba'zan o'z shakl va mazmunini to'la saqlagan holda, ba'zan ularning mazmuni orqali falsafiy o'y-fikrlarni izohlash, to'ldirish tarzida kiritiladi. Ular adib ijodiy fantaziyasini yanada boyitish, taxayyul ufqlariga turtki berish, aksariyat muammolarga teranroq javob topish imkonini beradi. X.Do'stmuhammad «Bozor» romanining ichki qurilishini uyushtirar ekan, hayotiy materialni o'zlashtirish, o'zga janrlarga xos ayrim jihatlarni sintez qilish yo'lini tanlaydi. U bugungi kun odamlarining xatti-harakati va ko'ngliga nigoh tashlab, nafs domida qolib hayot kechirayotgan befarq, loqayd odamlar haqida so'zlaydi.

Odamlar tabiatidagi aynish va tubanlashish, o'zaro mehr-muhabbat tanqisligi, ma'rifat-ma'naviyat unutilishi bois kelib chiqqani yetarlicha turadi. Muallifning maqsadi odamlar ongida ro'y bergan siljishlar, o'zgarishlarni ko'rsatishdan iborat. Romanda shaxsning milliy o'zligini anglash jarayoni poetik ifodalangan. «Bozor» romanida bir «koinot»da hayot kechirayotgan Fozilbek, Qadriya, Solih qori, Zar bobo, Egam bobo, G'ulomjon, Baxtish kabi personajlar taqdiri aks etgan.

Muallif ilk odamning paydo bo'lishi, ilohiy qudrat bilan surat va ruh berilishi, o'ziga munosib darddosh topgunicha ko'ngli ravshan bo'lmaganligidan so'zlaydi. Uning taqdiri zaldan loyi qorilgandek ma'lum bo'lganligi, bandaning ixtiyoridan xorij ekani: diydorlashmoq, qovushmoq,

tug‘moq, tug‘ilmoq kabi masalalar ilohiy qudrat egasining qo‘lida ekanligi bilan bog‘liq rivoyatlarga murojaat qilinadi. Muallif bugungi zamondoshimizning ko‘ngil talpinishlarini Odam va Havo intilishlari bilan qiyoslaydi. Roman qahramoni Fozilbek qismat changalida ixtiyorsiz hayollar, tizginsiz o‘ylar girdobiga g‘arq bo‘ladi. Zohiran bu o‘y-hayollar bir qadar shakkokona tuyuladi. Biroq, fikrlash Fozilbek uchun qaysidir gunohlari uchun tavgalar o‘rniga o‘tadi. Hayoliy olamida u o‘zini astoyidil emin-erkin sezadi. Chunki u aql-idrok, insof, diyonat va qanoat kishisi. Insoniy mehr-muruvvat, qadr qimmatning o‘lchov va mezonlari yo‘q, deb bilgani bois, ko‘pchilikka o‘xshab moddiy qimmatlarni emas, ma‘naviy qadriyatlarni ulug‘laydi. Qalb amiridan tug‘ilgan istaklari uchun kurashadi. Uning tafakkurida kechgan kurash o‘zining odamzod naslining adoqsiz naslining adoqsiz qismat zanjirida muayyan bir xalqa ekanligini anglashga olib keladi. Rivoyat mazmuni romanda qahramon shaxsiyati, ruhiyat iqlimi, intilishlari mazmuni bilan uzviy tarzda tutashadi. O‘zlikni anglash poklanish orqali, havoyi istak-xohishlardan tiyilish, sabr, bardosh, tavba sarhadlariga etish bilan bog‘liq, degan fikr ilgari suriladi. Haq yo‘ldan ozmaslik, hidoyatga musharraf bo‘lib, ruhan shod bo‘lishlikka undaladi.

Romanda Odam Ato muhabbati, shafqati misolida Fozilbek va Qadriya ruhiy to‘lqinlari, harakat-intilishlari izohlanadi. Romanda dunyoni muhabbat va go‘zallik asrashi mumkin, inson o‘z fe‘lidagi yovuzliklarni bartaraf qilishi lozim, degan g‘oya ifodalangan. Bu borada ilohiy mazmundagi kiritmalarni faol iste’foda etish millatning yashasha va o‘ylash tarzi-milliy ong, estetik tafakkur tamomila yangilanayotgan bir davr o‘zbek romanchiligi uchun yangi shakliy-uslubiy hodisadir.

X.Do‘stmuhammad «olam intiho topmasligi uchun zaminni ezgu amallaru ma‘rifat nuri bilan ziynatlash kerak, buning uchun esa inson gunohlardan poklanishga ulgurmog‘i lozim», degan fikrni olg‘a suradi. «Och

bo‘rilaring qo‘sh baytalni quvib yetishi» bilan bog‘liq afsonaga ishora fantastik libosda bo‘lsa-da, tarixiy voqelik ifodasiga xizmat qildirilgan.

X.Do‘stmuhammadning uslubiy izlanishlarida shartli ramziylikdan tashqari roman konsepsiyasiga ilohiy tushunchalarning singdirilishi orqali ham tasvir yorqinligini ta‘minlay oladi. Boshqacharoq aytganda, nosir ilohiy rivoyatlarni o‘z ko‘zlagan maqsadi, davr nasri tajribalari bilan uzviy bog‘lab, uslubiy izlanishlari doirasini kengaytirishga muvaffaq bo‘ladi.

Insoniyatning tafakkur taraqqiyoti haqida o‘ylovchi qahramon Fozilbek qadim ajdodlar silsilasidan o‘zini ajratib qaramaydi. Bu hol nosirga ilohiy kiritmalarni roman to‘qimasining uzviy bir bo‘lagi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Badiiy g‘oya aniqligi, tasvir me‘yorining maqsadga muvofiqligini ta‘minlaydi, ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.

X U L O S A

XX asrda inson juda ko'p voqealarni, evrilishlarni boshidan o'tkazdi, ozmas-ko'pmas naq uchta ijtimoiy tuzumni ko'rdi va bularning bari adabiyotimizda qaysidir ma'noda aks etdi. Ispan faylasufi va esteti Ortega-i Gasset ta'biri bilan aytganda „ko'z qorachig'ini ichkariga qaratdi“ va o'z ko'ngil dunyosining kashfiga berildi. Masala mohiyatini teranroq anglash uchun nazarimda ishni avvalo, ijodkor va davr munosabatiga to'xtalishdan, ularning o'zaro bir-biriga ta'siri darajalarini tarixiy-ilmiy-nazariy jihatdan aniqlamoqdan boshlash kerak.

XX asrning oxiri, XXI asrning boshlarida adabiyot olamida jiddiy o'zgarishlar bo'y ko'rsata boshlandi. Bu evrilishlarni o'ziga xos tarzda badiiy jihatdan yangilashga urinayotgan adiblarning ijodi bunga yorqin misol bo'la oladi. Jumladan, Xurshid Do'stmuhammadning „Bezor qo'shning qarg'ishi“ asaridagi xilma-xil mavzudagi hikoyalar mazmun va shakl jihatdan adabiyotimizda yangilik bo'ldi. Unda inson ruhiyatining, botiniy olami, kayfiyati turli xil rakurslarda qalamga olinadi. Ayniqsa, shaxs ruhiyatini tasvirlash X.Do'stmuhammad shaxsiyatiga, uslubiga xosdir. Yozuvchi masalani birdaniga olib chiqmaydi, har bir g'oyani mustaqil ravishda boshqarib turadi. Jumladan, „Beozor qushning qarg'ishi“ asarida bular o'zgacha tarzda ifodalangan.

„Beozor qushning qarg'ishi“ asarida jamlangan o'ttizga yaqin hikoya ana shu azim va boy an'anamizga munosabat mevasidir desak, haq gapni aytgan bo'lamiz. Ulardagi ma'no-mazmun inson ruhiyatidagi ajib o'zgarishlarni nozik kuzatishlar bilan ilg'agan yozuvchi qalbining sadolaridir degimiz keladi. X.Do'stmuhammad – talqin va tahlillari, ayniqsa, shaxs ruhiyati ba'zan ramzlarda, ba'zan real tasvirlanadi.

Milliy istiqlol davri o'zbek romanchiligimizda ravnaq topayotgan an'anaviy romanlar qatorida noan'anaviy romanlar ham taraqqiyot sari yuzlangan ekan, yozuvchilarimiz yillar davomida tazyiq ostida yashagan ong ozod bo'lishi, o'z individual uslublariga ega bulish bilan birga har bir asar ham individual bo'lishini anglab yetdilar. Tub islohotlar ta'sirida yangilanayotgan zamonda yangicha tafakkur hosilasi o'laroq yangi asar yaratilishi tabiiydir. Negaki, har bir davr o'z talab va ehtiyojiga ko'ra jamiyatda badiiy-estetik tafakkurni shakllantiradi. Xuddi shu o'rinda X.Dustmuhammad asarlari ham yangi shakllanib kelayotgan badiiy san'at tafakkuri asosida badiiy talqin etilgan jamiyat badiiy-estetik tafakkuri in'ikosidir.

Xususan, «Bozor» romani jurnal variantidayoq qizg'in bahs va mulohazalarga sabab bo'lish bilan birga o'quvchilar tomonidan ham, adabiyotshunoslar tomonidan ham qizgin qabul qilindi. Shuningdek, yozuvchi roman konsepsiyasiga ilohiy tushunchalarni dadil singdiradi, insonlarga xos «ko'ngil sezishi» obrazlilik darajasiga ko'tariladi. Bu esa abstraktlikni emas, inson ongining o'zi sezmagan nuqtalari hamisha harakatda, mushohadada bo'lishining badiiy tahlidir.

«Bozor» romanida yozuvchi qo'llagan shartli ramziy uslublar - Nafsning jonli maxluq - badiiy obraz sifatida talqin etilishi, olam va jamiyat soat muruvvatiga o'xshab betinim harakatdagi bozor ramzida berilishi, jon talvasasida yotgan bozorboshini kimdir chaqirib kelishi - ilohiy tushuncha Azroil ekanligi anglashiladi, Fozilbekning onasining homilalik paytidagi fikr yuritishlari asarning badiiy muvaffaqiyatini ta'minlagan.

Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, o'zbek adiblari G'arb so'z san'atining ilg'or tajriba va tamoyillarini faol o'zlashtirib, yangi o'zbek romanchiligi poetikasiga dadil olib kirmoqdalar. Shu bilan birga, milliy zamindan uzilmagan holda mazkur yangiliklarni an'analar bilan o'zaro omuxta

qilmoqdalar. Hozirgi zamon o'zbek modern romanchiligining o'ziga xos xususiyati xuddi shunda ko'rinadi.

Yozuvchining «Jajman» hikoyasi va «Bozor» romanida majoziiy obrazlar zamiriga juda katta ma'no yuklatiladi. Aytish mumkinki, bu ikki asar garchi ikkisi ikki janrda bo'lsa-da o'zaro hamohangdir. Ularda hayot bozorga qiyos qilinadi.

Noan'anaviy yo'nalishida yaratilgan, badiiy va falsafiy tafakkur uyg'unligi mujassamlashgan X.Do'stmuhammadning «Bozor» romani adabiyotimizga yangi uslubiy janr o'zgarishlarini olib kirdi. Shu ma'noda, adib ijodidagi badiiy-psixologik tahlilning nozik bir jihatni qayd etish joiz. Xususan, keyingi paytda X.Do'stmuhammad ijodiy izlanishlari insonning pinhon dunyosi-xayollari, fantaziyasini aks ettirishi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Bunda birinchidan, olamni, odamni badiiy idrok va ifoda etishda bashariy qadriyatlar nuqtai nazaridan yondashish ustivor tamoyilga aylandi. Badiiy asarlarda hayot manzaralarini, jamiyat psixologiyasini shaxs erki, vijdon erkinligi kabi masalalarning ahamiyatini tushuntirish sari yuz burdi.

Ikkinchidan, falsafiy psixologizm-ramzlar, timsollar asosiga qurilgan badiiy tafakkur mohiyatan realistik tasvir prinsiplarini boyituvchi hamda kengaytiruvchi ijodiy uslubiy yo'nalish sifatida yorqin tajassum topib bormoqda. Ushbu hodisada psixologik tahlil fikrchan kechinmalar holatlarini, kayfiyatlar silsilasini yaratish hisobiga yangi sifat o'zgarishlar voqe bo'layotir. Ko'rinadiki, X.Do'stmuhammad ijodiy izlanishlarida shaxs qalbidagi, ongi-shuuridagi o'zgarishlarni ochishga qaratilgan badiiy idrok yetakchilik qilayotir. Zero, hozirgi davr hikoyalaridagi shaxs badiiy talqinida dunyodagi qotib qolgan tushuncha va aqidalarni o'zgartiruvchi insonning aql-zakovatiga, kuch-qudratiga, ijodiy imkoniyatlariga ishonch tuyg'usi kuchlidir. Bu adiblarimizning insonni va voqelik jarayonlarini ko'rish hamda

ko'rsatishdagi ijodiy individualligi hamda estetik prinsiplarining o'ziga xosligini dalillash bilan birga hikoyachiligimizda tajassum topayotgan shaxs ma'naviy-intellektual dunyosining qirralari, tuyg'ulari nihoyatda sermiqyosligidan, teranligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Ilmu fan mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilsin. Asarlar to‘plami. 2-jild. –T.: O‘zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O‘zbekiston, 1998.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008.
4. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy asar.-T.: Fan, 1978. I jild.
5. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy tarixiy jarayon..-T.: Fan, 1979. II jild.
6. Adabiyot-ruhiyat mulki (Adiblarimizning ijod sirlari haqida durdona fikrlaridan).-T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000.
7. Abdusamatov H. Tarix va badiiy talqin. –T., 1995
8. Ahmad Otaboy. Shaxs, jamiyat va abadiyat // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1997. 14- mart.
9. Abdusamatov H. Yangi zamon, yangi adabiyot // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1996. 29- mart.
10. Abdurahmonova M. Ruhiy dunyo tasviri. –T., 1977.
11. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. –T., 1975-1979.
12. Boboniyozov A. Bir dialog tahlili // O‘zbek tili va adabiyoti. 1993. 4-son.
13. Garipova G. Hozirgi o‘zbek hikoyalarida zamon va makon talqini // O‘zbek tili va adabiyoti. -2003. -№1.
14. Garipova G. Hozirgi o‘zbek hikoyasida inson ekzistensial yolg‘izlik «ko‘zgu» sida // O‘zbek tili va adabiyoti. -2003. -№ 6.
15. Doniyorova Sh. Davr va qahramon muammosiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. -1999. -№ 3.
16. Doniyorova Sh. Shukur Xolmirzaevning hikoyachilikdagi mahorati // O‘zbek tili va adabiyoti. -2000. -№ 2.

17. Davronova Sh. Yozuvchining ijodiy individualligi // O‘zbek tili va adabiyoti. -2001. -№ 6.
18. Karimov H. O‘zlikning badiiy ifodasi. Hikoyalarda hayot muammolari talqini // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. -2003. 11-iyul.
19. Normatov U. Talant tarbiyasi. –T.,1980.
20. Normatov U. Davr tuyg‘usi. –T., 1984.
21. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar.-T.: Ma’naviyat, 2000.
22. Pardaeva Z. Yoshlar nasrida badiiy me’yor // Yoshlik. -2002. -№2.
23. Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim? // O‘zbek tili va adabiyoti. -2001. -№ 6.
24. Rustamova M. Hozirgi hikoyachilikda ruhiyat talqini // O‘zbek tili va adabiyoti. -2003. -№4.
25. Quljanov A. Realizm va romantizm. –T.,1983.
26. Sanjar Sodiq. Haqqoniylik kuchi // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2000. 8- dekabr.
27. Sattorova G. Badiiy niyat va xarakter talqini // O‘zbek tili va adabiyoti. 2000. 6- son.
28. Sattorova G. Inson irodasining badiiy-tasviriy talqini // O‘zbek tili va adabiyoti. 2001. 6- son.
29. Karimov Q. Ko‘zgudagi qiyofa // O‘zbek tili va adabiyoti. 1996 yil 26-aprel.
30. Ulug‘ov A. Oshkoralik ochgan imkonlar // Sharq yulduzi. 1991. 5- son.
31. Xurshid Do‘stmuhammad. Bozor (roman). –T.: Sharq, 2000.
32. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi. –T., 1983.
33. Umurov H. Adabiyot nazariyasi.-T.: Sharq, 2002.
34. Imomova G. Ruhiy iztiroblar. –T., 1992.

35. Xolmurodov A. Ruhiy kechinma va uning badiiy ifodasi // O‘zbek tili va adabiyoti. 1999. 3- son.
36. Xalibekov A. Zamon, adabiyot, qahramon // Hurriyat. 2001. 2-8- may.
37. Xolmurodov A. Yozuvchining xarakter yaratish mahorati // O‘zbek tili va adabiyoti.-2003. 5- son.
38. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. –T.: Fan, 2006.
39. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T.: 2004.
40. To‘raev D. O‘zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. – T.: Universitet, 2001.
41. Sharafiddinov O. Modernizm jo‘n hodisa emas // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2002. 7-iyun.
42. [www. o‘zbek adabiyoti.com](http://www.o'zbek-adabiyoti.com)
44. [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
44. [www. nuqf. intal. uz](http://www.nuqf.intal.uz)